

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISPER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Qulyozma huquqida
UDK-

Muhamedov Timur Xolmaxmatovich

KASB - HUNAR KOLLEJ O'QUVCHILARINI AMALIY SAN'AT
VOSITASIDA AXLOQIY TARBIYALASH

5A – 111001 – Kasbiy ta'lim (Amaliy san'at) bo'yicha mutaxassisligi

Magistr

Akademik darajasini olish uchun yozilgan

MAGISTRLIK DISSERTASIYASI

Ish ko'rib chiqildi va himoyaga ruxsat berildi.

Ilmiy rahbar: prof. Muhamadiyev E.

“Badiiy grafika va uni o'qitish metodikasi”

kafedrasi mudiri katta o'qit. Ergashov D

M.O'

SAMARQAND – 2014

MUNDARIJA.

Kirish.....	3-11
I. bob. Kasb - hunar kollejo'quvchilarini amaliy san'at vositasida axloqiy tarbiyalashning o'ziga xosligi, mohiyati.....	12
1.1. Axloqiy tarbiya tushunchasi va uning mohiyati.....	12-24
1.2. Kasb - hunar kollej o'quvchilarini amaliy san'at vositasida axloqiy tarbiyalashda sharq olimlarining pedagogik qarashlari.....	24-29
1.3. Kasb–hunar kollejlarda o'quvchilarni axloqiy tarbiyalash darslarini samaradorligini oshirish uchun fan o'qituvchisiga qo'yiladigan asosiy talablar.....	30-36
Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	37-39
2 bob. Kasb - hunar kollejo'quvchilarini amaliy san'at vositasida axloqiy tarbiyadagi ahvoli.....	40-46
2.1. Amaliy san'at mashg'ulotlarini tashkil yetish metodikasi.....	47-54
2.2. Naqqoshlik mashg'ulotlarini tashkil yetish metodikasi.....	54-62
2.3. Amaliy san'atda milliylik ramzlaridan foydalanib, o'quvchilarga axloqiy tarbiyani rivojlantirish.....	62-65
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	66-67
3 bob. Amaliy san'atni o'rganish bilan axloqiy tarbiyani rivojlantirishda tajriba– sinov ishlarining borishi.....	68
3.1. Amaliy san'atni o'zlashtirish bilan axloqiy tarbiyani rivojlantirishga oid tajriba–sinov ishlarini tashkil yetish.....	68-72
3.2. Tajriba– sinov izlanishlarining natijalari va uning tahlili.....	73-79
Umumiy xulosa.....	80-85
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	86-88
Ilovai.....	89-98

Kirish

«Milliy boylik bizga ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan. Binobarin, biz ham uni ko'z qarachig'iday asrab-avaylashimiz va farzandlarimizga meros qilib qoldirishimiz kerak».¹

Islom Karimov,

Mavzuning dolzabligi: O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka yerishgandan so'ng barjcha sohalarda tub burilish davri bo'ldi. Buni uyg'onish davri ham deyishmoqda. O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy hayotidagi bu kabi o'zgarishlar ta'lim tizimida yanada aniq o'z ifodasini topmoqda. Ta'lim – tarbiyaning maqsad va vazifalari butunlay mazmun jihatidan ham yangilandi. Endi biz O'zbekiston, Vatanimizning istiqlolini mustahkamlash uchun harakat qilayapmiz. Taraqqiyotning yuksak dunyo tajribasini o'zlashtirib, yuksak ma'naviyatli, ongli insonlar, yerkin va obod fuqarolik jamiyatni qurish niyatida qadam basmoqdamiz. Shuning uchun ta'lim – tarbiyaga yetiborni kuchaytirish, milliy, axloqiy ongni shuurga yetkazish, singdirish, yetuk – salohiyat va aqliy iqtidorga yega odamlarni voyaga yetkazish talabi turibdi.

Albatta buni ro'yobga chiqarishda ta'lim bilan tarbiya jarayonini takomillashtirish, xususan, mustaqil yo'l va hayot bo'sag'asida turgan kasb-hunar kollej o'quvchilarini axloqiy madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyatga yegadir.

Prezidentimiz I. A. Karimov 29-avgust 1997-yil Respublika Oliy kengashining XVI sessiyasida, shunday degandilar “Madaniyatimiz, tariximiz–bizning yeng katta, ko'z qarachig'idek asraydigan boyligimiz. Ular hyech qachon yeskirmaydi, inqirozga yuz tutmaydi, yaroqsiz holga kelmaydi. Ular odamning, jamiyatini ma'nan yoshartirib turadigan bebaho ne'matlardir. Ana shu ne'matdan har bir kishini bahramand yetish–biz qurayotgan jamiyatning asosiy maqsaddir”².

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон келажаги буюк давлат. Т.: Ўзбекистон. 1995. 2-бет.

² . Karimov I. A. “Ijobiy ishlarimizni oxiriga yetkazaylik” Toshkent: O'zbekiston, 1994, 246 bet.

Bugungi kunda odamlarning ahloqu-madaniyati doimiy madaniyat masalasi bilan bog'lanib ketdi. Hamda u barcha soha kishilarini axloqiy va ma'naviy tarbiyasini shakllantirishi dolzarb muammolardan biriga aylandi.

Xalqimiz qadimdan ona-zaminimizda tinchlik bo'lishini, mehr-muhabbatli, insoniylik kabi hayotbaxsh g'oyalar bilan umr o'tkazib kelmoqda. Avlod-ajdodlarimizning an'analari, urf-odatlari, o'z joyida yashagan turli millat, yelatlarining tarixi, dini, tilini, san'ati va madaniyatini hurmat qilish kerakligini bildiradi. Ana shunday madaniyat masalalarida amaliy san'at katta ahamiyatga yega. Tarixdan ma'lumki, amaliy san'at yeng birinchi insonlarning hayot tarzida shakllanib, mehnat quroliga aylangan holda paydo bo'lgan yedi. Qadimgi odamlar iptidoiy davridayoq uy – ro'zg'or buyumlarini bezashganlar. Bunday topilmalar Zakavkaziy, O'rta Osiyo, Sharqiy Yevropa tekisliklarida va boshqa joylardan ham topilgan.

Shularning shakllanishida asta – sekinlik bilan axloqiy normalari paydo bo'lgan. Birgalikda yashash tarzi ahloqning turli shakl va ko'rinishlarini namayon qiladi. Mana shu kabi muhim masalalar Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto”da, Hindlarning yeposi, dostoni “Illanda”, “Maxobhorat”, “Ramayana”, O'rta Osiyo halqlari dostonlari “Alpomish”, “Go'ro'g'li”, “Kun Tug'mush”, “Nurali” kabilar mazmunida ham axloqiy tushunchalar aks yetganligini ko'ramiz. Sharq xalqlari axloqiy tarbiyasini shakllantirib borish masalasida, musulmon davlatlari halqlarining muqaddas kitobi “Quroni Karim”, “Muqaddas Hadis”, “Tovrot” kabi doimiy dasturiy amal vazifasini o'tab kelmoqda. Hadis ilmining sultoni Al Buxoriy, Al Termiziy, Naqshbandiy, Marg'uloniy, Motrudiy hazratlarining o'gitlari muhim axloqiy tarbiyada hisoblanadi.

Sharqning buyuk allomalari Al Xorazmiy, Al Farg'oniy, Abu Ali Ibn Sino, Al Farobiy, Abu Rayhxon Beruniy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Mirzo Bobur, musavvir Kamoliddin Bekzodlar o'z hayot tarzi, qilgan ishlari, asarlari bilan insoniy tushunchalarni, axloqiy komillikka bog'lab malumotlar beradilar. Har bir kishini, insonni hazrat Navoiy “Mahbub ul –

qulub” asarida “Odamiy shariful kavnayndur” deb, ya’ni: “Odam ikki dunyoning yeng aziz va yeng sharif maxluqidir” – degan yekan – deb Najmiddin Komilov “Parvardigor odamlarni yaratar yekan, maqsadi Inson yedi”¹ – deb yozgan.

Mana shunda ham odam, inson yeng yuksak mavjudot yekanligi madh yetilgan. Axloq tarbiyasini inson ma’naviy boyligining yeng asosi sifatida qarash mumkin. Kasb - hunar kollejo’quvchilarini amaliy san’at vositasi orqali axloqiy tarbiyalash ta’lim tizimining o’rta umum ta’lim maktabidan keyingi bosqichi bo’lib bolalarning turli psixalogik xususiyatlariga ham bog’liq bo’ladi. Psixalogik jarayonlarning har bir xususiyatlari o’spirinlik yoshda o’ziga xosligi bilan ajralib turadi. Kasb - hunar kollejdarslarida amaliy san’atni o’rgatish ana shunday o’ziga xosliklar bilan farqlanadi. Mana shu farqlar olamida go’zallik, san’at bilan yordam bera olish imkoniyatlari juda keng.

Muammoning ishlanganlik darajasi: O’bek xalq amaliy san’ati vositasida kasb-hunar kollej o’quvchilarini axloqiy tarbiyalash masalasi buyuk allomalarning o’gitlari, asarlarida keltirilgan bo’lsada u dissertasiya sifatida xali ishlab chiqilmagan. Pedagog olimarning asarlarida axloqiy tarbiya masalalari ko’p bora ko’tarilgan va uning asosiy tomonlari ishlab chiqilgan. Akademik pedagog olim S. Rajabov; p.f.d. prof R. Mavlonova, M. Quronov, O. Hasanboyeva, O. Musurmonova, U. Mahkamov kabilar o’z ilmiy ishlarini ma’naviyat va ahloq tarbiyasi masalalariga qaratgan. Ular axloqiy tarbiyaning shakl, usullari, tizimi, ishlanganlik darajasi kabi masalalarni umumiy jihatdan o’rganganlar va nazariy xulosalarini berganlar.

Filosoflardan S. Shermuhammedov, F. Zoirov, J. Tulinov, M. Pulatov,

X. Zohidov kabilar falsafiy jihatdan bu masalaga o’z yetiborini qaratadi. Bularning asarlarining axloqiy tarbiyani jamiyat rivojlanish davrlaridan ayri olib qurmaydi. Shu kabi amaliy san’atni bu tarbiya jarayonida vosita sifatida qaramaydi.

¹. N. Komilov. Komil inson – millat kelajagi. T. O’zbekiston, 2001- 7b, 47 bet.

Psixologik jihatdan ham axloqiy tarbiyani shakllantirishga qaratilgan tamonlari ko'p. Olimlardan I. Karimova, E. Ro'ziyev M. Toshimov, M. Qoplonova, Davlashin kabilarning asarlarida turli yoshdagilar psixologiyasi va uning tarbiyadagi muhimligi o'qtirib o'tiladi.

Haqiqatdan ham axloq tarbiyasini inson yashash tarzi, muhiti, sharoiti va davlat tizimi, urf – odatlaridan ayrimlarini o'zgartirish mumkin yemas. Chunki milliy qadriyatlar, o'tmish urf – odatlar yosh – qarilarning ma'naviy dunyosi bilan birlashib ketadi. Bu narsalarning uzoq udumi axloqiy masalalar mag'zida turadi. Davlatimiz rahbari Islom Karimov; “ Tarix xotirasi xalqning, jonajon o'lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi. Buyuk ajdodarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda. Axloqiy tarbiya va ibrat manbaiga aylanmoqda”¹ – degan yedi. Mana shunday bugungi kunda yoshlarimiz uchun o'tmish ma'naviy meros va o'gitlarimiz ibrat manbaidir. Axloqiy tarbiyani amaliy san'at vositasida amalga oshirish ishlari biz o'rgangan ko'p manbalarda me'yyoriga yetkazilmagan.

Tasviriy va amaliy san'at fani olimlari hisoblangan R. Hasanov,

S. S. Bulatov, S. Abduasilov, Q. Oripov, B. Boymerov, R. Rajabov, S. Abdurasulov, N. Tolipov, M. Mamirov, O. Xudayorova, A. Sulaymonov kabilarning ishlarida qisman maqola tarzida yoki ilmiy tadqiqotning ba'zi bo'limlaridagina axloqiy tarbiyani amaliy san'at vositasi sifatida ko'radi. Bular tasviriy san'at darslari va darsdan tashqari mashg'ulotlarda vatanparvarlik tarbiyasi bilan birgalikda ko'radi. Komil inson ma'naviyatini shakllantirish talab qilinayotga bir davrda axloqiy tarbiya masalasi albatta dolzarb bo'lib qolaveradi. Shularni hisobga olgan holda va kafedraning istiqbol rejasida ilmiy magistirlilik

¹Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'saxasida havfsizlikka taxtid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolalari. – Toshkent: o'bekiston 1997, 140 – b.

dissertasiyasini mavzusini “Kasb - hunar kollejo’quvchilarini amaliy san’at vositasida axloqiy tarbiyalash”, – deb belgiladik.

Magistrlik dissertasiya ishining ilmiy – tadqiqot ishlari rejalari bilan bog’liqligi. Tanlangan mavzu O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’grisida” gi qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi, Respublikamizda ta’limni jahon standartlari darajasiga ko’tarish bo’yicha meyyoriy, dasturiy hujjatlar pedagogika, psixologiyaning shaxs va uni rivojlantirish jarayoni haqidagi, A.Navoiy nomli Samarqand davlat Universitetining ilmiy – tadqiqotlar ish rejalari doirasida amalga oshiriladi. Shuningdek, tadqiqot ishi “Badiiy grafika va uni o’qitish metodikasi” kafedrsining “Oliy o’quv yurtlarida, umumtalim maktablarida va kasb – hunar kollejlarida tasviriy va amaliy san’at, chizmachilik ta’lim yo’nalishi fanlarida innavasion texnologiyalarni qo’llab o’qitish samaradorligini oshirish” mavzusidagi istiqlolli ilmiy – tadqiqot rejasiga kiritilgan.

Tadqqiot maqsadi: Kasb - hunar kollejo’quvchilarini amaliy san’at vositasida axloqiy tarbiyalashning samarali bo’lishi va metodlarini ilmiy jihatdan asoslash.

Tadqqiot vazifasi: 1. Kasb - hunar kollejo’quvchilarini amaliy san’at vositasida axloqiy tarbiyalashning o’ziga xosligini va mohiyatini aniqlash;

2. Kasb - hunar kollejo’quvchilarini amaliy san’at vositasida axloqiy tarbiyadagi o’rnini belgilash;

3. Kasb - hunar kollejo’quvchilarini amaliy san’at vositasida axloqiy tarbiyalash ahvolini o’rganish;

4. Kasb - hunar kollejo’quvchilarini amaliy san’at vositasida axloqiy tarbiyalashdagi ahamiyatini ochib berish;

5. Kasb - hunar kollejo’quvchilarini amaliy san’at vositasida axloqiy tarbiyalash samarali metodlarini ishlab chiqish;

6. Tasviriy san’at ishi yuzasidan ilmiy – metodik tavsiyanoma tayyorlash.

Tadqiqot obekti: Kasb - hunar Kollejlardagi amaliy san'at darslarini olib borish axloqiy tarbiyalash dars jarayoni.

Tadqiqot predmeti: Kasb - hunar kollejo'quvchilarin amaliy san'at vositasida axloqiy tarbiyalashning shakllantirishini yanada takomillashtirish.

Tadqiqot materiallari: Tadqiqotga doir adabiyotlar va amaliy san'at asarlarini o'rganish, tahlil qilish, ko'zatish, suhbat, test, savol – javob, o'quvchilarning ijodini o'rganish, tajriba – sinov ishlarini, taqqoslash kabi metodlar qo'llanildi. Tadqiqotning tajriba – sinov ishlari Samarqand shahar millay hunarmandchili va qurilish kasb – hunar kolleji, 1 – son Samarqand pedagogika kolleji, Samarqand shahar San'at kollejida olib borildi.

Tadqiqotning metodologik asosi: Mutafakkirlarning inson tarbiyasi, psixologiyaning tafakkur jarayoni haqidagi fikrlari; "Talim to'g'risida"gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi; prezident nutqlari; zamonaviy psixologik manbalar.

Tadqiqotning metodologik asoslari: Dialektik bilish nazariyasi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda Respublika hukumatining Oliy ta'limni tashkil etish va rivojlantirish sohasidagi qaror va buyruqlari, DTS va mavzuga oid pedagogik-psixologik, ilmiy-metodik manbalardagi nazariya va amaliyoti uyg'unligi; kasb-hunar kollejlarda axloqiy tarbiyaning rivojlanishida amaliy san'atning roli; barkamol shaxs tarbiyasining rivojlanishida Kadrlar tayyorlash milliy dasturidagi g'oyalari; kasbiy va pedagogik ta'limning nazariy va amaliy asoslari.

Tadqiqotning ilmiy farazi: Kasb - hunar kollejo'quvchilarini amaliy san'at vositasida axloqiy tarbiyalash biz olib borgan tartibdan foydalanilsa.

- axloqiy tarbiyaning mohiyatini tushunsa,
- kasb - hunar kollej o'quvchilarini axloqiy tarbiyalashdagi amaliy san'atning o'rni belgilansa,
- o'quvchilarni o'ziga xos tamonlar aniqlansa;

-o'quvchilarni amaliy san'at vositasida axloqiy tarbiyadagi shart – sharoitlari o'rganilsa,

-amaliy san'at vositasida o'quvchilarni axloqiy tarbiyalashda amaliy san'at shakli, rangi, tuzilishi, o'lchovlari, nafisligi va uni boholashni ko'rabilsa, borliqdagi narsalarga nisbatan yestetik munosabatni shakllantirish samarali bo'lishligi aniqlandi.

Himoyaga olib chiqiladigan holatlar.

1. Kasb - hunar kollejo'quvchilarini amaliy san'at vositasida axloqiy tarbiyalash tushunchasi va mohiyati ochib berilganligi.

2. Kasb - hunar kollejo'quvchilarini amaliy san'at vositasida axloqiy tarbiyalashdagi o'rni va o'ziga xos xususiyatlari aniqlanganligi.

3. Kasb - hunar kollejo'quvchilarini amaliy san'at vositasida axloqiy tarbiyalash shart – sharoitlari o'rganilganligi.

4. Kasb - hunar kollejo'quvchilarini amaliy san'at vositasida axloqiy tarbiyalashning hozirgi ahvoli o'rganilgani.

5. Kasb - hunar kollejo'quvchilarini amaliy san'at vositasida axloqiy tarbiyalashni shakllantirishning samarali yo'llari va metodlari ishlab chiqilganligi.

6. Tadqiqot mavzusi yuzasidan ishlab chiqilgan ilmiy tavsiyalar joriy qilganligi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

1. O'quvchilarni amaliy san'at vositasida axloqiy tarbiyalashning o'rni va ahamiyati aniqlandi;

2. Kasb - hunar kollejo'quvchilarini amaliy san'at vositasida axloqiy tarbiyalashni shakllantirish mazmuni belgilandi;

3. O'quvchilarni amaliy san'at vositasida axloqiy tarbiyalashning shakl va metodlari ishlab chiqildi;

4. Amaliy san'at vositasida axloqiy tarbiyalashga oid mashg'ulot ishlanmalari tayyorlavdi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyat: Amaliy san'at vositasida kasb - hunar kollej o'quvchilarini axloqiy tarbiyalash ishlari atroflicha o'rganildi, o'rni aniqlandi. Mashg'ulotlar jarayonida kasb - hunar kollej o'quvchilarini ahloqini shakllantirishda duch kelayotgan obyektiv va subyektiv sabablari aniqlanib unig o'ziga xos yechimlari izohlandi.

Kasb - hunar kollejo'quvchilarini amaliy san'at vositasida axloqiy tarbiyalashga, o'quv – tarbiyaviy majmualar yaratishda, o'quv dasturlariga kiritish dars o'tish jarayonini takomillashtirishda mualliflarga amaliy yordam beradi. Bu ishdagi materiallardan umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari, malaka oshirish va qayta tayyorlash institutlarida tasviriy san'at o'qituvchilari bolalarni tarbiyalashda yordam beradi. Shuningdek, ilmiy tadqiqotchilarga ham amaliy san'at vositasida axloqiy tarbiyalash manba bo'lib hisoblanishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kasb - hunar kollejo'quvchilarini amaliy san'at vositasida axloqiy tarbiyalashga doir uslubiy tavsiya, ilmiy maqolalar chop yetilgan. Amaliy san'at darslari olib boriladigan kasb – hunar kollejlari, pedagogika kollejlari, san'at kollejida o'quvchilarga ma'ruza, amaliy mashhulotlari jarayonida singdirildi. Shuningdek, o'quvchilarni amaliy san'at vositasida axloqiy tarbiyalash mavzusi atrofida ilmiy – amaliy konferensiya va seminarlarda ma'ruza qilindi.

Tadqiqot ishining sinovdan o'tishi. Tadqiqot natijalari va xulosalar Respublika miqyosida bo'lib o'tgan konferensiya (Samarqand Davlat arxetektura va qurulish institu 2014 y aprel), Samarqand Davlat Universitetida (4–5 aprel 2013 y.). “Badiiy grafika va uni o'qitish metodikasi” kafedrasida, (2014 yil 11 aprel) muhokama qillindi. 2014 yil may oyining 15 chisida tadqiqotning dastlambki himoyasi “Badiiy grafika va uni o'qitish metodikasi” kafedrasining ilmiy – metodik seminarida muhokomadan o'tdi.

Natijalarning yelon qilinganligi. O'tkazilgan tadqiqot ishi yuzasidan 1 – metodik tavsiya, 3 ta ilmiy – metodik maqola chop yetilgan.

Magistrlik disertasiyasining tuzilishi va hajmi. Tadqiqot ishi ilovalari bilan birga 97 betdan iborat bo'ldi. Kirish, 3 ta bob, 8 ta fasl, xulosa, tavsiyalar adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan.

1 bob. Kasb - hunar kollejo'quvchilarini amaliy san'at vositasida axloqiy tarbiyalashning o'ziga xosligi, mohiyati.

1.1. Axloqiy tarbiya tushunchasi va uning mohiyati.

Respublikamizning mustaqilligi tufayli tinch, farovon xalq hokimiyati bo'lgan demokratik jamiyat, davlat qurishga bel bog'ladi. Bunga osonlikcha yerishilgan yemas. Shu qisqa davr ichida minlab turli – tuman buzg'unchi g'oyalar ham davlatimizni notinch qilib qoydi. Ollohga shukurki, biz o'z yo'limizni topib oldik. Yendi ta'lim – tarbiyaviy ishlarini yanada jonlantirish lozim. Jamiyatni axloqan komil insonlarni ribojlantirib berishligi azaldan ma'lum. Axloqiy – ijtimoiy ong shakllaridan biri deb hisoblanadi. Har bir insonning shu jamiyat oldidagi burchi, oiladagi yurish – turish, maqsadi va o'ziga oid vazifalari, tartib va qoidalari bo'ladi. Mana shu masalalarga to'g'ri munosabatda bo'lishlikda axlaq normalari yotadi. Axloq – bu poklik, insoniylik, boshqalar oldida o'zining hamma jihatdan sifatleri bilan yetuk yekanligi. Axloqning juda ko'plab omillar bor.

Bizga ma'lumki, u yoki bu xalq, millat to'g'risida ma'lum tasavvurga yega bo'lish uchun, uning madaniy merosi, san'ati, adabiyotidan xabardor bo'lish kifoyadir. Shu nuqtai – nazardan qaraganda, xalqning muayyan tarixiy bosqichlarini, ijtimoiy – iqtisodiy, ma'naviy turmush tarzi, hayotiy qarashlari, orzu umidlari, urf – odatlarini o'zida mujassam yetgan xalq amaliy san'ati asarlarini o'rganish yetarli yemas. Chunki, xalq amaliy san'ati umuminsoniy g'oyalarni tarannum yetishi bilan o'zida, milliy g'oya va mafkuraning yeng muhim tendensiyalarini ifoda yetadi.

Shunday yekan, Respublikamizda amal qilinayotgan ta'limning barcha bo'g'inlarida, xususan, amaliy san'at ta'lim – tarbiyaning yeng asosiy shakllantiruvchisi bo'lmish umumiy o'rta ta'limdan keyingi kasb – hunar ta'limida o'quvchilarni axloqiy tarbiyasini milliy merosimizning yeng noyob namunalari hisoblanmish amaliy san'ati bilan chuqur tanishtirib borish, shu orqali ularda yuksak madaniyat va ma'naviyatni shakllantirishga dolzarb vazifa sifatida qaralmog'i lozim bo'ladi. Bu maqsadni amalga oshirilishi birinchidan,

ta'limni milliy negizini mustahkamlashga xizmat qilsa, ikkinchidan yosh avlodni milliy o'zlikni teranroq his yetishlariga olib keladi, uchinchidan yoshlarni milliy g'oya va mafkura ruhida tarbiyalash imkoniyatlarini oshirishga olib keladi. Bu yesa kollejlarning amaliy san'at fani bo'yicha o'quv dasturlari va darsliklariga kiritilgan mavzularni qayta ko'rib chiqishni, o'zbek xalq amaliy san'at haqidagi bilim va malakalarni berishga mo'ljallangan o'quv materiallarini ma'lum guruh va chorak mavzulari doirasida cheklanib qolmasligiga ye'tiborni qaratish, nisbatan ancha murakkab ijod mahsuli bo'lgan san'at asarlari orqali ta'limiy – tarbiyaviy ishlarni to'garaklar uzviyligida va tizimli ravishda yo'lga qo'yishini talab qiladi. O'z – o'zidan ravshanki, bu jarayonda xalq amaliy san'at ijodiyoti, xususan, naqqoshlik haqida beriladigan o'quv materiallari hajmini kengaytirish, mazmunan yanada boyitish, o'quv soatlari miqdorini ham ko'paytirish lozim bo'ladi.

O'qituvchining yuksak pedagogik mahorati, bilim darajasi, shubhasiz, ta'lim–tarbiyaning muhim omillaridan biridir. Pedagogik mahorati yuqori, tajribali o'qituvchi darsni shunchaki bayon qilib bermaydi. Buni amaliy san'at darslari misolida izohlaydigan bo'lsak, o'qituvchi avvalo o'zining turli ko'rgazmali, texnik vositalardan foydalanishi darsni qiziqarli va mazmunli kechishida katta rol o'ynaydi.

Amaliy san'at darslarida aksariyat o'quvchilar tayyor namunalardan ko'chirib ishlash va mustaqil kompozisiyalar tuzishga harakat qiladilar. Bunda o'qituvchining shaxsiy “namunasi” muhim ahamiyat kasb yetadi. Chunki, darsda amaliy san'at yetakchi o'rin tutadi, quruq bayonchilik uslubi bilan hyech qanday maqsadga yerishib bo'lmaydi.

Puxta tashkillashtirilgan ilmiy – pedagogik tayyorgarlik ta'lim samaradorligini ta'minlaydigan asosiy omillardan biri sanaladi. Ushbu jarayonda faol ishtirok yetuvchi o'qituvchilar muntazam ravishda o'zlarining pedagogik mahoratlarini orttirib boradilar hamda ta'lim – tarbiya samaradorligini ta'minlashda, kelajak uchun mas'ul barkamol avlodni kamolga yetkazishda boshqalarga o'rnak bo'lib xizmat qiladilar. Demak har bir ta'lim bo'g'inida shu

jumladan kollejlardagi amaliy san'atga doir olib boriladigan darslarni ilg'or pedagoglarning innovasion faoliyatlari va tajribalarini doimiy takomillashtirib, rag'batlantirib borish orqali yaxshi natijalarga yerishish mumkin.

Innovasion faoliyatni ilmiy asosda tashkil yetish munosabati bilan ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni kiritishda yeng muhimi o'quvchilarni ushbu faoliyatga tayyorgarligi va qiziqishlarini inobatga olish va kerakli texnologiyani tanlash hisoblanadi.

Zero, amaliy san'at inson his – tuyg'ularini, orzu–istaklarini, kechinmalarini o'ziga xos ranglarda, shakllarda tasviriy tilda ifoda yetadi va inson ruhiyatiga, hissiyotiga faol, yemosional ta'sir yetadi. Naqqoshlik darslari mazmunida olib boriladigan ta'limiy tarbiyaviy ishlar yesa o'quvchilarning axloqiy tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, ularda go'zallikka bo'lgan his–tuyg'ularini rivojlantirish, shu tariqa amaliy san'atga doir yestetik dunyoqarashini shakllanishiga asosiy omil axloqiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

“San'at insonning axloqiy jihatlariga ta'sir ko'rsata olish layoqatiga qodir. Madomiki shunday yekan, u kishilarni tarbiyalash vositalari qatoriga kiritilmog'i lozim” deb yozgan yedi Arestotel. Ushbu fikrni mantiqiy davomi sifatida “Tasviriy san'at tarbiya–bu amaliy san'at tarbiyasi yemas, avvalambor inson tarbiyasidir”– degan yedi mashhur pedagog V.A.Suxomlinskiy o'zining “Bolalarga jonim fido” nomli kitobida. Shunday yekan, o'sib kelayotgan yosh avlodni ilk bolalik davridanoq biz ularni san'atga tushunib, his yetib, madaniyatli bo'lishga, uning asoslarini yegallashlari uchun yetarli shart–sharoit yaratib bermog'imiz, ularda amaliy tafakkur, did, insoniy dunyoqarashlarini shakllantirish va shu orqali ma'naviyati yuksak insonlar qilib tarbiyalashimiz kerak.

O'quvchilarni amaliy san'atning sehrli olamiga olib kirish, ularda amaliy san'atga ongli munosabatni shakllantirish, qobiliyatlarini o'stirish bunday murakkab pedagogik jarayonda o'qituvchilardan yuksak kasbiy va pedagogik mahoratini talab qiladi.

Amaliy san'at vositasida axloqiy tarbiyani oldiga qo'yilayotgan maqsad va vazifalarni muvaffaqiyati uni kollejlarda qay darajada uyushtirilganlik va tashkil yetilganligiga bog'liqdir. Chunki, bu bosqichda amaliy san'at ta'limining poydevori bo'lib qo'yiladi. Bu jarayonda, ayniqsa, o'qituvchining tasvirlash qobiliyati, o'qitish metodikasidan tayyorgarligi hal qiluvchi ahamiyat kasb yetadi. O'qituvchi mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni suratlarni, amaliy san'at buyumlarini savodli, qonun-qoidalarni o'zlashtirishlariga ye'tibor bermog'i lozim. O'qituvchi har bir darsning va darsda qo'llaniladigan faoliyatlarni ko'tarinki ruhda qiziqish va ishtiyoq bilan qabul qilinishiga yerishishi zarur. Buning uchun u dastlabki vaqtdan o'quvchilarni psixologik, fiziologik hususiyatlarini va individual qiziqishi, qobiliyat va imkoniyatlarini yaxshi bilishi talab yetiladi. O'quvchilarni qiziqishi, diqqati va o'yinga moyillik kabi hususiyatlariga ko'ra faoliyat turlarini tez-tez almashtirib turish, darsda naqsh, ganch, o'ymakorlik, zardo'zlik kabi amaliy san'at turlaridan foydalanmog'i lozim.

Shu bois o'qituvchi amaliy san'at darslarini qiziqarli va samarali kechishiga qanchalik darajada yerisha olsa, bu o'quvchilarni tasviriy tafakkuri, dunyoqarashi va madaniyatini samarali tarzda shakllanishiga olib keladi. Shu o'rinda mazkur faoliyatlarga qisqacha to'xtalib o'tamiz:

O'zbek xalq amaliy san'ati tarixidan juda ko'p rivojlanish davrlarini boshidan kechirgan va turli turlari yaratilgan. Bular davrlar oshgan sari mazmunan va mohiyat jihatidan faqat yangi ijodiy ko'rinishlar bilangina boyitilgan. Istiqlol yillarida ham amaliy san'atning o'ziga xos rivojlanish davri bo'ldi. Xalq ustalari o'z asarlari bilan jahon ko'rgazmalarida qatnashib muvaffaqiyatlarga yerishdi. Jumladan, Rishton kulolchilik maktabida 1000 dan ortiq kulollar ijod qilib turli muvaffaqiyatlarga yerishmoqdalar. Toshkent, Moskva, Sankt-Peterburg va chetyel shaharlaridagi ko'pgina ko'rgazmalarda qatnashganlar. Shulardan 130 tadan ortigi «Hunarmand» xalq ustalari birlashmasining a'zolaridan hisoblanishadi. Zargarlik san'ati so'nggi o'n yillik mobaynida bir muncha jonlandi. Unutilib borayotgan an'analar tiklana boshladi.

Hozirda samarali ijod qilayotgan usta zargarlar qatoriga Dadamuhamedovlar sulolasi, G.Yo'ldasheva R.Muhameshin, M.Nozirxonov, Sh.Nizomov, M. Olimov kabi ustalarni kiritish mumkin. Zamonaviy zargarlik buyumlari—tumorlar, sirg'alar kabi buyumlarga zamonaviy shakl berilmoqda. Mustaqillik yillarida O'zbekiston ganchkorlik san'ati azaliy an'alariga suyanan holda rivojlanmoqda. Hozirda ijod qilayotgan ustozlar mahalliy maktablardagi mavjud an'analarni asrab—avaylagan holda ijod qilayotganliklarini alohida ta'kidlab o'tish joyiz. 1990 yillar O'zbekiston yog'och o'ymakorligi va naqqoshlik san'ati tarixida yangi bosqich bo'ldi. Ushbu maktablarni, asosan, Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Xiva maktablari tashkil yetmoqda. Toshkent xotira maydoni, Samarqand Imom Buxoriy majmuasi, Oliy majlis binosi, Amir Temur muzeyi binosi, yog'och o'ymakorligi va naqqoshlik san'atining yorqin namunasidir. Umuman olganda, xalq amaliy san'atining barcha turlari mustaqillik yillarida yangidan chiroy ochdi va jilolandi. O'zbek xalqining ko'p asrlik tarixida xalq amaliy bezak san'ati madaniy merosimizning asosiy qismini tashkil yetadi.

O'zbekiston Respublikasida san'at maktablarining revojlaniishi Amaliy san'at ham teatr, kino, musiqa, tasviriy san'at turlari qatori mustaqil ahamiyat kasb yetadi. U o'z nomiga ko'ra amaliyotda, ya'ni turmushda qo'llaniladigan san'at ma'nosini anglatadi. Amaliy bezak san'ati turli xil buyumlar, ko'chalar, maydonlar, istirohat bog'lari, ishlab chiqarish korxonalari, o'quv—tarbiyaviy muassasalar, sport va madaniy inshootlarni bezatish bilan bog'liqdir. Shuningdek, u kiyim—kechaklar, zargarlik buyumlari bezagini ham o'z ichiga oladi. Amaliy san'ati kishilar turmushida shunchalik keng qo'llaniladiki, u siz turmushni tasavvur yetish qiyin. Shuning bilan birga bular axloqiy tarbiya masalalarida ham katta yordam beradi.

Amaliy san'at idish—tovoqlar, kiyim—kechaklar, mebel, interer, yeksterer bezagi, gazmollar bezagi va boshqa turli bezaklarda qo'llanadi. Amaliy san'at nihoyatda qadimiy bo'lib, u kishilarning mehnat faoliyatlari va yehtiyojlari bilan bog'liq holda paydo bo'lgan, san'atning bu turi dastlabki namunalari tosh asrida paydo bo'lgan deb taxmin qilinadi. Uyg'onish davrigacha u uy hunari shaklida

rivojlanib kelgan, Ana shundan keyin xalq hunarmandchiligi tariqasida shakllandi va odamlarni axloqiy tarbiyada vositalardan biri sifatida rivojlanadi. Shaharlarda amaliy san'at buyumlari maxsus korxonalarda ishlab chiqiladigan bo'ldi. Asta-sekin xalq hunarmandchiligi buyumlari orasida yuksak badiiy saviyada ishlanganlari ham paydo bo'ldi. Natijada, ular amaliy san'at namunalariga aylandilar. Turmushda foydalanish uchun tayyorlanadigan buyumlarning barchasi amaliy san'atga kiradi deb bo'lmaydi. Turmush uchun mo'ljallangan kiyim-kechak, idish-tovoq, amaliy san'at buyumiga aylanishi uchun ularga ma'lum talablar qo'yildi. Ya'ni, ular yuksak badiiy saviyada bajarilishi lozim. Bunda ularning tuzilishi, shakli, bezak kompozitsiyasi ranglari, materiali nazarda tutiladi. Bu talablarga javob bermagan taqdirda, ular hunarmandchilik buyumi qatoridan o'rin oladi. Shuningdek, o'quv mashinalari yordamida tayyorlanadigan buyumlar ham amaliy san'at namunalari bo'la olmaydi. Chunki, ular yuqoridagi talablarga to'la javob berolmaydi.

Jahondagi har bir xalqning o'ziga xos amaliy san'ati bor. Masalan, Xitoyda chinnisozlik, Rossiyada matryoshka o'yinchoqlar yasash. Turkmanistonda gilamchilik, Boltiq bo'yi mamlakatlarida dasturxon va sochiqlar tikish, O'zbekistonda yesa naqqoshlik, kulolchilik, misgarlik, chinnisozlik, kashtachilik taraqqiy yetdi. Shunisi diqqatga sazovorki, amaliy san'atda har bir buyumni tayyorlashda har bir xalq o'z materiali, o'z texnologiyasi, ish uslublari, bezak gullari va ranglarini qo'llaydi.

Amaliy san'atning asosiy maqsadi kishilar yashaydigan muhitni va o'zini o'rab olgan buyumlarni chiroyli qilishdan iborat. San'atning bu turida go'zallik va qo'llanish (foydalilik) birligi degan ibora bor. U buyumlarni faqat turmushda qo'llanilgandagina go'zal bo'lishi mumkinligini bildiradi. Hatto, ayrim buyumlar bezaksiz bo'lganda ham go'zal va badiiy bo'lishi mumkin. Bunda bu buyumning shakli va materiali katta ahamiyat kasb yetadi. O'zingiz tasavvur yetib ko'ring, biron bir usta nihoyatda ajoyib bir shakldagi, tuzilishdagi, rangdagi, bezakdagi buyumni yaratgan. U har jihatdan kishilar ye'tiborini o'ziga tortdi. Lekin, undan amaliyotda foydalanib bo'lmasa, u

narsani go'zalligiga ham bo'lmaydi, Amaliy san'atda shakl muhim ahamiyat kasb yetadi. Agarda buyum hajm jihatdan maqsadga muvofiq ishlansa—yu, uni shakli topilmasa u ham chiroyli yoki badiiy hisoblanmaydi. Shuning uchun ham amaliy san'at buyumini yaratishda buyum shaklini, uning vazifasidan kelib chiqqan holda tayyorlanishi lozim.

Amaliy san'at buyumlarini tayyorlashda uni materialini to'g'ri tanlash katta ahamiyat kasb yetadi. Chunki, bu materiallar shu buyumlarning vazifasiga mos kelishi kerak, Aytaylik, idish—tovoqlar tayyorlashda usta, unga oziq—ovqat yoki ichimlik solinishini hisobga olishi lozim. Amaliy san'atda ustalar yasaladigan buyumning vazifasiga qarab mavjud barcha materiallardan foydalanadilar. Ular tuproq, tosh, suyak, yog'och, gazmol, ganch, metall va boshqalar. Hozirgi vaqtlarda sintetik materiallar ham keng qo'llanilmoqda. Kishilarni axloqiy tarbiyalashda ular muhim ahamiyatga yega.

Xalq amaliy san'atining yana bir muhim xarakterli belgilaridan biri bu ming yillar davomida xalq ustalari ijodida qo'llanib kelingan badiiy an'analar hisoblanadi. Bu hususiyat ko'proq xar bir xalqning u yashayotgan muhit, tabiati, iqlim sharoitlariga bog'liq bo'ladi. Chunki, amaliy san'at ustasi o'z asarini yaratayotganda u go'zallikni tevarak—atrofdan, tabiatdan oladi. Masalan, o'zbek xalq ustalari o'z ishlarida toychoq, qo'zichoq tovus tasvirlarini, shimoliy o'lkalarning ustalari bug'u, kiyik tasvirlarini ishlaydilar. Asar materialiga yesa o'zbek ustalari ganch, loy, mis kabilarni, shimoliy xalqlar yog'och va hayvon suyaklarini ko'proq ishlatadilar. Yuqorida qayd qilganimizdek, asar koloritiga iqlim ham ta'sir ko'rsatadi. Shimoliy o'lkalar iqlimi sovuq bo'lgani uchun u yerdagi ustalar ko'proq sovuq, ranglarni, issiq, iqlimli O'zbekiston ustalari ko'proq iliq ranglarni qo'llaydilar. Shunday qilib, har bir xalqning amaliy—bezak san'atida o'z an'analari shakllanadi.

O'zbek diyorida vujudga kelib, gullab yashnagan amaliy san'at turlari bemisil va betakrorligi bilan dunyoga mashhur. Bu taraqqiyot bosqichi haqida fikr yuritar yekanmiz, O'zbek amaliy bezak san'atining kelib chiqishi insoniyatning ilk davri, ya'ni ibtidoiy jamoa davriga borib taqalishining guvohi

bo'lamiz. O'lkamiz zaminidagi arxeologik qazishlar natijasida topilgan yodgorliklarning guvohlik berishicha, insonning jismga badiiy ishlov berish usulida buyum yaratish faoliyati tosh asridayoq boshlanib, asrlar o'sha hozirgacha davom yetib kelmoqda. Bizgacha ibtidoiy jamoa tuzumida ashyoviy dalillar – mehnat va ov qurollari, uy–anjom va bezak buyumlari, odamlar yashagan manzil qoldiqlari yetib kelgan. Tuproq ostida qolib ketgan tarixiy yodgorliklar odam va hayvonlar jasadining qoldiqlari, g'or va yerto'la devorlariga chizilgan surat va bo'rtma tasvirlar ibtidoiy jamoa davri tarixini o'rganishning muhim manbai hisoblanadi. Paleolit davrida amaliy–dekorativ san'at namunalari ham keng tarqala boshladi. Buyumlarni naqsh bilan bezashga, turli taqinchoqlarga, tumorlarga yehtiyoj paydo bo'lganligi arxeologlar tomonidan topilgan ashyoviy buyumlarda namoyon bo'lmoqda. Odamlarning o'troq holga o'tishlari, tabiat qonun–qoidalarini ko'zatish simmetriya, ritm, shakl tuyg'ularini o'sishiga sabab bo'ldi. Bir xil yelementlarning tekis qaytarilishi yoki oralab kelishi asosida vujudga keladigan o'ziga xos naqqoshlik san'atini maydonga keltirdi. Naqqoshlik yangi tosh (neolit) asrida keng yoyildi, dekorativ–amaliy san'atning taraqqiy yetishga ta'sir ko'rsatdi va yordam berdi. Kulolchilik va boshqa buyumlarni naqsh bilan bezash keng tus oldi. Parallel, spiralsimon va to'lqinsimon chiziqlar, aylanalar shu davrdagi ko'pgina naqshlarning asosini tashkil yetadi. Geometrik naqshlar asta–sekin sxematik odam, hayvonlar va o'simliklar dunyosidan olingan shakllar bilan boyitilib, mazmunan kengayib bordi. Uning yelementlari koinot kuchlarining ramziy belgilarini aks yettira bordi. Masalan, rozetka–quyosh ramzi, to'lqinsimon chiziq– harakat, suv ramzi va hokazo. Naqqoshlik san'ati yendilikda dekorativ funksiyani bajaribgina qolmay, balki shu bilan birga, kishilarning g'oyaviy va falsafiy tushunchalarni ham ifodalay boshladi. Bronza asrida O'rta Osiyoda kulolchilik yanada rivojlandi. Kulolchilik dastgohlarining yuzaga kelishi yesa, yaratilgan buyumlarning yanada nafis va go'zal bo'lishini ta'minladi. Chustdan topilgan qizil fonga qora bo'yoqlar bilan rasm va naqshlar ishlagan sopol buyumlar diqqatga sazovordir. Temir asrida ham dekorativ–amaliy san'at

yetakchi o'rinni yegallaydi. Bezash ishlarida geometrik naqshlardan tashqari, syujetli kompozisiyalardan foydalanish alohida rivojlangan. O'rta Osiyoning qadimgi davri san'ati va madaniyatini o'rganishda yer ostidan, qabrlardan topilgan turli dekorativ amaliy san'at namunalari, jang, ov va mehnat qurollari ham muhim rol o'ynaydi. Sopol buyumlar, bronza, oltin, kumushdan ishlangan, kishilar yehtiyoji uchun ishlatiladigan buyumlar yuzasi naqshlar bilan bezatilgan, bo'rtma tasvir va haykallar bilan pardoqlangan. Ayrim buyumlar yuzasiga yesa hayotiy voqyealar aksi tushirilgan. Ana shu daliliy materiallar o'tmish san'ati va madaniyati, kishilarning yestetik, badiiy va axloqiy qarashlarini bilishga xizmat qiladi. Hozirgi kunda Londondagi Britaniya muzeyida saqlanayotgan bu yodgorliklar ichida oltindan yasalgan haykallar, turli ko'za, bilaguzuk, uzuk, muhr, tangalar, oltindan yasalgan arava va qurollar diqqatga sazovordir. Amaliy san'atga bu qadar chuqur falsafiy yondoshish natijasida shartlilik, stilizasiya – ramziylikka asoslangan badiiy asarlari yaratish kuchaygan. Ushbu tarixiy omil o'zbek milliy bezak san'atining gurkirab rivojlanishiga turtki bo'lgan va hozirda jahonga mashhur me'morchilik yodgorliklarimiz ulardagi ganchkorlik, koshinkorlik, naqqoshlik, xattotlik, tosh-taroshlik va boshqa turdagi san'atlarning ajoyib darajada uyg'unligidan va mujassamligidan dalolatdir. Xalq amaliy bezak san'ati kishilarning ma'naviy olamini boyitadi, badiiy didini shakllantiradi, ruhiyatini tarbiyalaydi. Shuning uchun ham o'zbek xalq amaliy san'ati kishilarni badiiy– axloqiy, umuminsoniy tarbiyalab, ularning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishda, hamda madaniy darajasini oshirishda yeng zarur manbalardan biri hisoblanadi. Yaqin o'tmishda o'zbek amaliy bezak san'atining yeng rivojlangan naqqoshlik, ganchkorlik, tosh va suyak o'ymakorligi, kandakorlik, pichoqchilik, buyrachilik, zargarlik, kashtachilik, zardo'zlik, gilamdo'zlik, kigizchilik, savatchilik kabi turlarining o'ziga xos bajarish texnologiyalari, haqiqiy milliy nomlari, ularga xos atamalar, bu san'atlarga xos maktablar, uslublar hamda shu sohalarda nom qozongan ustalarning xizmatlari butun jahonga dong'i ketgan. O'rta Osiyo naqqoshlik san'ati qadimdan dunyoga mashhur. O'tmishda ota–bobolarimiz ko'rgan

muhtasham binolar hozirgi kungacha maftunkor jilvasini yo'qotmagan. Yuksak did bilan ishlangan naqshlar hozirgacha bizni hayratga solib kelmoqda. Naqsh arabcha tasvir, gul degan ma'noni bildirib, u qush, hayvonot, o'simlik dunyosi, geometrik va boshqa turli shakllarning ma'lum tartibda takrorlanishidan hosil qilingan axloqiy narsalardir. Islom talablariga bo'ysunish oqibatida jonivorlar, parrandalar va odamlarni tasvirlash yo'qolib borib naqqoshlik rivoj topdi. Arab yozuvi o'zlashtirildi. Natijada, naqshlar bilan unvonli yozuv (yepigrafika) uslubi paydo bo'ldi. Arab yozuvi naqshlar bilan birga chizildi. Arab yozuvi ham bezak, ham duo-afsunlar vazifasini bajardi. Naqqoshlik xalq-amaliy bezak san'atining bir turi sifatida qadimdan o'zbek madaniyatining muhim bo'lagi hisoblanadi. Ko'p asrlar mobaynida uning badiiy an'analari vujudga keldi va rivojlandi. Naqshlarda san'atning boshqa hamma turlaridan farqli ravishda avlodlarning chambarchas bog'liqligini, milliy an'analarning davomiyligini ko'rish mumkin. Naqqoshlik an'analari san'atning ana shu turini o'rganish metodlari sifatida ham bobodan otaga, otadan o'gilga o'tib kelgan. Ana shu davomiylik tufayli naqqoshlik san'ati hozirgacha saqlanib kelmoqda. Naqshning yeng yaxshi namunalari boy ijodiy fantaziya orqali birlashtirilgan shakllarning maqsadga muvofiqligi va go'zalligi bilan farqlanadi. Bunda xalq ustalarining atrof – muhitga qarashlaridagi tafovut aks yetadi. Naqshdagi chizgilar o'yini musiqadagi ohang singari, qo'shiq va yertak kabi "xalq hayotiy tajribasining katta umumlashmasidan" tarkib topgandir. Badiiy naqqoshlik ranglarning uyg'unligida va o'ziga xos kompozitsiyalarda go'zallik yaratish san'atidir. Naqqosh usta o'z ishida ranglarning tabiiy jilosidan va uyg'unligidan, bejirim shakldan, material fakturasidan mohirlik bilan foydalanib yorqin ifodalikka yerishadi. O'zbekistonning an'anaviy me'morchiligida naqqoshlik asosan shiftlarni, jimjimador arklarni, saroy ustunlarini, masjidlar, maktablar, boylarning uylari, yog'ochdan yasalgan buyumlarni bezashda qo'llangan. Nozik o'simliksimon-geometrik naqshdagi o'zaro singib ketgan novdalar, shoxlar va hashamatli tasvirlangan gullarning ritmik harakati, o'zbek ustalarining ishlaridagi ilimi va girix naqshlarining klassik motivlari shiftlarning shakliga

moslangan. Naqsh ko'proq intererlarni va yopiq ayvon, peshayvonlarni bezashga xizmat qiladi va tarbiyada muhimdir.

Hayotimizda biz ko'pincha har xil fikrlarni yeshitishimizga to'g'ri keladi : “Hamma ham san’at bilan shug’ullana olmaydi”, “san’atni yaxshi yegallash, o’rganish, o’zlashtirish va yaxshi muvoffaqiyatga yerishish uchun alohida qobiliyat, iste’dod bo’lishi kerak” uning san’atga qobiliyati yo’q. Albatta bunday fikrlar to’g’ri yemas.

Birinchidan, amaliy san’at namunalari faqatgina go’zalliknigina ko’zda tutmaydi.

Ikkinchidan, amaliy san’at bilan madaniyatnigina tarkib toptirish mumkin bo’lmaydi. Agar shunday bo’lmaganda faqatgina san’at qobiliyati bo’lganlar bilan shug’ullanishiga haqli, san’atga qobiliyati bo’lmagan (aslida qobiliyat hammadada bo’ladi, lekin, turli darjada bo’ladi) lar bilan shug’ullanish befoyda degan xulosa qilib chiqqan bo’lar yedi. Bu san’at turlari kundalik hayotda axloq normalari bilan uygunlashgan holda bunyod yetiladi. Shunday bo’lgach ustoz va shogird udimlari, bir–biriga munosabati zamirida axloqiy tushunchalar ham shakillanadi.

Tabiatdan berilgan nasliy qobiliyatni inkor yetmagan holda shuni alohida ta’kidlash lozimki, har bir jismonan sog’lom bolada san’atga qobiliyatlar – idrok, san’atkorona xotira, diqqat, sezgi, yestetik didni shakllantirish mumkin. Bu jarayonda bolaning nasliy qobiliyati yemas, balki to’g’ri yo’naltirilgan ta’lim – tarbiya, mashg’ulotlarini pedagogik, psixologik, metodik tomondan to’g’ri tizimli, izchillikka asoslangan holda yo’lga qo’yilganligi, o’qituvchining kasbiy mahorati, qo’llaydigan ish usullari, vositalari muhim rol o’ynaydi.

Pedagogik va psixologik tajribalardan ma’lumki, bir xil sharoitda, masalan, amaliy san’at darslarida bir guruhda, bir o’qituvchida ta’lim–tarbiya olgan o’quvchilarning o’zlashtirish darajasi tabiiy ravishda har xil bo’ladi. Shuning uchun insonning xarakteri, qiziqishlari va zarur ko’nikma, malaka va bilimlarini o’zlashtirish jarayoni juda murakkab hisoblanadi. Pedagogika fani shu bois ham har bir fan o’qituvchisidan, shu jumladan, tasviriy san’at

o'qituvchisidan har bir o'quvchining individual, psixologik–fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda darslarni o'tishini alohida uqtiradi.

Shuni unutmaslik kerakki, tasviriy va amaliy san'at o'qituvchisining faoliyati faqat amaliy san'at darslarini o'tish bilan cheklanmaydi. U o'z faoliyatini muvoffaqiyatli amalga oshirish uchun bola psixologiyasini, individual xususiyatlari, imkoniyatlarini alohida ye'tiborda tutib, shunga muvofiq darsda amalga oshiradigan vazifalarni belgilab borish lozim bo'ladi. Bu o'rinda quyidagi jihatlarni ko'rsatib o'tish mumkin:

1. Darsda amalga oshiriladigan pedagogik vazifalarni to'g'ri belgilash (faoliyatlar bo'yicha);

2. Darsni tashkiliy jihatdan mazmunli bo'lishiga yerishish;

3. Ta'lim – tarbiya jarayonida o'quvchilar bilan muloqoti;

4. O'quv materiallarini o'quvchilar bilim va malakalariga mosligi;

5. O'quvchini bayon qilishi, ko'rsatib berishi, umumlashtirish, namoyish qilish, o'quvchilar hatti – harakati, munosabati, berilgan topshiriqlarni bajarishi, javob berishi, amaliy ijrosini ko'zatib, to'g'ri baholab, rag'batlantirib borish,

6. Har bir o'quvchidagi o'zgarishni ko'ra bilishi tasvirlash qobiliyati yaxshi va sust rivojlangan bolalarni umumiy va maxsus to'garaklarda kamol toptirish vazifalarini belgilash va izchil amalga oshira borish;

7. O'quvchilarning tasviriy qobiliyatlari, qiziqishlari ko'nikma va malakalarini rivojlanish dinamikasini o'rganib borish;

8. O'qitishni ilg'or va samarali usullarinni o'rganish, amalda qo'llash; ilg'or tajribalarni sinab ko'rish, ommalashtirish;

9. Muntazam ravishda pedagogik ko'zatishlar va tajribalar o'tkazib borish.

10. O'quvchilarda axloqiy tashunchalarni shakllanishi doimiy nazoratda bo'lishini yoddan chiqarmaslik.

Bundan ko'rinadiki, tasviriy va amaliy san'at o'qituvchisining bilim va malakalari strukturasini ijtimoiy–siyosiy psixologik – pedagogik va maxsus bilim va malakalari tashkil yetadi.

Psixologik– pedagogik bilimlar o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi (nazariy va amaliy bilimlar) uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Fan o'qituvchisi qobiliyatlar psixologiyasini, bola va o'smir shaxsining hamda yosh hususiyatlarini, ijodiy–amaliy o'ziga xosligining rivojlanishi qonuniyatlarini va ana shu rivojlanishning yeng samarali amalga oshadigan pedagogik shart – sharoitlari, imkoniyatlari va ularni yuzaga chiqara olishlarini yaxshi bilish zarur. Afsuski, bizning pedagogik ko'zatuvarimiz bu borada ishlar ko'ngildagidek yemasligini aksariyat tasviri va amaliy san'at o'qituvchilari o'z faoliyatlarida o'quvchilarni yosh, fiziologik, psixologik hususiyatlari amaliy ishlardagi qobiliyatlari, tasvirlash imkoniyatlarini hisobga olmasdan “o'zbilganicha” ish tutayotganliklarini, bu yesa ularni kollej faoliyatida o'quvchilarni tayyorlash davrida zarur psixologik bilimlarni puxta yegallaganliklarini ko'rsatdi. Shu bois ham biz o'zimizning dissertasion tadqiqotimizda bunga amin bo'ldik.

1.2. Kasb - hunar kollej o'quvchilarini amaliy san'at vositasida axloqiy tarbiyalashda sharq olimlarining pedagogik qarashlari.

O'sib kelayotgan avlodga amaliy san'at vositasida ta'lim–tarbiya berish jarayonni mukammallashtirish pedagogning yeng muhim yutuqlari asosida amalga oshirish milliy san'atimizning yutuqlaridir. O'rta Osiyo mutafakkir pedagoglarining asarlaridan foydalanish muhim hisoblanadi. Amaliy san'at turlari va hunarmandchilikka qarata “Yey inson agar dono bo'lay desang, hunarmand bo'lishni o'yla, hunarmandchilik sababidan izzat–hurmatga yerishasan agar hunardan bebahra bo'lsang, quruq soyasiz daraxtga o'xshab qolasan” deb fikrini aytadi. Axloqiy tarbiya masalasida sharq mutafakkirlari ko'plab o'zlarining asarlarini yozganlar. Mutafakkirlardan Ismoil al Buxoriy hadislarida, Ahmad Al Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nosir Farobiy, Al Xorozmiy, Alisher Navoiy, Bobur mirzo, Ulug'bek kabilarning o'gitlari axloqiy tarbiyada muhim manba hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o'n to'rtinchi sessiyasidagi ma'ruzasida O'zbekistonning kelgusi asrga nimalarni olib o'tishi va nimalardan voz kechishi lozimligi to'g'risida aytaturib, hayotimizning yaxshi yashash uchun mehnat qilish, yangi ming yillikda yana qanday muammolarning yechimiga diqqat qilishimiz lozim? – degan muammolar yechimini va hayotimiz, o'tmishiga ham nazar tashlashni talab qiladi.

Prezidentimiz XXI asrning dastlabki yillarida mamlakatimiz rivojlanish strategiyasi, islohotlarni chuqurlashtirish va jamiyatni yangilash borasidagi faoliyatimizning mazmun – mohiyatini, ustuvor 6 ta yo'nalishlardan iboratligini ta'kidlaydi.

Shu ustuvor yo'nalishlaridan biri kadrlar masalasidir. Har bir vazifani oxiri baribir kadrlar masalasiga borib taqalaveradi, mubolag'asiz aytish mumkinki, bizning kelajagimiz, mamlakatimiz kelajagi ya'ni o'rnimizga kim kelishiga yoki qanday kadrlar tayyorlashimizga bog'liq. Ana shu kadrlarning axloqiy jihatlari, ishga ma'suliyati kabilar doimo diqqat markazida bo'lishi lozim.

O'zbek xalq amaliy san'ati qadimiyligi va boy madaniyati bilan butun dunyoga mashhurdir. Mamlakatimizning yer usti va tuproq ostidagi qismi ulkan bir tarixiy muzeydir. Asrlar davomida orttirilgan madaniy va ma'naviy boyligimiz, xususan, o'zbek milliy xalq amaliy san'atining yeng rivojlangan turlaridan: ganchkorlik, naqqoshlik, zargarlik, kashtachilik, yog'och, tosh va suyak o'ymakorligi, kulolchilik, pichoqchilik, kigiz bosish, savatchilik, bo'yrachilik kabilarni o'rgatish, o'rganish texnologiyasi, ustalarning haqiqiy nomlari, o'ziga xos maktablari, yaratgan uslublari bir vaqtlar kimlar tomonidan taqqirlanib davrlar o'tishi bilan asta–sekin yo'qolib ketish xavfi ostida qolgan yedi.

San'atda biz mazkur tadqiqotimizni ana shu maqsad va vazifalardan ishlab chiqib olib borishga, zarur ilmiy xulosalar, tavsiyalar ishlab chiqishga harakat qildik.

Al-Fargoniy o'z kashfiyotlarila geliosentrizmga o'tish uchun ilmiy zamin yaratdi; Ekvator va ekliptika tekisliklaridaga doimiy burchakni 23 daraja-yu 35 minut deb anik o'lchadi; sferalar radiusini birinchi marta belgilab berdi; Oy va Quyosh tutilishlarini tadqiq etdi; Yer yoyining qaysi uzunligi 1° ga to'g'ri kelishini o'lchab, bu mikdorni anikladi, uni 360 ga kupaytirib, 40800 km. ni hosil qilishpini qayd etgan. Yer shari meridianining uzunligini aytib berdi; Nil daryosi idrometeorologik tabiatini aniqdaydigan asbob — «Miqyesi Nil»ni yasadi. Suv uchun tulanadigan solik shunga asoslandi, xalk, uni «adolat tarozisi» deb atadi; inson yashaydigan maydonni yetti iqlimga buldi; vaqt o'lchamini; osmonning, kelajak manzarasini ifodalaydigan usturlob nazariyasini yaratdi va h. k.

Abu Nasr Forobiy. (873—950). Abu Nasr Muxammad ibn Muxammad ibn Uslug' Forobiy Sirdaryo bo'yidagi Forob-O'tror degan joyda dunyoga kelgan. U Toshkent, Samarqand va Buxoro, shuningdek, Bag'dod shaharlarida o'z bilimini oshirgan. Forobiy umrining so'nggi yillarini Halab, Damashk shaharlarida o'tkazgan. U 160 ga yaqin asar yozgan.

Asarlari: «Ixso al-ulum», «Xikmat asoslari», «Aristotel logikasiga talqinlar», «Katta musiqa kitobi», «Grajdanlik siyosati», «Fozil shahar aholilarining raylari», «Mantiqqa kirish», «Vakuum haqida», «Metafizika tezislari» va boshkalar. Forobiy dunyoqarashining asosini panteistik g'oya tashkil etadi. Uning fikricha, mavjudot emanasiya yordamida ibtidodan boskichmaboskich paydo bo'lgan. Forobiy o'zining ijtimoiy qarashlarida ma'naviy xayotga oid ko'pgina kimmatli fikrlarni olg'a surgan. U insoniyat jamiyati vujudga kelishi va rivojlanishining muayyan tabiiy sabablarini ko'rsatib bergan. Jamiyat axloqining vujudga kelishi, inson va jamiyatning o'zaro munosabatini tekshirgan. Shuningdek, u insoniylik, adolat, yetuk jamoa, komil inson muammosini o'rta ko'rgan va ularni nazariy jixatdan asoslab bergan.

Abu Ali ibn Sino (980—1037). Ibn Sino asl ismi Xusain, otasining ismi Abdulloh — mashhur qomusiy olim: tabiatshunos, faylasuf, astronom, matematik, musiqashunos, xuquqshunos, tilshunos, yozuvchi va shoir Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida dunyoga kelgan. Ibn Sino «Shayx-ur-ra'is» («Olimlar boshlig'i») deb nom qozongan. U 450 dan ortiq asar yozib qoldirdi. Shulardan 190 ga yaqini falsafa, mantiq, ruxshunoslik, axloqshunoslik va ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag'ishlangan Ibn Sino asarlarining 100 tasi bizgacha yetib kelgan.

Asarlari: «Al-qonun fit tibb» («Tib ilmlari qonuni»), «Kitob ash-shifo». U mantiq, fizika, matematika, metafizikani o'z ichiga oladi, «Kitob ul-insof» (20 tomlik), «Kitob lison ul-arab» (10 jildan iborat «Arab tili buyicha kitob»), «Donishnoma» (4 qismdan iborat), «Risala at-Tayr» («Qush tili»), «Salomon va Ibsol», «Xay ibn Yakson», «Kitob al ishorat», «Yusuf qissasi», «Urjuzalar — tibbiy dostonlar» va h.k. Ibn Sino uz asarlarida ijtimoiy falsafiy, ma'rifiy, ma'naviy masalalarga, ta'lim-tarbiyaga katta e'tibor bergan. Tarbiyani akdiy tarbiya; jismoniy tarbiya; axloqiy tarbiya; nafosat tarbiyasi; yoshlarga xunar o'rgatish bilan bog'lik bo'lgan tarbiyadan iborat, deb xisoblagan.

Abu Rayxon Beruniy (973—1048). Abu Rayxon Beruniy Xorazmning qadimiy poytaxti Kat shahrida dunyoga kelgan, Razlada vafot etgan.

Asarlari: «Qadimgi xalqlardan ko'lgan yodgorliklar», «Mas'ud qonuni», «Xindiston», «Geodeziya», «Mineralogiya», «Saydana». Beruniy ma'naviyat va madaniyat sohasida quyidagi fikrlarni ilgari suradi: Fanning sofliigi; Dunyoni deistik tushunadi: xudo dunyoni yaratib, uning ishlariga aralashmaydi degan diniy-falsafiy yo'nalishga moyil bo'lsada, dunyo yaratganligini tan olsa-da, tabiatni mustaqil deb xisoblaydi; Ibn Sino bilan qilgan ilmiy munozarada uziga xos atomistik nazariyani ximoya qiladi; geosentrik va geliosentrik nazariyalar tengligi haqidagi farazlarni ilgari suradi; inson xayvondan o'z aqli bilan farq qilishini ta'kidlaydi.

Xalqning rang va til farqlari, ur-odatlaridagi tafovut geografik muhitga bog'lik, deb hisoblaydi; jamiyat yuzaga kelishida kishilarning moddiy extiyojiga

aloxida etibor beradi; inson boshqa odamlarning baxt-saodati xaqida doim g'amhyplik qilishi, o'ylashi kerak, degan qoidani olga suradi; insonning qadr-qimmatini o'z vazifasini a'lo darajada bajarishida, deb xisoblaydi; uning e'tirof etishicha, mamlakat ravnaqi fan taraqqiyotida, insonning eng katta baxti esa bilishdadir.

Nosir Xisrav (1004—1088). Nosir Xisrav Qabodiyon (Tojikiston)da tavallud tongan. U ko'plab adabiy, ilmiy, falsafiy asarlar va risolalar muallifidir.

Asarlari: «Rushnoinoma»; «Saodatnoma» (masnaviylari); «Zod ul usofirin»; «Xon-ul-ixvon»; «Din vajxi»; «Bo'ston ul-uqul»; «Jome' ul-hikmatain»; «Safarnoma» (nasriyrisola). Nosir Xisrav o'zining ma'naviy xayoti, diniy-falsafiy dunyoqarashi jixatidan botiniya va ismoiliya mazhabining izdoshi va asoschilaridan xisoblanadi.

Nosir Xisrav insonning poklanish jarayoniga aloxida etibor qaratadi. Buning uchun g'ayri insoniy harakat, yomon xulqatvordan saqlanishga, g'ariblar diliga ozor bermaslikka chaqiradi. Axloqiy tarbiya roliga yuksak baxo beradi. U molumulkka berilmaslikka, adolat va insofga da'vat etadi. «Ma'naviy jixatdan ulg'aymokchi bo'lsang, martabangni yuqori ko'tarishni istasang, jaxonning ulug'lariga yaqinlashishni xohlasang, ilm o'rgan, aqlu idrokingni takomillashtir»,- deydi Nosir Xisrav. Ulug' zaxmatkash shoir uz asarlarida odamlarni yuksak odamiylik sifati va fazilatlarini egallashga chaqiradi. Uning fikricha, axillik, adlu insof, mexru oqibat, uzaro ittifoq ustuvor bulgan yurtida zulm mag'lub bo'ladi, inson sharafi g'olib keladi, uzaro nizolar barxam topadi.

Burxoniddin Al-Marg'inoniy (1123—1197). Jaxon tan olgan faqih Ali ibn Abu Bakr ibn Abd ul-Jalil al-Farroniy arRishtoniy al-Marrinoniy Kur'on, xadisilmlarini mukammal egallab, fikd — islom xuquqshunosligi borasida benihoya chuqur ilmga ega bo'lgan mutafakkirdir. U Burxon ud-din va-l- milla (Islom dalili) va Burxoniddin al-Marg'inoniy nomlari bilan mashxur bo'lgan. Olim boshlanrich ta'limni arrilonda olgan, keyin Samarqandga ko'chib borgan va butun umrini shu'yerdagi o'tkazgan, 1149 yili olim xaj safariga yul olgan.

Asarlari: «Bidoyat al-muntahiy» («Boshlovchilar uchun dastlabki ta'lim»), «Kifoyat al-muntahiy» («Yakunlovchilar uchun tugal ta'lim»), «Nashr ul-mazhab» («Mazhabning yoyilishi»), «Kitob ul-mazid» («Ilmni ziyoda kiluvchi kitob»), «Manosik ul-xaj» («Xaj marosimlari»), «Majma ul-navozil» («Nozil bo'lgan narsalar to'plami»), «Kitob ul-faroiz» («Farzlar kitobi»), «Xidoya». «Xidoya» yuqoridagi asarlarining eng ihchami, izchil va mukammal shaklidir. U hanafiya mazhabidagi asosiy qo'llanmadir. «Xidoya» turt juzdan iborat: birinchi juzga ibodat masalalari kiritilgan, bular -namoz, ruza, zakot va xaj kitoblaridir. Ikkinchi juzdan nikox, emizish, taloq, qullarni ozod qilish, topib olingan bolaning nasabini aniklash, topib olingan narsa, qochib ketgan qullar, bedarak yo'qolganlar, sherikchilik, vaqf mulki singari masalalar o'rin olgan. Uchinchi juzda esa oldisotdi, pul muammolari, kafolat, pulni birovga o'tkazish, qozilarning vazifalari, guvohlik, berilgan guvohlikka kaytish, vakolat, da'vo, iqrar buo'lish, sulx, pulni saqlashga berish, qarz berish, sobg'a, ijara, xomiylik qullar va bosqinchilik masalalariga oid muammolar xaqida so'z boradi. Turtinchi juzda shafokat, meros taqsimlash, dexqonchilik xamda bog'dorchilik xususida, shartnoma, qurbonlik qilish haqida, taqiqlangan ichimliklar xaqida, ovchilik, g'arovga berish, jinoyatlar xususida, xun xaqi to'lash, vasiyat kabi masalalar haqida fikr yuritiladi. «Hidoya» bir necha asrlardan buyon Sharkqda, shu jumladan, Markaziy Osiyoda xam xuquqshunoslik buyicha eng asosiy qo'lanma bo'lib kelmokda.

1.3.Kasb–hunar kollejlarda o’quvchilarni axloqiy tarbiyalash darslarini samaradorligini oshirish uchun fan o’qituvchisiga qo’yiladigan asosiy talablar.

O’zbekiston Respublikasining mustaqillikka yerishishi tufayli hayotimizning barcha jabhalarida turli ijtimoiy–iqtisodiy o’zgarishlar yuz bermoqda. Ushbu ijtimoiy–iqtisodiy o’zgarishlar jamiyatning munosib davomchilarini tayyorlash ishiga, ya’ni yosh avlodlarning shakllanishi jarayonini amalga oshiriladigan ta’lim–tarbiya tizimini tubdan isloh qilishni talab yetmoqda. “Davlatning buyuk kelajagi fuqarolarimizning ma’lumotlilikiga, madaniyatiga, bunyodkorligiga tayanadi. Zero, yeski ta’lim–tarbiya asosiga yangi jamiyatni qurib bo’lmaydi”¹. Ta’lim–tarbiya tizimini yangicha mazmuni asosida isloh qilishda o’qituvchining, tarbiyachining, murabbiyning roli beqiyosdir.

Tasviriy va amaliy san’at o’qituvchisining o’z sohasidagi savodxonligi yetarli darajada bo’lsagina, o’quvchi va talabalar bilan yonma–yon o’tirib o’zlari amaliy namuna ko’rsata oladilar. O’shandagina o’quvchilar va talabalar o’z ko’zlari bilan murabbiy rassomning yegallagan mahorat sirlarini amaliy ishlarida ko’rib ruhan his qiladi, hamda san’atning nozik sirlarini tushunib yetishishiga imkoniyatlari kengayadi.

Tasviriy va amaliy san’at o’qituvchisi boshqa o’qituvchilar kabi umuminsoniy fazilatlarga yega. U axloqiy sifatlar shakllangan, ma’naviy ruhan boy, yetuk inson bo’lishi bilan birgalikda yuqori darajada shakllangan kasbiy mahoratga yega bo’lgan mutaxasis–pedagog, psixolog bo’lmog’ lozim. “O’qituvchi tasviriy san’atdan maxsus bilim va malakalar bilan qurollanmasdan turib, muallimlik qilishi mumkin yemas. Ayniqsa, u tasviriy san’atning qalamtasvir, rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, shuningdek dekorativ–amaliy san’at va memorchilik san’ati tarixi, san’atdagi turli oqimlar maktablari uning

¹. J.Yo’ldoshev. “Ta’limimiz istiqloli yo’lida “T.” Sharq”, 1996, 106-107-b.

rivojidadagi tamoyillarini puxta o'zlashtirib olishining ayrim turlari bo'yicha badiiy ijod olib borishi va bu bilan bolalarga namuna bo'lishi kerak"¹.

Tasvir va amaliy san'at o'qituvchisi shu turkumdagi maxsus tayyorgarlik texnologiyasini mukammal, mazkur sohaning tarixini, nazaryasini, metodologiyasini, amaliyotini o'zlashtirgan yuqori darajadagi kasbiy mahoratga yega bo'lgan metodist bo'lmog'i ham lozimdir.

1) tasviriy va amaliy san'at o'qituvchisining badiiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil yetishda, o'quv tadbirlarini amalga oshirishda va hal yetishi lozim bo'lgan vazifalari, muammolari tizimida;

2) tasviriy va amaliy san'at o'qituvchisining hozirgi zamon sharoitida kasbiy mahoratiga, mas'uliyatiga qo'yiladigan talablarni uning faoliyatida aks yetishi ;

3) o'qituvchining o'z oldida turgan vazifalarini va muammolarini hal yetishdagi va kasbiy siymosida tasnif yetilgan faoliyot turlarida ;

4) ta'limiy–tarbiyaviy muammolarni hal yetishda tasviriy va amaliy san'at o'qituvchisi foydalanadigan vositalar, uslublar va faoliyatni amalga oshirish yo'llari hamda ta'lim mazmunini tanlashda ;

Tasviriy va amaliy san'at o'qituvchisining ma'lum darajada bu sohada yaratilgan bilimlarni, ko'nikma va malakalarni bir davrdan ikkinchi davrga o'tkazuvchilik mas'uliyatini tavsiflaydigan quyidagi yaqqol seziladigan ko'rsatkichlar ham mavjud:

–tasviriy va amaliy san'at o'qituvchisining zaruriy bilimlari hajmi ;

–o'quvchining o'quv–tarbiyaviy mashg'ulotlarini, turli tadbirlarni amalga oshira olish ko'nikma va malakalari ko'lami ;

– tasviriy va amaliy san'at o'qituvchisining shaxsiy kasbiy fazilatlari.

Tasviriy va amaliy san'at o'qituvchisining vazifalari:

1) o'quvchilarni badiiy nafosat va ijodiy sifatlarini shakillantiruvchi ijtimoiy–iqsodiy vazifalar;

2) aqliy, ijodiy, jamoatchilik muammolari ;

¹. R.Hasanov. Umumta'lim maktablarida tasviriy san'at ta'limi konsepsiyasi .T.:O'zPFITI, 9-10-b.

- 3) nazariy ta'limni amaliy, hayotiy , tabiiy faoliyat ,ijod bilan bog'lay olish ;
- 4) kasbiy faoliyatda ,badiiy ijodda o'quv va ijodiy mashxulotlar birligini, uygunligini saqlay olish;
- 5) o'quvchilarni badiiy, axloqiy, nafosat tarbiyasida majmuaviy va tizimli yondashishni ta'minlash .

Tasviriy va amaliy san'at o'qituvchisining kasbiy, pedagogik faoliyatini quyidagi qisimlardan tuzilgan deb faraz qilish mumkin :

- a) tashkilotchilik – sinfda o'quv jarayonini, o'z madaniyatini, turli tadbirlarni yo'lga qo'ya olishi ;
- b) tuzuvchilik – kompozitsiyalar, loyihalar, qurilmalar,naqsh, badiiy tasvirlar, obrazlar va boshqalarni ko'rib, yasay olishi ;
- v) axborot bera olish–ranglar, ularning hususiyatlari, tasviriy va amaliy san'at tarixi, taraqqiyoti, jarayonlar va boshqalar to'g'risida;
- g) rivojlantiruvchi–bolalarning dastlabki tanishtirish bosqichidan boshlab, mohir rassom, haykaltarosh, me'mor va boshqalar bo'lib yetishishigacha bo'lgan bilim, malaka, ko'nikmalarni takomillashib borishiga yerishish;
- d) kasbga yo'nalganlik;
- ye) kasbiy safarbarlik;
- j) tadqiqodchilik–ijodkorlik;
- z) maxsus kasbiy, o'ziga xos muammolar.

Tasviriy va amaliy san'at o'qituvchisining yuksak mahoratli mutaxassis sifatida faoliyat ko'rsatishida quyidagi bilimlar zarur: g'oyaviy, mafkuraviy, axloqiy, psixologik, pedagogik, metodik, tabiiy–ilmiy, matematik, texnik–texnologik (maxsus), iqtisodiy, demografik, yekologik, huquqiy, nafosat, umummadaniy, axborotlar bilan munosabatda bo'la olish.

Ko'rinib turibdiki, kelajagimiz poydevori bo'lgan yosh avlodni kamol toptirishda, ayniqsa, tasviriy va amaliy san'at o'qituvchisining serqirra faoliyati alohida ahamiyat kasb yetadi.

Bo'lajak tasviriy va amaliy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda ixtisoslik fanlarini o'qitishning innovasion texnologiyalarni quyidagi yo'nalishlari farqlanadi:

- amaliy ishlarni tashkil yetishdagi ijodiy individuallik;

- ijodiy o'sish va takomillashish jarayoni;

- o'z imkoniyatlarini amalga oshirish tajribasi;

O'qituvchining ijodiy individualligi quyidagilardan iborat:

- intellektual – ijodiy tashabbus;

- bilimlar kengligi va cho'qurligi intellektual qobiliyati;

- tafakkur qilish, ijodga tanqidiy yondashuv va tasvirlarni yaratuvchilikka intiluvchanlik qobiliyati;

- yangilikka bo'lgan xis–tuyg'u, bilishga bo'lgan chanqoqlik .

- O'qituvchi faoliyatida o'z–o'zini faollashtirish, o'z ijodkorligi, o'z–o'zini bilishi va yaratuvchiligiga oid ma'lumotlar muhim ahamiyat kasb yetadi.

- O'qituvchining innovasion faoliyati uning muammolari va usullarini yechishni aniq tasvirlar orqali ifodalab berishiga qaratilgandir. Amaliy mashgulotlar jarayonida o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqot namunasining o'zgarishi innovasion faoliyat shartlaridan biridir.

Bo'lajak tasviriy va amaliy san'at o'qituvchilarini tayyorlashdagi asosiy hususiyatlardan yana biri, yangi munosabatlar an'analarda bo'lganidek, qistovlar, hukmiga bo'ysinish kabi unsurlardan xoli bo'lishi lozim. Ular tenglarning hamkorligi, o'zaro boshqarilishi, o'zaro yordam shaklida ko'rilgan bo'lishi darkor. Ular munosabatlaridagi yeng muhim hususiyati bu o'qituvchi va talabaning ijodidagi hamkorligidir. Shu hamkorlik natijasida axloqiy normalar ham izga tushadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy yetish zaruriyati yesa quyidagi muhim omillar bilan belgilanadi:

- O'zbekiston mustaqil davlat deb ye'lon qilingandan so'ng yangi ta'lim mazmuni ishlab chiqilganligi;

–o'quvchilarni nazariy bilim va yegallashlari lozim bo'lgan amaliy malakalari zamonaviy talablar asosida yangi yutuqlarini kengayib borayotganligi;

–jahonda pedagogika va ta'lim tizimida ta'lim olish darajasining oshib borayotganligi hamda o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligiga qo'yilayotgan talablar;

Shunday yekan, o'qituvchi o'quvchilarni mustaqil kitob o'qishlari va tasviriylar – ijodiy ishlarni bajarishlari, mustaqil qoralama va rang lavhalar bajarish kabilarga yo'llashi kerak bo'ladi.

KHK¹ning rangtasvir, qalamtasvir, tasviriylar san'at tarixi darslarida pedagogik texnologiyani qo'llash jarayonida quyidagi jihatlarni ye'tiborga olish kerak: Fanlarning o'qitilishini samarali tashkil yetish va doimo boyitib borish, yangilab turish, o'quvchilar bilim va malakalarini to'xtovsiz tahlil qilib turish.

Mavjud pedagogik jarayonlar bilan solishtirish, ta'lim oluvchilarning faoliyatlarini doimiy nazorat qilish va baholab borish.

Zamonaviy pedagogik texnologiyani muhim xususiyatlaridan biri bu ta'lim oluvchilarni o'qitish yemas, ularni mustaqil bilim va malakalarni yegallashlariga yo'naltirishdir.

Pedagogik texnologiyaning samaradorligi ko'p jihatdan badiiy ta'lim jarayonida ustozning shogirdlari bilan hamkorlikda ishlashi va ularning faolligini oshirishga bog'liqdir. Shu bilan birga ta'lim oluvchilarning tasviriylar va amaliylar san'at fanlaridan o'quv metodik majmualar materiallarini mustaqil tahlil yetish ko'nikmalarini hosil qila olishiga ham aloqadordir.

O'rta maxsus kasb–hunar kollejlarida o'quvchilarni naqqoshlik san'atiga o'rgatishda ta'limning zamonaviy uslublaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb yetadi. Shuning uchun kasb–hunar kollejlarida amaliylar san'at ta'limining yangi mazmuninn shakllantirishning ilgor pedagogik texnologiyalari, zamonaviy o'quv–uslubiy majmualar va o'quv tarbiya jarayonining didaktik jihatlarni

¹ KHK- qisqartma bo'lib to'liq o'qilishi "Kasb-hunar kolleji".

ta'minlash va mazkur soha o'qitilishining ilmiy–amaliy masalalarini to'g'ri hal yetish hozirgi kunning yeng dolzarb masalalaridan biridir. Shu jumladan axloq normalari ham dolzarb masaladir. Ushbu masalani ijobiy xal qilishda o'quvchilarga naqsh turlari va ularning o'ziga xosligi xaqida ma'lumot berish hamda ularni turli shaklda naqsh kompozitsiyalari tuzishga o'rgatish bilan axloqiy tarbiya berishga harakat qilinadi. Ularda o'tilayotgan mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish, nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, mavzuga oid tarqatilgan materiallarni yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari uchun suhbat–munozaralar tashkil yetish, tarqatma matlriallar tayyorlash orqali o'quvchilarning bilimini baholash yaxshi natija beradi.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tishda noan'anaviy metodlarni qo'llash. Uning imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish har bir pedogog uchun tarbiya bilan boglab olib borish mas'uliyatli vazifadir. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda quyidagilarga ye'tibor qaratish lozim:

1. Yoshlarga naqqoshlik san'atini o'rgatishda yangi texnologiyalarni qo'llash ota–bobolarimizdan qolgan urf–odatlar, ustoz shogird an'analarini davom yettirish orqali ularni ma'naviy–axloqiy jihatdan tarbiyalash;

2. Naqqoshlik san'atini o'rgatishda o'quvchilarni ijodkorlik, izlanuvchanlikka kasbiy mahoratini takomillashtirishga yo'naltirish:

3. Yoshlarda kasb axloqi, kattalarga hurmat, vatanparvarlik, xushmuomalalik, odoblilik, rostgo'riylik, halollik, pokizalik, sabr–qanoat, kamtarlik, insonparvarlik, adolatparvarlik, odillik, mehr–muhabbat, samimiylilikni tarbiyalash;

4. O'quvchilarda ijtimoiy–g'oyaviy, yuksak dunyoqarashni shakllantirishdan iborat.

Ushbu yuksak vazifalarni xal yetishda naqqoshlik buyicha quyidagi mashg'ulot turlarini tavsiya yetiladi.

O'qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur yetish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish kerak. Unda o'qituvchi uchun bo'lajak darsni texnologik xaritasini tuzib olishi katta

ahamiyatga yegadir. chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, fanning hususiyatidan kelib chiqib. O'quvchilarning imkoniyati va yehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Har bir darsning rang– barang, qiziqarli bulishi avvaldan puxta o'ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog'liq.

Xalq, amaliy san'ati bo'yicha berilayotgan bilimlar o'quvchilarda yestetik didni o'stirish bilan bir qatorda, ularda borliqni idrok yetish madaniyatini va ijobiy munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o'quvchilarga dekorativ amaliy san'at asarlarining yestetik mohiyatini tushunib berishga ko'maklashadi. Shuning uchun ham xalqlarimiz udumlari asosida shakllangan axloqiy normalar doimiy o'z izmida bo'lib turadi.

Darslarda va to'garak mashgulotlarida Q.Qosimovning "Naqqoshlik", S.S. Bulatovning "Ganchkorlik", «O'zbek xalq amaliy san'ati» kabi qo'llanma va darsliklaridan foydalanish mumkin.

Ushbu metodik qo'llanmalar o'zbek xalq, dekorativ amaliy san'atining yeng qadimiy turlaridan naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi hamda ganch o'ymakorligiga bagishlangan bo'lib, unda naqqoshlik va o'ymakorlik san'atining tarixi, rivojlanishi, bu kasblarni yoshlarga singdirish usullari ommabop tarzda bayon qilingan.

1 bob yuzasidan xulosa

Respublikamizning mustaqilligi tufayli tinch, farovon xalq hokimiyati bo'lgan demokratik jamiyat, davlat qurishga bel bog'ladik. Bunga osonlikcha yerishilgan yemas. Shu qisqa davr ichida minlab turli – tuman buzg'unchi g'oyalar ham davlatimizni notinch qilib qoydi. Ollohg'a shukurki, biz o'z yo'limizni topib oldik. Yendi ta'lim – tarbiyaviy ishlarini yanada jonlantirish lozim. Jamiyatni axloqan komil insonlarni ribojlantirib berishligi azaldan ma'lum. Axloqiy – ijtimoiy ong shakllaridan biri deb hisoblanadi. Har bir insonning shu jamiyat oldidagi burchi, oiladagi yurish – turish, maqsadi va o'ziga oid vazifalari, tartib va qoidalari bo'ladi. Mana shu masalalarga to'g'ri munosabatda bo'lishlikda axlaq normalari yotadi. Axloq – bu poklik, insoniylik, boshqalar oldida o'zining hamma jihatdan sifatlari bilan yetuk yekanligi. Axloqning juda ko'plab omillar bor.

Amaliy san'at turlari va hunarmandchilikka qarata “Yey inson agar dono bo'lay desang, hunarmand bo'lishni o'yla, hunarmandchilik sababidan izzat–hurmatga yerishasan agar hunardan bebahra bo'lsang, quruq soyasiz daraxtga o'xshab qolasan” deb fikrini aytadi. Axloqiy tarbiya masalasida sharq mutafakkirlari ko'plab o'zlarining asarlarini yozganlar. Mutafakkirlardan Ismoil al Buxoriy hadislarida, Ahmad Al Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nosir Farobiy, Al Xorozmiy, Alisher Navoiy, Bobur mirzo, Ulug'bek kabilarning o'gitlari axloqiy tarbiyada muhim manba hisoblanadi.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tishda noan'anaviy metodlarni qo'llash. Uning imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish har bir pedagog uchun tarbiya bilan boglab olib borish mas'uliyatli vazifadir. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda quyidagilarga ye'tibor qaratish lozim:

1. Yoshlarga naqqoshlik san'atini o'rgatishda yangi texnologiyalarni qo'llash ota–bobolarimizdan qolgan urf–odatlar, ustoz shogird an'analarini davom yettirish orqali ularni ma'naviy–axloqiy jihatdan tarbiyalash;

2. Naqqoshlik san'atini o'rgatishda o'quvchilarni ijodkorlik, izlanuvchanlikka kasbiy mahoratini takomillashtirishga yo'naltirish:

3. Yoshlarda kasb axloqi, kattalarga hurmat, vatanparvarlik, xushmuomalalik, odoblilik, rostgo'riylik, halollik, pokizalik, sabr-qanoat, kamtarlik, insonparvarlik, adolatparvarlik, odillik, mehr-muhabbat, samimiylilikni tarbiyalash;

4. O'quvchilarda ijtimoiy-g'oyaviy, yuksak dunyoqarashni shakllantirishdan iborat.

Ushbu yuksak vazifalarni xal yetishda naqqoshlik buyicha quyidagi mashg'ulot turlarini tavsiya yetiladi.

Xalq, amaliy san'ati bo'yicha berilayotgan bilimlar o'quvchilarda yestetik didni o'stirish bilan bir qatorda, ularda borliqni idrok yetish madaniyatini va ijobiy munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o'quvchilarga dekorativ amaliy san'at asarlarining yestetik mohiyatini tushunib berishga ko'maklashadi. Shuning uchun ham xalqlarimiz udumlari asosida shakllangan axloqiy normalar doimiy o'z izmida bo'lib turadi.

Shuni unutmaslik kerakki, tasviriy va amaliy san'at o'qituvchisining faoliyati faqat amaliy san'at darslarini o'tish bilan cheklanmaydi. U o'z faoliyatini muvoffaqiyatli amalga oshirish uchun bola psixologiyasini, individual hususiyatlari, imkoniyatlarini alohida ye'tiborda tutib, shunga muvofiq darsda amalga oshiradigan vazifalarni belgilab borish lozim bo'ladi. Bu o'rinda quyidagi jihatlarni ko'rsatib o'tish mumkin:

1. Darsda amalga oshiriladigan pedagogik vazifalarni to'g'ri belgilash (faoliyatlar bo'yicha);

2. Darsni tashkiliy jihatdan mazmunli bo'lishiga yerishish;

3. Ta'lim – tarbiya jarayonida o'quvchilar bilan muloqoti;

4. O'quv materiallarini o'quvchilar bilim va malakalariga mosligi;

5. O'quvchini bayon qilishi, ko'rsatib berishi, umumlashtirish, namoyish qilish, o'quvchilar hatti – harakati, munosabati, berilgan topshiriqlarni bajarishi, javob berishi, amaliy ijrosini ko'zatib, to'g'ri baholab, rag'batlantirib borish,

6. Har bir o'quvchidagi o'zgarishni ko'ra bilishi tasvirlash qobiliyati yaxshi va sust rivojlangan bolalarni umumiy va maxsus to'garaklarda kamol toptirish vazifalarini belgilash va izchil amalga oshira borish;

7. O'quvchilarning tasviriy qobiliyatlari, qiziqishlari ko'nikma va malakalarini rivojlanish dinamikasini o'rganib borish;

8. O'qitishni ilg'or va samarali usullarinni o'rganish, amalda qo'llash; ilg'or tajribalarni sinab ko'rish, ommalashtirish;

9. Muntazam ravishda pedagogik ko'zatishlar va tajribalar o'tkazib borish.

10. O'quvchilarda axloqiy tashunchalarni shakllanishi doimiy nazoratda bo'lishini yoddan chiqarmaslik.

Bundan ko'rinadiki, tasviriy va amaliy san'at o'qituvchisining bilim va malakalari strukturasini ijtimoiy-siyosiy psixologik – pedagogik va maxsus bilim va malakalari tashkil yetadi.

2 bob. AMALIY SAN'AT ORQALI O'QUVCHILARGA AXLOQIY TARBIYANI SINGDIRISH

O'zbekiston xalqlarining tarixiy taraqqiyotida milliy qadriyatlari, ilm–fan, madaniyat durdonalari boy me'rosga yega. Bularni o'rganish va tahlil yetish g'oyat muhim masaladir. “Bugun bizning oldimizda shunday tarixiy imkoniyat paydo bo'ldiki”,– degan yedi Prezidentimiz I.A.Karimov: “Biz bosib o'tgan yo'limizni tanqidiy baholab, milliy davlatchiligimizni negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz tomirlariga qaytib, o'tmishdagi boy an'analarni yangi jamiyat qurilishiga tadbiq yetmog'imiz kerak” – deb ko'rsatadi. Mamlakatimiz Prezidenti I. Karimov Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o'n to'rtinchi sessiyadagi ma'ruzasida O'zbekistonning kelgusi asrga nimalarni olib o'tishi va nimalardan voz kechishi lozimligi haqida gapira turib, hayotimizning yaxshilash yo'llari, yangi ming yillikda qanday muammolarning yechimiga diqqat qilishimiz lozim? – degan masalalarga yechim topishga intiladi va buning uchun Respublika hayotiga, o'tmishiga nazar tashlab borishni tahlil qiladi.

Xalq amaliy san'ati turlari, ya'ni yog'och o'ymakorligi, kulolchilik, tosh o'ymakorligi, naqqoshlik, ganch o'ymakorligi, kashtachilik, misgarlik singari to'garaklar ochilib, xalq ustalari san'at sirlarini yoshlarga o'rgata boshladilar. Shulardan usta Shirin Murodov, Toshpo'lat Arslonqulov, Mahmud Usmonov, Maqsud Qosimov, Abdulla Boltayev, Qodirjon Haydarov, Jalil Hakimov va boshqalar xalq amaliy san'ati ustalari yetishtirib chiqarishda hissa qushdilar. To'garak a'zolari ko'p yutuqlarga yerishdilar. Butun xalq ko'rgazmalarida, yosh texniklar ko'rigi va badiiy ko'rgazmalarda qatnashdilar.

1960–yillarda to'garaklarni sistemalashtirishda pedagog olimlar, ilgor o'quvchilar, komsomol xodimlari, maktabdan tashqari muassasalarning metodistlari xizmat qildilar. 1963–yilda yesa maktab o'quvchilarining Butun xalq ilmiy metodik konferensiyasi bo'lib o'tdi, bu konferensiyada maktabdan va sinfdan tashqari ishlar va boshqalarni birmadomda metodlarini rivojlantirish

yo'llari muhokama qilindi. Amaliy san'at darslarini tashkil qilishda zamonaviy ta'lim metodlaridan to'g'ri foydalanish lozim.

– Metodika, metod — aslida bilish, o'rganish, tadqiqot yo'li, ijodiy usul, pedagogik usul ma'nosini anglatadi. Pedagogikada o'qitish metodlari deganda, boshlang'ich sinf o'quvchilariga badiiv ta'lim–tarbiya berish jarayonida bilim, mahorat va kasbiy malakalarni yegallashda, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda hamda dunyoqarashini tarkib topishda o'qituvchilarning qo'llagan har xil usullari tushuniladi.

Metodika ta'lim–tarbiya jarayonida o'qituvchilarning o'quvchilar bilan ishlash usullari mazmun va hususiyatlarini o'rganib chiqib, tasviriy san'at o'qitishning xilma–xil metodlarini qo'llashga o'rgatadi.

«Tasviriy san'at metodikasi» o'qituvchining o'quvchilar bilan ishlash usullarini yaxshi bilim olish darajasiga yerishish va o'zlastirishini oshirilishi nazarda tutiladi. «Tasviriy san'at metodikasi» pedagogik ilmiy fan sifatida tajribada juda keng sinalgan ijobiy ishlarni nazariy qismlarini umumlashtirib, amaliyotda samarali natijalarga yega bo'lgan o'qitish metodlarini taqdim yetadi.

Metodika, asosan, pedagogika, ruhshunoslik, san'ashunoslikning tadqiqot natijalariga asoslangan bo'lib, tasviriy san'atni o'rgatishning qonun–qoidalarini ta'riflab beradi. Shu bilan birgalikda kelajak avlodni tarbiyalashning yangidan–yangi zamonaviy metodlarini aniqlab beradi.

Zamonaviy metodlardan interaktiv, pedagogik, innovasion va axborot texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llanilishi kundan–kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi–talabalarga faqat tayyor bilimlarni yegallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni yegallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib. tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda o'quvchini rivojlanishi, shakllanishi,

bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi.

Interaktiv metodlar— bu jamoa bo'lib fikr yuritish, ya'ni pedagogik ta'sir yetish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi–talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshirilishi lozim.

Inovasion texnologiya (ingl. Innovation) — yangilik kiritish, yangilikdir. Innovation texnologiya — pedagogik jarayonda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib. uni amalga oshirishda, asosan, interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Bunday hamkorlik jarayonining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardir:

- o'quvchi–talabaning dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur yetishi;
- o'quvchi–talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;
- o'quvchi–talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashishini rivojlantirilishi;
- pedagog va o'quvchi–talabaning hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

Pedagogik texnologiya — bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan texnik vositalar, kompyuter, masofali o'qish yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi. Pedagogik texnologiya yeng asosiy negizi – bu o'qituvchi va o'quvchi–talabaning belgilangan maqsaddan kutilgan natijaga hamkorlikda yerishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga bog'liq bo'ladi, ya'ni o'qitish jarayonida, ko'zlangan maqsaddan samarali natijaga yerishishida qo'llaniladigan har bir texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik faoliyati, ijobiy natijasi, mustaqil

fikrlashi, ijodiy ishlashi, izlanishi, tahlili va xulosa chiqarishni tashkil yetishlari, o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi.

O'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya — bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'quvchi–talabanning yehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va samarali natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Tasviriy san'at o'qituvchisi har bir darsni oldindan tasavvur yetish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olishi kerak. Bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olishi katta ahamiyatga ega, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, fanning hususiyatidan, o'quvchi– talabalarning imkoniyati va yehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Bunday texnologik xaritani tuzish uchun o'qituvchi badiiy pedagogika, san'at psixologiyasi, xususiy metodika, pedagogik va axborot texnologiyalardan xabardor bo'lishi, shuningdek, metodlar va usullarni bilishi kerak bo'ladi. Har bir darsni rangbarang, qiziqarli bo'lishi avvaldan puxta o'ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog'liq.

Quyida amaliy san'at fanidan «Perspektiva» mavzusi bo'yicha o'tkaziladigan darsning oldindan loyihalashtirilgan texnologik xaritasini misol tariqasida havola qilamiz:

O'qitish jarayonida o'quvchilarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo'llanilishi ularni mustaqil, yerkini fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas'uliyatni sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, yeng asosiysi, o'qishga, fanga, pedagogga va o'zi tanlagan kasbiga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

Bunday natijaga yerishishda amaliyot va o'quv jarayonida innovasion va axborot texnologiyalarni qo'llashni taqozo yetadi. Zamonaviy metodlar yoki o'qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik

treminglar o'quvchi–talabalarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil (fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardosh, yetuk mutaxassis bo'lishlariga hamda mutaxassisga kerakli bo'lgan kasbiy fazilatlarini tarbiyalashga yordam beradi.

Demak, tasviriyy va amaliy san'at ma'lumoti, bilimiga yega bo'lish uchun san'atning amaliy mashg'ulotlarini uzoq vaqt mobaynida samarali ijodiy mehnat orqali va har xil metodlarni qo'llash orqali yegallanadi.

Ta'lim – tarbiya jarayoni va amaliy san'at darslariga qo'yiladigan talablarini ishlab chiqildi. Mazkur ishlar bilan pedagogika fanlar ilmiy–tadqiqot instituti va RUMM ishtirokida tuzilgan markaz shug'ullanadi. Bu markazda o'zbek xalq amaliy san'ati o'quv fanining mazmuni va soatlar hajmining xilma–xilligi, sinfdagi o'rta, yaxshi va yomon o'zlashtiruvchi talabalar uchun mo'ljallangan dasturlar, metodik qo'llanma, tavsiyanoma va boshqa materiallar ishlab chiqiladi.

Amaliy san'at darslarida zamonaviy texnologiyaning tarixiy taraqqiyoti to'g'risida gap borganda avvalo 1970 – yillarda kirib kelgan yangi pedagogik texnologiyani misol qilib ko'rsatish mumkin. Tarixiy manbalarda yozilishicha maktablarda dars olib borish texnik vositalar yordamida olib borilgani birinchi o'qitishning texnologiyalari hisoblanar yekan. Maktabda faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyaning O'zbekistonga kirib kelishi to'g'risida ma'lumotlarga yega bo'lishlari kerak. Shuningdek, tasviriyy va amaliy san'at o'qituvchilari ham ilgor tajribalarni o'rganish, aniqlash va ommalashtirishlarni bir qancha o'qituvchilar faoliyatida ko'rishimiz mumkin. Amaliy san'at darslari, to'garaklar, ustoz–shogirdlar amaliy ishlari axloqiy tarbiya mezonlariga boglangan.

Samarqand ganch o'ymakorligining nomoyondalaridan Usta Anvar Qulliyev, Usta Tursinboy Ismoilov, Shamsiddin G'afurov, Quli Jalilov va boshqalar. Bu Ustalar Samarqand ganchkorlik san'atining yetuk nomoyondalaridandir.

Samarqand naqshlari Toshkent, Farg'ona naqshlariga o'xshab ketadi. Samarqand naqshlari o'ta guldorligi barg va gullarining badiiy xarakatchanligi,

jonliligi bilan farq qiladi. Unda murakkab girixlar, Farg'ona naqshlariga o'simliksimon naqshlari bilan aniq bir ritmik takrorlanuvchan naqshlar kompozitsiyasi bilan Toshkent naqshlariga o'xshash. Avval zangori rang gammasida ko'p naqsh bajarilgan bo'lsa. Hozir yesa yashil rang gammasida ko'proq naqshlar bajariladi. Samarqand naqqoshlik maktabini yaratishda «Usta Raxmonxol, usta Jamoliddin (Mirjamol), usta Maxmud, usta Abdujabbor, usta Abduzoxid, usta Sharif, usta Aminjon, usta Bako» keyinchalik usta Jalol va Bolta Jalilovlar kabi naqqoshlar asos soldilar va bebaxo xissalarini qo'shdilar.

Samarqand san'at madaniyat, hamda badiiy hunarmandchilik keng revoj topgan yer kurrasining yeng ko'hna shaharlaridan sanalgan. XVI asrda Samarqandda kandakor usta Kamol yashab o'tgan. Usha davrda unga teng keladigan usta bo'lmagan. Usta Ahmad, Salim misgar, usta Oxunjon, usta Haydarxo'ja, Karim G'ofurov, Karim Axmedov, usta Tog'ay va boshqalar Samarqand kandakorlik maktabining vakillaridandir.

Yuqorida nomlari keltirilgan ustalar milliy qadriyatlarimizni revojlanishiga katta hissa qo'shgan kishilar hisoblanadi. Ular yaratgan amaliy bezak ishlari insonlarni o'zligini anglash, millatni qadrlash, urf-odatlarimizni saqlash uchun xizmat qiladi.

O'zbek xalqi ikki ming yil davomida xalq amaliy san'atining shunday ajoyib namunalarini yaratdi va yaratib kelmoqda. Naqqoshlar o'zlarining yuksak badiiy mahorati va nazokati bilan bugungi kunda ham kishilarni hayratga solmoqdalar. Naqqoshlik san'ati O'rta Osiyoda juda qadimiy bo'lishi bilan birga, ajib, o'ziga xos, betakror namunalari bilan ajralib turadi. Har bir naqshning tashqi ko'rinishini ifodalovchi ajib bir gullari, yaproq, novda, islimi, girix kabilar bilan birga chuqur ichki ma'nosi bor. Bunda har bir shakl aniq o'lchamda, hamohang bo'lishi, ranglar did bilan o'zaro mutanosib tanlanishi kerak. Ma'lumki, O'rta Osiyoga islom dinini kirib kelishi bilan joriy yetilgan jonli mavjudot tasvirini ishlashning man qilinishi tasviriy san'atni rangtasvir, haykaltaroshlik kabi turlarini rivojlanishiga to'sqinlik qilgan, biroq, xalq amaliy san'ati, xususan naqqoshlik san'ati keng taraqqiy yetishiga ham katta turtki bo'lgan. Binolar,

turli idish–tovoqlar, buyumlar, qurol–aslahalar naqsh bilan bezatildi. Shaharlar husniga ko'rk bo'lgan qadimiy obidalar, masjidu, madrasalar, xonoqo va maqbaralar naqsh bilan bezatildi, ganch va yog'och o'ymakorligi keng ko'lamda qo'llanildi.

Ana shunday milliy san'atimiz bo'lgan xalq amaliy san'atining bizgacha yetib kelishi va rivojlanishida mashhur ustalar Usta Shirin Murodov, Yusufali Musayev, Umrzoq Ahmedov, Ota Polvonovlarning hissalarini beqiyosdir.

Farg'ona naqqoshlik maktabi nomi bilan tilga olinadigan Xo'jand, Marg'ilon, Qo'qon, Farg'ona, Andijon, Namangan, Chust, Quva, Oltiariq va Rishton shaharlarida vujudga kelgan uslublarda ijod qilgan ustazoda Saidahmad Norqo'ziyevni ham alohida ta'kidlash joizdir. Bugungi kun yoshlari ularning ishlarini sadoqat, ixlos, mehr–muhabbat bilan o'rganmoqdalar.

2.1. Amaliy san'at mashg'ulotlarini tashkil yetish metodikasi

Amaliy san'at mashgulotlarida oddiy naqsh namunalarini qalamda va rangda ishlashdan oldin o'quvchilarni naqqoshlikda ishlatiladigan asbob–uskunalar va xom ashyolar bilan tanishtiriladi. Ustaxonalarni tashkil yetish, jihozlash, ish qurollari, qadimiy va zamonaviy ashyolar bilan ishlash uslubi haqida tushunchalar beriladi. Qog'oz turlari, vatman, yarim vatman, qizil, ko'k va oq o'chirg'ichlar, qalam turlari, chizg'ichlar, pargor va mo'yqalamlar, bo'yoqlar, politra, ish korjomasi va boshqalar bilan tanishtiriladi. Qalamni to'g'ri ochish va katak daftarda har xil qalinlikda to'g'ri chiziqlar chizish mashqlari bajariladi. O'simliksimon va ramziy naqsh belgilarini chizish geometriyasi, naqsh va uning turlari haqida tushunchalar beriladi. Naqsh belgilarini tabiatdan qayta ishlab olish va kompozitsiyalar hosil qilish, naqsh kompozitsiyasida kompanovka, simmetriya va assimetriya, ritm, stilizasiya, shakllarni teng qismlarga bo'lish, dinamika haqida o'quvchilarga to'liq tushunchalar beriladi. Har xil chiziqlarni ko'z bilan chamalab teng bo'laklarga bo'lishni va ularni chizishni o'rganish yo'llari tushuntiriladi. O'simliksimon naqsh belgilari barglar, gullar, g'uncha, marg'ula, tanob, shukufta shuningdek, ramziy naqsh belgilari va boshqalarni chizishni mashq qilishadi.

Oddiy naqsh namunalarini qalamda chizish. Kompozisiya asoslari va dastlabki tushunchasini to'liq o'zlashtirgan o'quvchi yendi oddiy naqsh namunalarini hosil qilish geometriyasi va ularni chizish qonun-qoidalari bilan tanishadi. Oddiy naqsh namunalarini katak daftarda qalamda chizish mashq qilingandan so'ng albomga chiziladi.

Kontrast (farq). Kontrast mahsulot detallari hususiyatini muqobillashtiruvchi vosita bo'lib, tarkiblar badiiy qimmatini funksional mosligiga ta'sir qiluvchi kompozisiya shartiga ko'ra yuzaga keladi. Kontrast solishtirishning soddaroq, keskin farqlarini, tashqi ko'rinishdagi o'ziga xos belgilarni aniqlaydi. Kontrast hususiyatlarini baholashda buyumlarni solishtirish jarayonida kattaligi, joylashish ko'rinishiga ko'ra tasvirlanadigan shakl o'rnida taqdim qilinishi mumkin. Solishtirish jarayonining ayrim o'lchamida kontrast ko'z harakati bilan aniqlanadi. To'g'ri chiziqqa yaqin maydoniga ko'ra solishtirishda hajmi sikl umumiy farqlovchi natija bo'lib ko'rinadi. Birinchi navbatda, tasvirning umumlovchi natijasi bo'lib yuzaga keladi. Shakllarni aniqlashda kontrastli munosabat tasvir chiziqlarini nigoj bilan solishtirish natijasida ta'sir yetadi, rang farqini ajratish tanlangan joy hususiyatiga ko'ra ajrim bo'ladi.

Farqlanish munosabatlari tashqi yehtiyojlarning barcha belgilariga ko'ra solishtirilganda birinchi taassurot boshqa munosabatlardan farq qiladi. Kontrast belgisi yorug'lik ko'zimizga tushishi bilan aniqlanadi. Qiyoslanuvchi ranglar yoritilgandan so'ng, yelektr uchquni yorug'ligi ta'siri natijasida seziladi. Jilo buyumlarning tashqi ko'rinishi va kattaligi uning yaxshi hususiyatlaridan biridir va rangi, chizmatasvir, jussasi joylashishidan yuzaga keladi. Bu bir xil zaruratli buyumlarni bilishda ko'pincha qo'l keladi. Jilo – solishtirishning murakkablashgan jarayoni bo'lib, ko'zning bir qator harakatlaridan tashkil topadi. Kattalikning jiloli hususiyati shakli, yuzi, ko'z harakatlari umumiysidan yuzaga kelgan arzimagan farqlari bilan ajralib turadi. Ranglar orqali jilolash, arzimagan qo'zg'atishlar orqali ham his yetiladi. Murakkabroq jiloli shakllar yuzaga kelishi, shu jumladan, o'rnashganligi va uning qurilishidagi yegallangan o'rni ham yuzaga keladi.

Qutichaga tabiat, hayvonot olami va inson qomati aks yetgan kompozisiyalar ishlash, qutichaga tabiat, hayvonot olami va inson qomati aks yetgan kompozisiyalar ishlash uchun o'quvchilar turli hajmlarda qutichalar tayyorlaydi. Aniq o'lchamga asosan kompozisiya asoslari qonun– qoidalariga rioya qilgan holda turli yeskizlar ishlaydilar. Kompozisiya yeskizlarini ishlashdan awal o'quvchi to'rt bosqichdan iborat materiallar to'playdi. Bunday ashyolarning ko'pligi kompozisiya yeskizining yechimini tez topishga yordam beradi.

Turli qush, parrandalar tasvirlarini qalam va suv bo'yoqda ishlash. Tabiat muzeyiga yoki hayvonot bog'iga borib turli parrandalar tovu, laylak, turna, qirg'ovul, kaklik, burgut, kalxat, lochin, zag'izg'on, kabutar, qaldirg'och va boshqa qushlarning qoralama va rangtasvirini, qalam, pastel, sangina, sous, ko'mir qalamda qog'ozlarga ishlanadi. Qog'oz buyuk kashfiyotlardan biri bo'lib, u asosiy yozuv ashyosi hisoblanadi. U kashf qilinguncha insonlar tosh, sopol, teri, daraxt po'stloqlari, pergament, yosh jonivorlarning ishlov berilgan terisi, taxta va suyakdan foydalanishgan. Ular og'ir, qo'pol, uzoq saqlash imkoniyati bo'lmaganligi, hasharotlarning kemirishi sababli yaroqsiz holga kelganligi uchun bir qancha noqulayliklar tug'dirardi. Qog'oz birinchi marta Sharq davlatlaridan Xitoyda kashf qilingan. U o'zining yengilligi, ishlatish, yozish, tasvir chizish uchun qulayligi, uzoq muddatga saqlash imkoniyatlari mavjudligi bilan ajralib turadi. Uning xom ashyosi asosan daraxt mahsulotlari va latta matolardan iborat. VIII asrda Samarqandda, keyinchalik yesa Bog'dodda Xorun ar-Rashid davrida yo'lga qo'yildi. X–XI asrlarda qog'oz ishlab chiqarish O'rta Sharqda keng tarqaldi. Xitoy, Hindiston, Suriya va Iroq mamlakatlarida qog'oz ishlash yaxshi o'rganilib, boshqa davlatlarga ham tarqala bordi. Markaziy Osiyo mamlakatlaridan Samarqand va Buxoroda qog'oz ishlash yaxshi yo'lga qo'yildi. Samarqand, Buxoro qog'ozlari sifatli hisoblangan.

Turunj haqida tushuncha berish. Turunj Markaziy Osiyoda o'ziga xos ko'rinishga va mazmunga yega bo'lgan qadimiy naqsh turidir. O'quvchilarga

turunj va uning turlari, geometrik gulli girihli va o'simliksimon turunjlar, turunj naqsh kompozitsiyasini tuzish va uni bo'yash haqida ma'lumotlar beriladi.

Bofta — o'simliksimon naqsh yelementi. Tanob aylanib o'tib, hosil qilgan jozibali shakl. Bofta xalq amaliy san'atining barcha turlarida ishlatiladi. Uning to'g'ri yegri va aralash chiziqli turlari bo'ladi.

Ganchxok — soz tuproq, qum va ganchni suv bilan aralashtirib hosil bulgan qorishma. Ganchxok tayyorlashda bir qism ganch, bir qism qum. bir qism soz tuproq yelanmasidan aralashtiriladi. Suv qo'shib yaxshilab xolvaytar holatiga kelguncha aralashtirib keyin devorga suvaladi.

Namoyon — forsha ko'rinish, manzara demakdir. Ruscha panno. Namoyon yeng mukammallashgan yetuk naqsh kompozitsiyasi. Namoyon voqyelikning umumlashgan tasviriy obrazini o'zida aks yetadi. Masalan, chamanzor, bogu-bustonlar, daryolar, gullar, barglar va boshqalarni aks yettiradi. Namoyonning chetlariga ko'pincha hoshiya namoyonning badiiy qilib kursatishda muhim rol o'ynaydi. Namoyon hyech yoqqa ulanmaydigan mustaqil kompozitsiyadir.

Targ'il — naqqoshlikda naqshning gul va barglarini o'zidagi hosil bo'lgan soyalarni har xil rangli chiziqlar yordamida pardoqlash. Naqqoshlikda targ'il pardoq berishning bir turi bo'lib, naqqoshlar tabiatdagi gul va barglarni o'zidagi soyalarni rangli chiziqlar yordamida tasvirlaydi. Tabiatdagi gullarning urug' va changlarini ham naqshni pardoqlashda chizib bo'yab tasvirlaydi.

Usta — biror hunarni yegallab, shu sohada malaka orttirgan shaxs. O'z hunarini yaxshi biladigan kishi.

Xalq amaliy san'ati to'garagi oldiga qo'yilgan tarbiya masalalarni hal qilishda mashg'ulotdan tashqari qilinadigan ishlar muhim rol o'ynaydi, chunki qatnashuvchilarning mashg'ulotlarda o'rgangan bilim va tajribalarini mustahkamlashda, dunyoqarashini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Mashg'ulotdan tashqari quyidagi ishlarni uyushtirish maqsadga muvofiqdir:

tasviriy san'at xalq amaliy bezak san'ati, tarix muzeylariga, ganch, yog'och, tosh o'ymakor ustalarning ishlayotgan joylariga, arxitektura yodgorliklariga hamda qo'shni to'garakka yekskursiya qilish;

O'zbekistondagi xalq amaliy bezak san'at" ustalari, san'ashunos olimlar va boshqalar bilan uchrashuvlar o'tkazish;

qatnashuvchilarning ishlaridan ko'rgazmalar tashkil yetish.

«YOSH ustalar» nomli devoriy gazetalarni muntazam chiqarib turish.

–«Mohir qo'llar», «Bizning ustalar», «Go'zallik soxibkorlari», «Mashhur o'ymakor ustalar» temalarida stendlar tashkil yetish;

–mashhur ustalarning ishlaridan va qatnashuvchilarning ishlaridan fotoal'bomlar tayyorlash;

–yosh o'ymakor ustalarning hayoti va ijodiga bagishlab ijodiy jurnallar tayyorlash;

qatnashuvchilar o'rtasida konkurslar o'tkazish; viktorinalar tashkil yetish; – mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda xalq amaliy bezak san'ati, arxitektura yodgorliklari va boshqalarga oid diafil'mlar va kinofil'mlar ko'rsatish.

Arxitektura, muzey yoki ganchkorlar, yog'och o'ymakorlar, misgarlar ish obektiga borish, ustalarning ishlaridan naqsh namunalaridan nusxa–lar olish.

Xalq amaliy bezak san'ati ustalarining naqsh kompozitsiyalari va o'yma ishlaridan fotonamunalar va ko'rgazmalar tashkil yetish; olimpiadalar o'tkazish;

ustalarning ishlaridan fotonamunalar saqlash uchun alohida papkachalar tashkil yetish;

–bu ishlar to'garakning mahalliy sharoitiga moslab, to'garak dasturiga asoslanib, tuziladi, raxbarning ish rejasi asosida olib boriladi.

Xalq amaliy bezak san'ati tugragi belgilagan dastur asosida to'garak qatnashuvchilari quyidagi talablarni hayotda tatbiq yetishi lozim:

- 1) o'zbek xalq amaliy bezak san'atining hayotdagi roli va uning ahamiyati;
- 2) xalq amaliy bezak san'atida ishlatiladigan materiallarning hammasida ishlay olish;
- 3) har xil asboblarda yerkin ishlay olish;

- 4) naqsh turlari va ularning yelementlarini chiza bilishi;
- 5) o'simliksimon, geometrik, ramziy va boshqa naqsh turlarini tuza bilish;
- 6) bu naqshlarni xalq amaliy san'ati turlarida qo'llay bilish;
- 7) xalq amaliy bezak san'ati buyumlarini yasay olish;
- 8) ish o'rnini toza tutish, texnika xavfsizligi, yong'in xavfsizligi va gigiyena qoidalarini bilish;
- 9) ish vaqtidan unumli foydalanish;
- 10) ish o'rnini va ishning yeng ilg'or metodlarini tashkil yetishni bila olishi;
- 11) murakkab bo'lmagan xalq amaliy bezak san'ati asarlarini o'qiy olish va ularni tahlil qila olishlari kerakligi va boshqalar.

Bu to'garak mashgulot dasturini to'liq o'zlashtirgan har bir qatnashuvchi turli joylarda klub, madaniyat uyi qoshlarida xalq amaliy san'ati bo'yicha o'qituvchilar, to'garak rahbari sifatida ishlashlari mumkin.

O'zbek xalqi o'zining qadimiy va boy madaniyati bilan butun dunyoga mashhurdir. O'zbekistonning qadimiy yodgorliklari va tuproq osti qismi ulkan tarixiy muzeydir. Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Termiz va boshqa shaharlardagi har bir arxitektura yodgorligi bir buyuk asar, nodir qo'lyozmalar, xalq amaliy san'ati namunalari bir vaqtlar o'zbek xalqining madaniyati naqadar yuksak bo'lganligidan dalolat beradi, chunonchi, ota-bobolarimiz qurgan binolar, me'morchilik bezaklari, ularning rang-barangligi, geometrik va o'simliksimon naqshlar ularning kompozision tasviri zavq olishga, tarbiyalanishga, ular orqali o'z orzu umidlarini, muhabbatlarini xalqqa isxor yetishga chorlaydi. Asrlar davomida orttirgan madaniy boyligimiz, xalq amaliy san'atining ayrim turlari, ularning o'ziga xos tomonlari, haqiqiy o'zbekcha nomlari ishlash texnologiyasi va ularni yaratgan ustalarimizning nomlari asta-sekin unutilib ketish arafasida. Shuning uchun xalqimizning asrlar bo'yi qilgan ijodiy mehnati natijasida yaratilgan tarixiy yodgorliklar va boshqa amaliy san'atini ko'z qorachigidek saqlash, qadirlash va ulardan foydalanish hozirgi davrimizning yeng muhim vazifalaridan biridir.

Madaniy meros va yuksak badiiylilik milliy an'anani rivojlantirishga undan foydalanish, undagi ijodiy amaliyot uslublarini joriy yetish, tabiiy material bilan ishlash, kishilarda ayniqsa, yoshlarda qunt chidam, qat'iyat, xalq amaliy san'atining qiziqarli o'ziga xos turlariga daxldor yetish maqsadga muvofiqdir.

Klub muassasalar qoshida o'zbek xalq amaliy bezak san'ati to'garaklarini tashkil yetish, kishilarni, ayniqsa, to'garak qatnashuvchilarini siyosiy–goyaviy va yestetik ruhda tarbiyalashda, go'zallikni seza bilishga, san'at asarlarini o'rganishga, ulardan bahra olishga, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik qobiliyatlarini oshirishga, amaliy san'atga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish, kasb tanlash, ko'nikma va dunyoqarashni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shunday yekan o'zbek xalq amaliy bezak san'ati va uning turlari bo'lmish ganchkorlik zargarlik, kulolchilik, misgarlik, yog'och o'ymakorligi va boshqa to'garaklarda to'garak rahbar» barcha imkoniyatlardan samarali foydalanish tarbiyanin hamma tarkibiy qismlarini kompleks amalga oshirishga yerishishi kerak. O'zbek xalq amaliy san'ati to'garaklari mashg'ulotlarining samaradorligini oshirish uchun texnika vositalaridan foydalanib kinofil'mlar, diafil'mlar slaydalar, namoyish qilish, ilmiy asoslangan dasturlar tuzish, o'quv metodik ko'rgazmalar tayyorlash, yekskursiya, tanlovlar, viktorinalar o'tkazish, hozirgi zamon pedagogik–psixologiyasining ilg'or yutuqlariga suyangan holda mashg'ulotlar o'tkazish, o'quv moddiy bazasini mustahkamlash, mahalliy materiallardan foydalanish, ko'rgazmalar tashkil yetish, kabinetlarni zamonaviy jihozlash, ta'lim–tarbiya masalalarini muvaffaqiyatli hal yetish uchun didaktik prinsiplar, ya'ni ta'limning tarbiyalovchi prinsipi, ilmiylik prinsipi, muntazamlik prinsipi va ketma–ketlik, onglilik–aktivlik, ko'rgazmalilik, o'qitishning qatnashuvchilar kuchiga yoshiga mosligi va boshqa prinsiplarga rioya qilish alohida ahamiyat kasb yetadi.

O'zbek xalq amaliy bezak san'ati san'at, ham hunar. U asrlar mobaynida ota bobolarimiz tomonidan ko'z qorachigidek asrab avaylab kelingan xalq amaliy bezak san'at! durdonasidir. Tarixda va ayni kunlarga bizda saqlab kelinayotgan bu amaliy san'at turlar! kelgusida yanada qadrlanadi, ardoqlanadi. Zers o'yib,

chizib, tirnab, bo'yab ishlangan takrorlanmas naqshlar inson idrokining, odam his tuygularining ifodasidir. Balgoli yog'och suyak, qora loy ganch va boshqalarga ijro yetilgan hayot qo'shig'idir. Hayot qo'shig'i yesa zamonlardan–zamonlarga baralla yangrayveradi.

Mo'yqalam. Nozik chiziqlar chizish, Irichik hajmdagi ranglarni bo'yash uchun rassomga mo'yqalam kerak bo'ladi. Miniatyura ustalari mo'yqalamlarni o'zlari tayyorlashgan. Ular ikki oylik mushuk bolasining orqa bosh qismidagi mo'ydan kesib olib, uni issiq suvda yog'idan xalos qilishgan. Tutam yunglami taxta ustida donalab terishib, yeng uzun mo'y o'rtasiga qo'yilib, qolganlari ikki yon tomonga terilgan. So'ng ipak ip Man bog'langan va oldindan tayyorlangan kaptar, xo'roz yoki g'oz patining ichiga joylashtirishgan. Pat ikki tomondan kesilgan g'ovak trubka holida 3x4 sm atrofida olingan. G'ovak pat qalamchaning ikkinchi tomoniga behi, tol daraxti novdasidan yog'och ushlagich yasab joylashtirilgan.

2 - mashq. Hayvonot olami tasvirlangan qoralama va tasvirlarini suv bo'yoqlarda ishlash. Hayvonot olami, ot, tuya, sher, yolbars, qoplon, bo'ri, tulki, it, kiyik, qo'y, yechki va inson qomatlari tasvirlangan qoralama va rangtasvirlarini suv bo'yoqlarda ishlanadi. Suv bo'yoq (akvarel) yeng qadimgi bo'yoqlardan biri bo'lib, ma'nosi «rang va suv» dir. Suv bo'yoqlar suvda tez va yaxshi yerishi, mo'yqalamga yaxshi yopishishi, qog'oz, oq karton kabi sathlarni tekis bo'yashi, dog' hosil qilmasligi, qog'oz sathidan yengil yuvilishi, surkalmasligi va yorilmasligi lozim. O'ziga xoslik tomoni qog'oz sathida tiniq shaffof tovlanadi. Bu dars jarayonidan maqsad o'quvchi va talabalar hayvonlarning turli harakatlarini ko'zatish va plastik anatomiyasi, xarakterini o'rganish, ularda hayvonot dunyosiga nisbatan mehr uyg'otish, yestetik zavq olish, ko'zatuvchanlik qobiliyatini rivojlantirish.

3 - mashq. Inson qomati aks yetgan qoralama tasvirini ishlash. Inson qomati aks yetgan qoralama tasviri ishlanadi. To'plangan unsurlar asosida qoralamalar tasvirini Miniatyura kompozitsiyasi loyihalarida ishlatish uphun stilizasiyalashtiriladi.

Stilizasiya – muqallid narsalarning shakl va tuzilishini soddalashtirish yoki murakkablashtirish. Miniatyura kompozitsiyalaridagi qoralama tasvirlarni ramziylashtirilishda chiziqlar muhim ahamiyatga ega. Chiziq rassomning amalda yeng ko'p qo'llaydigan badiiy tilidir. Uning yordamida shakl va tekislik chegaralari aniqlanadi. Chiziq tasvir yetilayotgan shaklni atrof–muhitdan ajratib ko'rsatuvchi chegaradir. U shakl chegarasini aniqlash bilan birga, rassomning ichki hissiyoti va hayajoniga ta'sir yetadi. Chiziqqa tasviriyl san'atda ko'plab tavsiflar berilishi shundandir. U yengil va sehirli, turg'un va intiluvchan, iiq va shiddatlidir. Tarixdan ko'p rassomlar chiziqni his qilish qobiliyatiga ega bo'lib, bizga san'atda ulkan badiiy meros qoldirgan. Chizikli yo'l bilan tasviriylash va aniqlashtirish ijodning o'ziga xos uslubi hisoblanadi. Rassom ixtiyoriyl san'at asari, shuningdek, kompozitsiya yaratishda turli chiziqlardan foydalanadi. Bu – to'g'ri gorizontal, to'g'ri vertikal, yegri chiziqlar, qiyshiq, siniq, aralash, parallel va kesishuvchan chiziqlardir.

Siluyet shaklning tekislikdagi soyasidir. Siluyetning muhim tavsifi uning geometrik shaklidadir. Shunday qilib, barcha ustma–ust tushgan bezaklar, qismlarda aniq bo'limda, ko'z bilan chamalab, uning taxminan u yoki bu geometrik shaklga tegishli yekanligini ko'rishimiz mumkin. Siluyet inson qomati shaklning asosini belgilab, uning form– bir davrga tegishlilikini ko'rsatadi. Qadimgi miniatyuradagi tasvirlar bizni siluyetlarning ko'plab turli xilma–xilliklari bilan tanishtiradi. Nazarimizda, siluyeti xuddi sodda geometrik shaklga intilayotgandek. Bundan kelib chiqib, uchta geometrik shaklni ajratib olamiz: to'g'ri burchakli to'rtburchak, uchburchak, trapesiyali va ovalli shu uch shaklni o'zak shakl desak adashmaymiz. Mana shularning hammasida ham xalq amaliyl san'ati mujassamligini ko'ramiz.

2.2. Naqqoshlik mashg'ulotlarini tashkil yetish metodikasi

Oddiy naqsh namunalarini qalamda va rangda ishlashdan oldin o'quvchilarni naqqoshlikda ishlatiladigan asbob–uskunalar va xom ashyolar bilan

tanishtiriladi. Ustaxonalarni tashkil yetish, jihozlash, ish qurollari, qadimiy va zamonaviy ashyolar bilan ishlash uslubi haqida tushunchalar beriladi. Qog'oz turlari, vatman, yarim vatman, qizil, ko'k va oq o'chirg'ichlar, qalam turlari, chizg'ichlar, pargor va mo'yqalamlar, bo'yoqlar, politra, ish korjomasi va boshqalar bilan tanishtiriladi. Qalamni to'g'ri ochish va katak daftarda har xil qalinlikda to'g'ri chiziqlar chizish mashqlari bajariladi. O'simliksimon va ramziy naqsh belgilarini chizish geometriyasi, naqsh va uning turlari haqida tushunchalar beriladi. Naqsh belgilarini tabiatdan qayta ishlab olish va kompozitsiyalar hosil qilish, naqsh kompozitsiyasida kompanovka, simmetriya va assimetriya, ritm, stilizasiya, shakllarni teng qismlarga bo'lish, dinamika haqida o'quvchilarga to'liq tushunchalar beriladi. Har xil chiziqlarni ko'z bilan chamalab teng bo'laklarga bo'lishni va ularni chizishni o'rganish yo'llari tushuntiriladi. O'simliksimon naqsh belgilari barglar, gullar, g'uncha, marg'ula, tanob, shukufta, shuningdek, ramziy naqsh belgilari va boshqalarni chizishni mashq qilishadi.

Oddiy naqsh namunalarini qalamda chizish. Kompozitsiya asoslari va dastlabki tushunchasini to'liq o'zlashtirgan o'quvchi yendi oddiy naqsh namunalarini hosil qilish geometriyasi va ularni chizish qonun-qoidalari bilan tanishadi. Oddiy naqsh namunalari quyidagi bosqichda qalamda bajariladi. 1–mashq. Bodom gul (1–gul), 2–mashq. Yak raftor (2–gul), 3–mashq. Bargli raftor islimi (3–gul), 4–mashq. Bargli islimi (4–gul), 5–mashq. Aylana shukuftli islimi (5–gul), 6–mashq. Mehrob islimi (6–gul), 7–mashq. Islimi bofta (7–gul), 8–mashq. Qo'sh mehrobli islimi (8–gul), 9–mashq. Patnisgul islimi (9–gul), 10–mashq. Islimi shukufta (10–gul). Oddiy naqsh namunalarini katak daftarda qalamda chizish mashq qilingandan so'ng albomga chiziladi.

Shakllarni teng qismlarga bo'lish. Shakllarni teng qismlarga bo'lish xuddi markaz topish kabi katta ahamiyatga yegadir. Chunki shakllar to'g'ri qilib teng qismlarga bo'linsa, kompozitsiyadagi simmetriya, ritm buzilmay shakl nafis bir tekis harakatda chiroyli chiqadi. Bundan tashqari chizilayotgan naqsh yoki

shaklning bir qismi chizilib, qolgan qismiga yesa nusxa ko'chirish orqali chiziladi.

Kompozisiyada marom (ritm). Marom tartibi umumiy yoki shaklning qurilishi boshqa munosabatlardan ham tarkib topishi mumkin. (Nyuns, kontrast) oddiy va irrasional, shuningdek mutanosib munosabatlar belgilari, aniqroq qilib aytganda marom, shakl va ular oralig'ining birin–ketin chiziqli joylashuvi o'rnida yuzaga keladi. Buyumlarning umumiylikda jo'ngina maromlik joylashuvining oddiy ko'rinishi o'lchamda tartibdir. Shakllar qurilishining maromiy tartibi qismlarning tengligini ifoda qiladi (yoki ularning tashqi jihat hususiyatlari yoki joylashuv mutanosibli). Masalan, dumaloq yoki uchburchak yuzalarning hajmi tomonlari bir–biriga o'xshaydi va dumaloq shar markazidan bir xil masofada joylashtirilgan, uchburchakda yesa qurilishiga binoan amalga oshirilgan. Marom munosabat o'rnida yuzaga kelib, birinchidan, maromli qatorlarning turli ko'rinishlarida shaklning jamlanish umumiyliги buyumlarning bir qismidan tarkib topib, ikkinchidan, shaklning maromli qurilishining turli ko'rinishlarida buyumning butunligi yoki bir bo'lagi, shaklni tashkil qiluvchi qismlardan tarkib topishi tartibini tashkil yetadi. Birinchi yo'nalishda mustaqil ko'rinishga yega buyumlarning nogahon bog'liqligini ilg'aymiz, ikkinchi yo'nalishda hajm va joylashish o'rni jihatidagi qismlarining o'zgarishini unchalik bilinmaydigan, sezilmaydigan to'g'riburchak tomonlaridan bilish mumkin. Sodda qilib aytganda, ritm – naqsh belgilarini ma'lum masofada bir tekis takrorlanib kelishi bo'lib, naqshdagi harakatlarning uzluksiz ko'rinishini ta'minlaydi.

Mutanosiblik–proporsiya. Kompozisiyalar tuzishda keng atroflilik va mutanosiblik uslublarining qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb yetadi. Ularni yagona va yaxlitlikka jamlash belgilar muqobilligi (tomon, balandlik) bilan bog'liq bo'ladi. Belgilar jussasi va shaklning mutanosibliги jismning sifat tomonlari, uning qimmatini belgilovchi vazifalarini ifodalashi mumkin. Masalan, qog'ozning hajmi va mutanosibliги (30x20 sm) talabalarga monand, yeng muhim tanlov natijasida shakllangan. Birinchidan, bunday hajmdagi varaq

aniq ko'rinish maydonidadir. Ikkinchidan, unda shunday matn hajmi joylashadiki, u yozishmalarning odatiy tus olgan shakllarini jamlashga mo'ljallangan. Uchinchidan, qog'ozning yuqoriga qaratilgan qismi mashinkalashning davomiyligiga mos keladi. Bundan tashqari qog'ozning tuzilishi o'qish va olib qo'yish uchun qulay va papka–portfellarda tashishga moslashtirilgan. Aytish mumkinki, uning hajm mutanosibligi yaxshi o'ylab topilgan bo'lib, unga o'rganib qolganmiz. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, asbob yoki mahsulot vazifasi ma'lum bir matematik munosabatlarda ko'rinadi, u mutanosib qurilmada aks yetib, ma'lum bir yestetik ta'sir vositasiga yegadir. Shuning uchun mutanosiblik shakllarini uning mazmunidan ajratish mumkin yemas (jism yoki narsalarning o'zaro belgisi). Buyumning biror o'lchami – umum tizimining tarkibiy qismi yoki monandligini shakllanish shartlariga binoan yuzaga keladi hamda turlicha sodda rasional va mutanosib munosabatlarni qamraydi. Mutanosiblikni solishtirish chog'ida ko'zimizda o'z nigohiy harakati bilan uch o'qli ulchamni ilg'aydi. Solishtirishning bu ko'rinishida buyum qismining faqat shakl va ulug'vorligini ilg'amay, ularning matematik bog'liqligini, moddalarning vaqtli farqi aniqlanadi. Ko'p qismli shakllarning mutanosib qurilish tarkibini o'zlashtirar yekanmiz, ko'zimiz bir vaqtning o'zida shakllar turlichaligini, ma'lum birgalikda ularning joylashishi, fanlarning kelib chiqish tizimi, farqni vaqt jihatidan belgilarining davomiyligini, uning birgalikda joylashish aniqligini, narsa hususiyatidan chiqishini o'rganadi. Shunga binoan inson narsa–buyumlarning ishlatilish farqini anglaydi. Buyumlarning murakkablik shakllariga ko'ra ularning ko'rinishini baholash chog'ida har tomonlama xulosalanib yoki ayrim hususiyatlariga ko'ra foydalaniladi. Oddiy shakllarning soyasini anglaganimizda, masalan, to'g'ri to'rtburchakli, to'g'ri burchakli yoki ularga yaqinroq shakl solishtirilganda, ularning farqlari, munosabati quyidagicha yuzaga keladi:

- shakllarning chegaralari uning umum ko'rinish mezonini munosabatini yeslash hisobiga qabul qilinadi (farq);

- shakl hajmi boshqa belgiga yoki qog'ozga munosabatiga ye'tiboran o'rnatiladi (sodda munosabat);

- tomonlarning munosabati o'rnatiladi, ularning kattaligi va rivojlanishi ikki o'qlariga ko'ra o'lchanadi;

- bir xil yoki yaqin belgilar topiladi, tomonlar yoki qirralar;

Buyumning hamma tomonlarining baravarlik munosabatiga ko'ra belgilanib, shular natijasida yuzaga kelgan chizma tasvir konturga ko'ra (metr yoki marom).

Tabiiyki, qabul qilish jarayoni shu jihatlarga ko'ra davomiyligi bilan qaror topadi. Ammo birinchi darajada buyum o'rganilib, rasmning soyasi yaqqol ko'zga tashlanadigan tomonlar bo'rtib, turli munosabatlariga ko'ra shakllanadi. Bu murakkabroq shakllarga ham farqlanadi. Masalan, turarjoy binosini ajratadigan umumsoya (tomonlari munosabati) va oynaning turi misoliga olish mumkin.

Nyuans. Solishtirilayotgan jismlarning katta–kichikligi, chizmatasviri, rangi, hajmi, joylashishi, tashqi ko'rinishidagi yaqin hususiyatlar nyuans deyiladi. Bu bir xil turdagi jismlar va qismlar orasidagi nozik belgilarni ajratish imkonini beradi. Nyuans ko'zning bir qator takroriy harakatidan iborat ancha murakkab solishtirish jarayonidir. Jismning nyuans hususiyati buyumning katta–kichikligi, shakli, sathi va tavsifi tizimidagi arziyas farq, ko'zning takror harakatidan sinchkovlik bilan umumlikda seziladi. Ranglardagi nyuans olinadigan sinchkovlik ta'siri ostida arziyas farqni sezishda bilinadi. Shakldagi nyuansni sezish, shu jumladan, uning hajmiy va fazoviy qurilish nyuans ham yeng murakkab hisoblanadi.

O'quvchilar bo'yoq va uning turlari bilan tanishtiriladi. Qadimda bo'yoq tayyorlash usuli pigment, akvarel, guash, mineral bo'yoq va uning turlari, moy bo'yoqlarni ishlatish va uning o'ziga xos hususiyatlari haqida ma'lumotlar beriladi. Mo'yqalam turlari va ularni o'z o'rnida ishlata olish yo'llari, mola, obi va siyohqalamlarni o'z o'rnida ishlatish o'rgatiladi. Guashda oddiy mashqlar bajariladi. Ranglarni turlash, yuzani tekis bo'yashni yaxshilab o'rganish,

albomda bir qancha mashqlar bajarish, oddiy naqsh namunalarini bo'yash usullari, ranglarning uyg'unligi koloriti haqida tushuncha beriladi. Ranglarning har bir naqsh kompozitsiyasiga moslab tanlanishi, naqqoshlar Yoqubjon Raufov, Abdulla Boltayev, Olimjon Qosimov, Jalil Hakimov, Saidmahmud Norqo'ziyev, Anvar Ilhomovlar ijodi va naqshlarining bo'yalishi bilan tanishtiriladi. Naqshlarning yaxshi bo'yalmaslik sabablari hamda naqsh namunalarini bo'yash bosqichlari bilan to'liq tanishtiriladi. Naqsh zaminini bo'yash, uning bandlari va gullarini rang berib turlash, barg va gullariga targ'il berish, agar naqshda oq band bo'lsa, ularni tortish, naqshning obisini tortish bilan tanishtiriladi. Avvalgi mashg'ulotlarda chizgan naqshlar namunalari zamini ranglarda ishlanadi. Bajarilgan ishlar yakunlanadi, o'quvchilarga kelgusida mustaqil ishlashga maslahatlar va ko'rsatmalar beriladi.

Oddiy naqsh namunalarining band, gullarini bo'yash va ularga targ'il berish. O'quvchilarga oddiy naqsh namunalarini band va gullariga moslab rang tayyorlash va ularni bo'yash o'rgatiladi. Ranglarni uyg'un va monand chiqishi ko'zatib boriladi. Oddiy naqsh namunalari bodom guli, yak raftor, bargli raftor islimi, bargli islimi, aylana shukufat islimi, mehrob islimi, islimi bofta, qo'sh mehrobli islimi, patnisgul islimi va shkiptli islimilarning band va gullarini bo'yash o'rgatiladi. Targ'il pardoz berishning bir turi yekani haqida tushunchalar beriladi. Targ'il gul va barglarning o'zidagi soyasi, targ'il berishdagi dastlabki mashqlar, turlari va o'ziga xos tomonlari o'rgatiladi. Albom varag'ida targ'il berishning boshlang'ich, sodda mashqlari, oddiy naqsh namunalarining gullariga, barglariga va g'unchalariga targ'il berish amaliy mashqlarda bajariladi.

Oddiy naqsh namunalarining oq bandlar va obisini tortish. Naqsh namunalarining oq bandlari va uning turlari, oq bandlar tortishning o'ziga xos qonun-qoidalari bilan tanishish, oddiy naqsh namunalarining oq bandlarini tortish bosqichlarini ko'zatib borish, oddiy naqsh namunalariga oq band tortish, obi va uning turlari, obi tortishning qonun-qoidalari o'rganiladi. Obi uchun

koller tayyorlash, ustalarning ishlarini tahlil qilish, oddiy naqsh namunalarining obisini tortishni mashq qilish.

Aylana va boshqa ko'p burchak yuzalariga naqsh yoki miniatyura kompozitsiyasi ishlash jarayonida ham amaliy san'atning muhim qirralari joylashgan. Kompozitsiya so'zi lotincha «composito» so'zidan olingan bo'lib, tuzish, birlashtirish, bog'lash, turli xil belgilarni bir butun yaxlitlikka birlashtirish va biron–bir g'oyani madh yetish ma'nosini bildiradi. Kompozitsiya – san'atning barcha yo'nalishida qo'llaniladi. Dizayn va amaliy san'atda u loyihalash deb ataladi. Musavvir turli shakl va manzaralarni bir–biriga nisbatan solishtirib va joylashtirib nafis san'at asarini yaratadi. Kompozitsiyalar yaratish uchun, albatta, kompanovkaga, simmetriya va assimetriyaga, ritm, stilizasiya, markazni topish, shakllarni to'g'ri, teng taqsimlashga, yorug'liklarni nur va soyaga, rangshunoslik qonun va qoidasiga to'liq rioya qilish lozim. Tabiatda va hayotimizda kompozitsiyaning roli, naqsh va miniatyurada davriy takrorlanish, bezakning dinamikligi, simmetrikligi va markazini topish, naqshlarning yerkinligi, nafisligi, ranglar uyg'unligi kabilarni aniqlash haqida o'quvchilarga tushunchalar beriladi. Kompozitsiya tuzish metodikasr, kompozitsiyada naqsh belgilaridan foydalanish yo'llari, tabiat va voqyelikni kompozitsiyada aks yettirish, kompozitsiyaga nom qo'yish, me'moriy yodgorliklarga borish va u yerda ustalarning naqsh kompozitsiyasini tahlil qilish kabi bosqichlarni amalda bajaradilar. Oddiy naqsh namunalarini qalamda chizish va ranglarda bo'yash vazifalarini to'liq bajargan o'quvchi, keyingi bosqichdagi vazifa aylana va boshqa ko'p burchak yuzalariga naqsh yoki miniatyuralar kompozitsiyalarini ishlash bosqichiga o'tadi. O'quvchi oldingi darslarda olgan bilimi asosida, oddiy naqsh namunalari bodom guli, islimi yak raftor, bargli raftor islimi, bargli islimi, aylana shukufta islimi, mehrob islimi, islimi bofta, qo'sh mehrobli islimi, islimi patnisgul, islimi shukufta naqsh namunalari ishtirokida mustaqil yangi kompozitsiya chizadilar. Uch, to'rt va ko'p burchak, aylana shakliga qonun–qoidalariga asosan o'quvchilar oddiy va murakkab naqsh kompozitsiya

loyihalarini yaratibgina qolmay, sodda ko'rinishdagi miniatyura kompozitsiyalarini ham yaratadilar.

Teng yonli uchburchak. Teng tomonli uchburchakni chizish uchun dastlab pargor yordamida doira shaklini chizib, uni markaziy nuqtasidan o'q chiziq o'tkazilib, doira shakli uchga bo'linib nuqtalari bir–biriga tutashtiriladi va markazi aniqlanadi. Markazdan uchburchak tomonlarining o'rta nuqtasi topilib burchak nuqtasi bilan tutashtiriladi va uch bo'lakka bo'linadi. Hosil bo'lgan maydonchaga islimiy naqsh yoki miniatyura kompozitsiyasi chiziladi. Kompozitsiya o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqqa mos bo'lishi kerak. Uchburchak ichidagi naqsh, assimetrik, simmetrik naqshlarni chizish bosqichlarini o'rganish, naqshdagi tabiiylik, ularga o'ziga xos ranglar berishni o'rganish, o'simliksimon naqsh belgilaridan foydalanib, uchburchak naqsh kompozitsiyalarini tuzish va ularni bo'yash kabi amallar bajariladi.

To'rtburchak ichidagi naqsh kompozitsiyasini tuzish va bo'yash. Yeng avvalo o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriq asosida amalga oshiriladi. Teng tomonli to'rtburchakning ramziy ma'nosi dunyoning to'rt tomoni, osmon, saroy, quyosh, farzand, abadiy ishonch, xotijamlik, mustahkamlik ma'nosini bildiradi. To'rtburchak shakllari hajmidan kelib chiqib doira chiziladi va uni to'rt nuqtaga bo'lib bir–biri bilan nuqtalari tutashtiriladi. Tutashtirilish natijasida markaziy nuqtasi belgilanib to'rt bo'lakka bo'linadi. Har bir bo'lagiga band kurtak, g'uncha, gul, bofta, shkufta, banob va boshqa bo'laklardan foydalanib oddiy va murakkab ko'rinishda kompozitsiyalar chiziladi. Teng yonli to'rtburchak tomonlarining hajmi 5–10 sm bo'lishi hamda teng yonli kvadrat ichiga naqsh chizishda kvadrat o'q chiziqlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. To'rtburchak ichiga naqsh chizishda berilgan hajmning burchaklarini topishda doira aylana shaklidan foydalaniladi. To'rtburchak yuzasiga moslab naqsh chiziladigan kompozitsiyalar va ularning turlari haqida umumiy tushuncha berish, uni tuzish qonun–qoidalari, naqsh belgilari yordamida to'rtburchak yuzasidagi naqsh kompozitsiyasini tuzish, ustalarning ishlarini tahlil qilish,

tuzilgan kompozisiyani bo'yash va unga pardozi berish o'rgatiladi. To'rtburchak ichida naqsh kompozisiyasini tuzish va bo'yashni mashq qiladilar.

Aylana ichida naqsh tuzish va bo'yash. O'quvchilarga aylana ichiga naqsh kompozisiyalar chizish va ularning turlari haqida ma'lumotlar beriladi. Unga moslab naqsh kompozisiyasini chizish yo'li va ularning o'ziga moslab bo'yash usuli o'rgatiladi.

Geometrik naqshlar. Gulli girih. Girih va uning tarixi, girih kompozisiya ustalari haqida ma'lumotlar beriladi. Girih turlari, belgilari, to'rtburchaklar, uchburchaklar, ko'pburchaklar va yegri chiziqlar, girih belgilaridan kompozisiyalar tuzish yo'llari, girih kompozisiyalarini ishlash va bo'yash yo'llari tushuntiriladi. Gulli girih va uning turlari, gulli girih tuzish bosqichlari, har xil kompozisiyalar tuzish va bo'yash, gulli girih kompozisiyalarini tuzish va ularni bo'yash bosqichlari o'quvchilarga o'rgatiladi.

Munabbat naqshi, turunj, namoyon va uning turlari. Munabbat to'rt tomonga takrorlanadigan naqshi va ularning turlari o'rganiladi. Naqqosh ustalarning munabbat naqshlari tahlil qilinadi. Geometrik, gulli girih va o'simliksimon munabbat naqshlar chizish o'rgatiladi. Munabbat naqsh tuzish bosqichlari va ularni bo'yash yo'llarini o'rganish, munabbat naqsh kompozisiyalari tuzish va ularni bo'yash haqida o'quvchilarga tushunchalar beriladi.

Namoyon. Uning lug'aviy ma'nosi hamda kelib chiqish tarixi, namoyon turlari, o'simliksimon, gulli girihli, geometrik va boshqa namoyonlar, murakkab namoyon kompozisiyasini tuzish va uni bo'yashni o'rganish qoidalari o'rgatiladi. Muayyan amaliy san'atning har bir bosqichida axloq normalari ham bor. Ularni o'rgatish orqali o'quvchilarda axloqiylik, ya'ni xalqchilik, odoblilik, vatanparvarlik, insoniylik kabi tarbiyaviy tushunchalar shakllanadi.

2.3. Amaliy san'atda milliylik ramzlaridan foydalanib, o'quvchilarga axloqiy tarbiyani rivojlantirish.

Shuning uchun ham muhtaram yurtboshimiz I.A.Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q"-deb ta'kidlaganlar. Biz dars jarayonida milliylik ramzlaridan

samarali foydalanib, o'quvchilarga hunarmandchilik sirlarini o'rgatishning bir necha ko'rinishlarini keltirishimiz mumkin.

Xususan, hunarmandchiligimizning bir turi hisoblangan, millatimiz ramzi bo'lgan do'ppido'zlik san'ati qadimdan revojlani b kelgan. Bosh kiyimlar milliy libosimizning yeng qiziqarli bo'lagi hisoblanadi.

"Kiygich" deb nomlanadigan dumaloq qalpoq "bosh"ning asosi hisoblanadi. Uning old qismi kashtali "cheroz" bilan turli rangdagi ipak iplarda "iroq" chokda bezatilgan. Avvallari bu kashtalarda yarim ko'chmanchi urug'larga xos bo'lgan tamg'ani ko'rish mumkin bo'lgan.

Qashqadaryo vohasida XIX asrda badiiy madaniyat o'ziga xos tarzda shakllandi. Unda xalq san'atining o'ziga xos jixatlari aks yetdi. Viloyatning Qarshi va Shahrisabz singari yirik shaxarlari va ularga yaqin qishloqlarda misgarlik, kulolchilik, to'qimachilik, kashtado'zlik, gilam to'qish kabi hunarmandchilik turlari rivojlandi. Qashqadaryo metall idish-buyumlar ishlab chiqarish yeng rivojlangan joylardan biri hisoblanadi. Qarshi va Shahrisabzda tayyorlangan metall idish-buyumlar ko'p jixatdan bir-biriga o'xshash bo'lsa-da, ularda o'ziga xosliklar ham mavjud. Bu yerda ishlab chiqarilgan idish-buyumlar O'zbekistonning boshqa markazlaridagi shu tikishda qo'llanilgan. Ustalar matolarini o'ziga xos rang, o'ziga xos bezakda tayyorlashgan. Yenli to'g'ri chiziqlar ingichka hoshiyali chiziq bilan ajratilgan, romb shakli uchburchakli shakl bilan ketma-ket almashingan. Uchburchak tumor ko'rinishidagi shaklning pastki qismida tomchisimon uzun-uzun shokllar osilib turgan. Lola shakli solingan. Oddiy va pog'onasimon tutashgan romb shakllari gilamlarni bezatishda ham qo'llanilgan. Qashqadaryo adraslari bezaklarining ixcham, aniq va soddaligi bilan Fargona vodiysi va Buxoro adrasidan ajralib turadi. Ammo Samarqand gazlamalari Kashqadaryo adraslaridan bezaklari jihatidan jozibador.

Shahrisabz Qashqadaryo viloyatining kashtado'zlik rivojlangan yirik markazi hisoblanadi. Bu yerlik xotin-qizlar bek va amir saroyi uchun katta suzanalar, to'n, chopon, otlar ustiga yopinchiq tayyorlashgan. Shahrisabz suzanalarining

o'ziga xosligi shundaki, uning kompozitsiyasidagi katta aylana markaziga guldastalar joylashtirilgan. Guldastalar atrofi mayda gulli xoshiyalar bilan to'ldirilgan. Qarshida yesa do'ppilar sirti mayda chiziqlar bilan hoshiyalangan.

Qashqadaryoda, ayniqsa, an'anaviy gilamdo'zlik rivojlangan. Gilam to'qish bilan bu yerda, asosan, arablar shugullanishgan. Gilamlar o'zining yaxshi sifati bois bozorlarda xaridorgir bo'lgan. Bu yesa gilam to'kishga bo'lgan intilishni kuchaytirgan. Qarshidan 30 km uzoqlikdagi Qamashi, Xo'jaki, Denov qishloqdarida gilam to'qish rivojlangan. Bu yerda "arabi gilam" deb yuritiladigan pasiz gilamlar to'qilgan. Shuningdek, joynamoz, parda, to'rva, ko'p, xurjun, turli maishiy buyumlar uchun g'ilof, jildlar tayyorlangan. Bu buyumlarda ko'chmanchi chorvador xalqlarning o'ziga xos madaniyati aks yetgan. Gilam to'qishda keng galtakli dastgohdan, mayda maishiy uy-ro'zg'or buyumlarini to'qishda yesa tor galtakli dastgohdan foydalanilgan. Gilamlar jundan to'kilgan. Gilam va boshqa buyumlarning chekka hoshiyasi uchun ipak ip qo'llangan. 1870 yilgacha faqat tabiiy bo'yoqlardan foydalanilgan. Keyinchalik tabiiy bo'yoqlar o'rnini anilin bo'yoqlar yegallaydi. Bo'yoqlar bir-biridan aniq ajralib turadigan qizil, to'q sariq ko'k, yashil, oq, qora ranglardan iborat bo'lgan. Gilamlar to'qilishi va bezaklari jihatidan ham bir-biridan alohida ajralib turadi. Besh kashta yoki xurboylik (nakshga qo'shimcha ip qo'shish) usulida to'qilgan gilamlar bir-biridan farq qiladi. Arabi gilamlar bezaklari tishsimon, pog'onasimon, kvadrat, romb, uchburchak shakllardan iborat. Bezaklarga qo'shimcha sifatida turli ranglarda zanjirsimon kvadrat yoki romb shakllari qo'shilgan. Arabi gilamlari bilan o'zbek gilamlari to'qilishi, bezaklari (geometrik shakllar almashinishi) jihatidan muayyan umumiylikka yega. Bu ikki musulmon xalq an'analari yaqinligidan kelib chiqqan. Shuningdek, o'zbek va arab gilamlarining o'zaro farqlari ham bor. Arabi gilamlarda jonzoqlar ramzini ifodalovchi belgilar bezak sifatida ishlatilmaydi. Ko'chmanchi turkiy xalqlar madaniyatida yesa jonzoqlarni tasvirlash an'anasi qadimdan mavjud. Arabi gilamlarda oy, yulduz singari osmon jismlari tasviri ko'rsatilgan. Bu arablarning islomgacha osmon jismlariga ye'tiqod qilishgani bilan bogliq.

Arab gilamdo'zligida qizgilam alohida o'rin tutadi. Bu gilam har bir oilada muqaddas yodgorlik sifatida saqlangan. Ushbu gilam yosh oilani yomon ko'z, suqlardan asraydigan muqaddas ramzlar bilan bezatilgan. Jumladan, mazkur gilamchaga ikkita qushning uslublashtirilgan shakli tushirilgan. Bu ikki qush ramzida yer va xotin nazarda tutilgan bo'lib, ushbu ramz baxtli turmush va avlodlar davomiyligini bildiradi.

XX asr boshlaridagi ijtimoiy–siyosiy o'zgarishlar O'rta Osiyo hududidagi an'anaviy san'atning barcha turlariga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Qashqadaryoda hunarmandchilikning ko'pgina turlari mahsulotlarga talab yo'qligi, fabrikalarda tayyorlangan tovarlarning keng yoyilishi tufayli deyarli yo'qolib ketdi. Dastlab kandakorlar va tukuvchilar o'z ish faoliyatini to'xtatishga majbur bo'lishgan. Kashtado'zlik yesa qisman saqlangan. Qishloq xotin–qizlari jiyak, do'ppi tikish bilan shug'ullanishgan. Gilamdo'zlar ham ruzg'orbop gilamlar to'qish bilan chegaralanishgan. Arab va o'zbek gilamdo'zlari tomonidan to'qilgan arabi(qilami), gajari, okenli gilamlarining hajmi 10–12 kv.m gacha yetgan bo'lib, ular an'anaviy geometrik shakllar bilan bezatilgan. Hunarmandchilikning ayrim turlari yangi zamon talablariga moslashib, sanoat asosida ishlab chiqarish yo'liga o'tgan. Bundan tashqari misgarlik san'ati ham yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, ustalar mis va temir idishlarga turli xil naqsh yellimentlaridan tashkil topgan bezak ishlarini olib borganlar.

Zardo'zlik 1990–yildan keng tarqalgan badiiy hunarmandchilik turiga aylandi. Qadimgi ustalar avlodi vakili B. Jumayev samarali ish olib borayotgan Buxorodagi tarixiy zardo'zlik markazidan tashqari, O'zbekistonning deyarli barcha viloyat va tumanlarida zardo'zlik san'ati keng tarkaldi. Afsuski, Buxoro zarduzligining azaliy an'anasi ommaviy axborot vositalarida yuksak san'at namunasi sifatida o'ylamay targ'ib qilinayotgan soxta san'atga aylanib qolmoqda.

Ikkinchi bob buyicha xulosalar.

O'zbekiston xalqlarining tarixiy taraqqiyotida milliy qadriyatlari, ilm–fan, madaniyat durdonalari boy me'rosga yega. Bularni o'rganish va tahlil yetish g'oyat muhim masaladir. “Bugun bizning oldimizda shunday tarixiy imkoniyat paydo bo'ldiki”,– degan yedi Prezidentimiz I.A.Karimov: “Biz bosib o'tgan yo'limizni tanqidiy baholab, milliy davlatchiligimizni negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz tomirlariga qaytib, o'tmishdagi boy an'analarni yangi jamiyat qurilishiga tadbiq yetmog'imiz kerak” – deb ko'rsatadi. Mamlakatimiz Prezidenti I. Karimov Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o'n to'rtinchi sessiyadagi ma'ruzasida O'zbekistonning kelgusi asrga nimalarni olib o'tishi va nimalardan voz kechishi lozimligi haqida gapira turib, hayotimizning yaxshilash yo'llari, yangi ming yillikda qanday muammolarning yechimiga diqqat qilishimiz lozim? – degan masalalarga yechim topishga intiladi va buning uchun Respublika hayotiga, o'tmishiga nazar tashlab borishni tahlil qiladi.

Biz keltirib o'tgan amaliy san'atning turlari va uning tarbiyaviylik darajalari juda yuqori xisoblanadi. Amaliy san'atni o'qitish orkali axloqiy tarbiyani shakllantirish bolalarning qiziqishlari bilan ham amalga oshadi. Buning uchun asosan amaliy san'at bilan o'quvchilarni doimiy tanishtirib borish lozim. Sharqda doimiy udumlardan biri bo'lib kelgan ustoz va shogird an'anasi doimiy davom yetishini ham ta'minlaymiz. Darslar jarayonida amaliy san'atni o'qitish yoki darsdan tashqari mashgulotlarda tushuntirish masalasi tasviriy va amaliy san'atning muhim hususiyatlaridan biridir. Shuning uchun ham amaliy san'at darslarida o'quvchilarni axloqiy tarbiyalash bir qator qoidalarga asoslanadi. Xalq amaliy bezak san'ati to'garagi belgilagan dastur asosida to'garak qatnashuvchilari quyidagi talablarni hayotda tatbiq yetishi lozim:

- 1) o'zbek xalq amaliy bezak san'atining hayotdagi roli va uning ahamiyati;
- 2) xalq amaliy bezak san'atida ishlatiladigan materiallarning hammasida ishlay olish;

- 3) har xil asboblarda yerkin ishlay olish;
- 4) naqsh turlari va ularning yelementlarini chiza bilishi;
- 5) o'simliksimon, geometrik, ramziy va boshqa naqsh turlarini tuza bilish;
- 6) bu naqshlarni xalq amaliy san'ati turlarida qo'llay bilish;
- 7) xalq amaliy bezak san'ati buyumlarini yasay olish;
- 8) ish o'rnini toza tutish, texnika xavfsizligi, yong'in xavfsizligi va gigiyena qoidalarini bilish;
- 9) ish vaqtidan unumli foydalanish;
- 10) ish o'rnini va ishning yeng ilg'or metodlarini tashkil yetishni bila olishi;
- 11) murakkab bo'lmagan xalq amaliy bezak san'ati asarlarini o'qiy olish va ularni tahlil qila olishlari kerakligi va boshqalar. Bu to'garak mashg'ulot dasturini to'liq o'zlashtirgan har bir qatnashuvchi turli joylarda klub, madaniyat uyi qoshlarida xalq amaliy san'ati bo'yicha o'qituvchilar, to'garak rahbari sifatida ishlashlari mumkin.

Bundan tashqari o'quvchi – talabalarga noqqoshlik to'garaklariga qatnashishlariga zamin yaratib berishimiz zarur. Chun talaba yoki o'quvchi dars davomida olgan bilim va malakalarini sinab ko'rish imkoniyati tug'iladi, bundan tashqari u boshqa yod axloqan buzuvchi g'oyalardan yuqorida bo'lib tarbiyalanadi.

Naqsh orqali talabalarni axloqiy tarbiyalash samarali bo'ladi, chunki naqshning bejirimligi kishini o'ziga jalb qiladi.

3 bob. Amaliy san'atni o'rganish bilan axloqiy tarbiyani rivojlantirishda tajriba– sinov ishlarining borishi.

3.1 Amaliy san'atni o'zlashtirish bilan axloqiy tarbiyani rivojlantirishga oid tajriba–sinov ishlarini tashkil yetish.

Kasb–hunar ta'limidagi amaliy san'at darslarining o'quvchilarni imkoniyatlarini aniqlash uchun tajriba–sinov ishlarining maxsus dasturi va metodikasi ishlab chiqildi. Tadqiqot ishlari ana shu metodika asosida quyidagicha tashkil yetildi:

Tadqiqotning tajriba–sinov ishlari maqsadi: kasb–hunar, amaliy san'at darslari orqali o'quvchilarni milliy qadriyatlar hisoblangan axloqiy munosabatini tarbiyalashga oid ta'limiy ishlarni o'tkazish metodikasini ishlab chiqish va uni tajribada sinab ko'rish, samaradorlik darajasini aniqlashdir.

Tajriba–sinov ishlarida bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar:

- amaliy san'at ta'limi darslarining o'quvchilarni axloqiy tarbiyalanishini anglash, uni tushunishdagi imkoniyatlarini aniqlash;
- madaniyati, buyuk kishilari, tabiati, me'morchilik obidalarining, ananaviy ko'rinishlarini anglashdagi o'rnini belgilash;
- amaliy san'at asarlarining o'quvchi–yoshlarga milliylikni anglash, tajriba–sinov darslarida amaliy san'at asarlarini tanlab olish, tahlil qilishda milliy va g'oyaviy jihatdan axloqiylikka doir jihatlarni takomillashtirish metodikasi va sinov uchun tayyorlangan materiallarini amalda sinab ko'rish;
- amaliy san'at darslarini maqsadli ravishda takomillashtirib borishda o'qituvchi axloqiy tarbiyaga bo'lgan kasbiy mahoratining o'rnini belgilash.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish uchun tajriba–sinov maydoni sifatida Samarqand shahridagi qurilish va milliy hunarmandchilik kasb–hunar kolleji. Samarqand san'at kolleji, Samarqand shahar 1–son pedagogika kollejlari tanlandi. Shuningdek, tajriba–sinov ishlarida 50 dan ortiq o'quvchi, 6 nafar o'qituvchi, murabbiy va rahbarlar, ya'ni o'quvchi–yoshlarning ta'lim–tarbiya

ishiga mas'ul bo'lganlar bilan test, so'rovnoma, uchrashuv, suhbat va ko'zatuv ishlari olib borildi.

Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining axloqiy tushuncha va tasavvurlarni o'rganish darajalarini aniqlash bo'yicha

ANKETA-SAVOLNOMA

Hurmatli o'quvchilar! Ushbu savolnoma-anketa to'liq ilmiy maqsadlarda o'tkazilmoqda, shuning uchun javoblaringizni ochiq va to'liq belgilashlaringiz mumkin.

1. Axloqiy tarbiyalangan kishi deganda nimani tushunasiz!
2. Axloqiy tushuncha nima?
3. Axloqiy tarbiyalangan kishida qanday estetik did bo'ladi?
4. Axloqiy tarbiyaning kundalik hayotda, o'qishda, ishda namoyon bo'lishi, ko'rinishlari to'g'risida nimalar deya olasiz?
5. Axloqiy tarbiyalanganli haqida nimalar ayta olasiz?
6. Axloqiy faoliyat qanaqa ko'rinishlardan iborat bo'ladi?
7. Dizayn va dizaynerlik kasblari to'g'risida tushunchalaringizni yozing
8. Kasb-hunar kollejlarida axloqiy tarbiyalanishning manbalari nimalar deb o'ylaysiz?

1-ilova:

Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining axloqiy fazilatlarini shakllantirishi mumkin bo'lgan xalq amaliy san'ati turlarini bilishlarini aniqlash

SO'ROVNOMA-ANKETASI

Hurmatli o'quvchilar! Ushbu savolnoma-anketa to'liq ilmiy maqsadlarda o'tkazilmoqda, shuning uchun javoblaringizni ochiq va to'liq belgilashlaringiz mumkin.

1. Xalq amaliy san'ati nima?
2. Naqqoshlik nima va uni siz qayerlarda uchratgansiz?
3. Ganch o'ymakorligi nima va siz ularni qayerlarda uchratgansiz?
4. Yog'och o'ymakorligi nima va unda qanday buyumlar tayyorlanadi?

5. Metall o'ymakorligi nima va unda nimalar tayyorlanadi?
6. Kashtachilik nima va bu sohaning 5-6 ta nomdagi buyularini ta'riflang?
7. Zardo'zlik nima va bu sohada tayyorlanadigan 5-6 ta buyumni ta'riflang?
8. Me'morchilik nima?
9. Haykaltaroshlik nima va uning yo'nalishlarini ta'riflang?

Amaliy san'atda dizayn deganda nimani tushunasiz?

Bu kollejlardan 2 tadan guruh ajratib olindi va ularning «1» guruhi («2»), tajriba–sinov va «3», «4» guruhlarini nazorat sinfi hisoblandi. Tajriba–sinov sinflari darslarini biz taklif yetgan metodlar va ishlab chiqqan materiallar asosida olib borishdi. Nazorat sinflarida yesa o'qituvchilar o'zlarining an'anaviy rejalari asosida ish olib bordi.

Yuqoridagi maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun amaliy san'at darslarida amalga oshiriladigan Samarqand amaliy san'at maktablari mazmuni tanlab olindi. Tajriba–sinov ishlari metodikasida o'quvchilarni tarbiyalashga doir dars ishlanmalari, tajriba–sinov ishlarini o'tkazish yuzasidan metodik tavsiyalar, didaktik materiallar, bolalarning ijodiy ishlarini baholash mezonlari hamda anketa va so'rovnomalar tayyorlanib amalda sinab ko'rildi.

Tajriba–sinov ishlarida quyidagi metodik materiallar ishlab chiqilib, tajriba–sinovdan o'tkazildi.

Keltirilgan tajriba–sinov materiallari uchun amaliy san'at fani o'qituvchilari va o'quvchilarning amaliy san'atda axloqiy tarbiyasi masalalariga oid tushunchalari, o'z shahri madaniyatini, san'atini bilishi, tushunishi xususidagi bilimlari, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirish bilan axloq normalari asos qilib olindi.

Tajriba–sinov ishlarida tanlangan kollejlardagi amaliy san'at o'qituvchilarining ishlari, dars va darsdan tashqari tarbiyaviy mashg'ulotlarni o'tkazish tajribalari, matbuot materiallari, maqolalar, 1999-yil 16– avgustda chiqqan tasviriy san'at ta'limi DTS¹ lari, 2004 yilda yangilangan tasviriy san'at

¹ DTS - Davlat ta'lim standartlari.

ta'limi DTS lari va modernizasiya qilingan o'quv dasturlari, rejalari bo'yicha ham o'quvchilarning o'zlashtirishlari aniqlandi.

Tadqiqotni olib borish jarayonida ko'zatish, suhbat, so'rovnoma va test sinovlari o'tkazildi. Shuningdek, mavzuga xos pedagogik, psixologik va metodik mazmundagi ilmiy–adabiy manbalar, matbuot materiallari o'rganilib, tahlil yetildi. Shuning bilan birga, kollej o'quv dasturi va rejalari, darsliklar, metodik qo'llanma, tavsiyanoma va turli ssenariylar bilan ham tanishib chiqildi.

Mazkur metodik dasturda sinov darslari mazmuni uzviylik va ketma–ketlik tamoyili asosida tuzilib, unda o'quvchilarga amaliy san'at bilan bog'liq holda milliy qadriyatlar tarixidan ba'zi bir lavhalar, ketma–ketlikda o'zlashtirish imkonining berib borilishi nazarda tutildi.

Amaliy san'atdan trening dars mashg'uloti olib borildi.

Dekorativ kompozisiya mashg'ulotlari uchun mavzular tavsiya qilindi.

Kasb - hunar kollejasviriy va amaliy san'at mashg'ulotlarida, darslarida o'quvchilarni axloqiy tarbiyalash yuzasidan shakllantiruvchi bosqichda quyidagicha tajriba–sinov ishlari amalga oshirildi:

1.Shakllantiruvchi tajriba–sinov ishlari uchun sinov dars ishlanmalari tayyorlandi.

Kasb–hunar ta'limi o'quvchilari uchun o'quv materiallarini tanlashning mezonlari ishlab chiqildi.

«Yuqori daraja.

Har bir kishining amaliy san'atni bilishi va unga bo'lgan munosabatlari. Barcha ma'lumotlarni milliy qadriyatlar bilan bog'lay olishi. Axloqiylikni tushunish va amaliy san'at mashg'ulotlarida uni anglashidagi bilimlari.

O'rta daraja:

O'zbek milliy rasm–rusumlar, an'analar, udumlarni anglashi va ustoz–shogirdlikni hurmat bilan ye'zozlashi, amaliy san'atini bilishi;

Past daraja:

Amaliy san'at haqidagi, axloqiylikga doir tushunchalari, bilimlari, tasavvurlari xira.

Salbiy daraja:

Amaliy san'at haqida tasavvur bo'lsada axloqiylik tushunchalarini anglamaydi.

Shu kabi boshqa guruh o'quvchilari bilishi lozim bo'lgan amaliy san'at mashg'ulotlarida axloqiy tarbiya to'g'risidagi bilimlari yetmaydi.

Bir qator amaliy san'at darslarida xalq og'zaki ijodi, binolarning badiiy bezatilishi asosida yeskizlar ishlash nazarda tutiladi.

Tajriba–sinov ishlarida o'zbek xalq amaliy san'ati vositasida axloqiy tarbiyalash ikki yo'nalishda olib borildi:

1.O'zbek xalq amaliy san'atidagi yuksak axloqiylikka xizmat qiluvchi ibratli asarlar yaratilgan, respublika va xalqaro ko'rgazmalarda qatnashgan asarlarni namoyish qilishda axloqiylikni aks yettiruvchi mazmuniy tahlilni yo'lga qo'yish.

2. O'zbek xalq amaliy san'ati namunalaridan mahalliy ko'rgazmalarda namoyish yetilganlarini ajratib olish va ularni bolalarning axloqiy tarbiyasida foydalanishga o'rgatish. Shuningdek, namunalardan foydalanishni tizimlashtirish va qo'llanishning turli variantlarini ishlab chiqish.

O'zbek xalq amaliy san'ati namunalari axloqiylikka qaratilganlarini tanlashda mezon va tamoyillarga rioya qilindi va ayniqsa, amaliy san'at buyumlarining kompozitsiyasi, rangining jozibadorligi, yorqinligiga, yelementlarning boyligiga alohida ye'tibor berildi.

Shu xildagi tajriba–sinov darslari amaliy san'atning milliy qadriyatlarda muhim didaktik vosita bo'lishi belgilandi.

Bolalarni amaliy san'at vositasida tarbiyalanganlik darajalarini aniqlash maqsadida anketalar tayyorlandi.

Axloqiy tarbiya amaliy san'at mashg'ulotlarida darsning mazmuniga oid dars va darsdan tashqari ishlarni o'zaro uzviy bog'lab olib borish muhim ahamiyat kasb yetadi. Xususan, to'garak ishlari, tanlovlar o'tkazish, ko'rgazmalar, sayohatlar uyushtirish orqali amaliy san'atning axloqiy tarbiyadagi jihatlarini tushuntirish va bilimlarni hayotga bog'lash mumkin.

3.2. Tajriba– sinov izlanishlarining natijalari va uning tahlili.

Amaliy san'at darslarining o'ziga xos hususiyatlaridan kelib chiqqan holda, tajriba–sinov ishlari amalga oshirildi.

1. Birinchi yo'nalishda asosiy ye'tibor san'at asarlarining badiiy va pedagogik tahliliga qaratilgan bo'lib, unda o'quvchilarning kechinmalari asosida dastlabki his–tuyg'ularini va axloqiylikni tarbiyalash maqsad qilib qo'yildi. Bu o'z xalqining amaliy, me'morchilik san'atining tili, ayniqsa, ulardagi g'oya, mazmun, rang, kompozisiyaning o'ziga xos hususiyatlarini bilish, ularni tushunish va idrok yetish imkonini beradi. Ayniqsa, san'at asarlaridagi lirik va dramatik ko'rinishlar asosida ro'y beradigan ko'tarinkilik, qahramonlik kabi yestetik kategoriyalar axloqiy tarbiya masalalari tajriba–sinov ishlarining markazida bo'ldi.

2. Ikkinchi yo'nalishda bolalar ye'tibori san'at asarlarining yaratilishi tarixi, o'zbek xalq amaliy va me'morchilik san'ati namoyandalarining hayoti va ijodini o'rganish ibrat vazifasini o'tashiga qaratildi.

3. Uchunchi yo'nalishda o'quvchilarning his–tuyg'ularini badiiy–ijodiy faoliyat orqali o'stirish, axloq normalaridan chiqib ketmaslik nazarda tutildi. O'quvchilar amaliy san'at dasturi doirasida ko'rgan, ko'zatgan, o'qigan va yeshitgan, yurish–turushida, ustoz va do'stlariga bo'lgan munosabatlarida o'ziga xos jihatlari xususidagilar bilan shug'ullandilar.

4. To'rtinchi yo'nalishda mazmun va mohiyati jihatidan jahonshumul ahamiyatga yega bo'lgan o'zbek amaliy san'atiga doir asarlarni o'rganish va ulardan g'urur hissini tuyish nazarda tutildi.

Tajriba–sinov ishlari muallif tomonidan tayyorlangan amaliy san'at materiallari asosida olib borildi.

Tajriba–sinov quyidagi pedagogik shart–sharoitlarda o'tkazildi:

1. Tajriba–sinov va nazorat sinflarida hamma ta'minotlarning bir xilda bo'lishiga yerishildi.

2. Tajriba–sinov sinflari o'quvchilari tegishli ko'rsatma va metodik tavsiyalar

bilan ta'minlandi.

3. Tajriba–sinov va nazorat sinflari o'quvchilarning teng darajadagi maxsus ma'lumotga va bir xil sharoit, yetarli ish tajribasiga yega bo'lishiga ye'tibor qaratildi.

4. O'quvchilarning amaliy san'at vositasida axloqiy tarbiyaga bo'lgan munosabatlari darajalarini aniqlash ikkala guruhda ham bir xil mezonlar asosida amalga oshirildi.

Amaliy san'at asarlarining o'quvchilar tomonidan idrok yetilishi va ijodi uchun tegishli sharoitlar yaratilishida axloqiylik masalalariga harakat qilindi.

O'quv–tarbiyaviy ishlarda yekskursiya dars–mashg'ulotlari orqali o'lkani, tarixiy joylarini, tabiatini, ishlab chiqarish maskanlarini o'rganishga ham ye'tibor qaratildi. Sayohat darsiga tayyorlanishda, avvalo, obekt belgilab olindi. Sayohat rejasi tuzib chiqildi. Sayohat darsida sinf o'qituvchisi tasviriy san'at darsining mavzusiga qay tarzda bog'liqligini puxta o'ylab ko'rib, keyin o'z maqsadini tushuntirdi. Darsning 2 akademik soatda o'tilishi ishning meyorida bo'lishini ta'minladi.

Darsning metodi: sayohat, suhbat, amaliy ishlar.

Darsning rejasi: 1. Tashkiliy qism (5–10 daqiqa).

2. Sayohatni tashkil yetish, manzarali joyga borish, suhbat (20 daqiqa).

1. Amaliy ish: suratlar chizish (20–35 daqiqa).

2. O'quvchilar chizgan suratlar bo'yicha savol–javoblar (20 daqiqa).

3. Dars yakuni (10–15 daqiqa).

Mashg'ulot jarayonida o'quvchilar kollej hovlisiga olib chiqildi.

O'quvchilarni tabiatga bo'lgan sayohati davrida o'quvchilarda o'lkamiz qadimiy me'morchilik obidalariga bo'lgan muhabbat uyg'onadi hamda axloqiy tushunchalar shakllanadi. Tabiatni ko'zatish, turli rasmlar ishlash, tabiatni badiiy–yestetik idrok yetish asosiy maqsaddir. Shuning bilan birga o'quvchilar turli tabiiy materiallarni (barglar, o'xshash shox–shabbalar) yig'ishi ham mumkin, Ularning rasmlarini chizib olishlari, amaliy san'atdagi stilizasiya masalalarini anglashda o'quvchilar bilimini yanada oshiradi, unga bo'lgan

mehrini uyg'otadi. Bu o'z navbatida axloqiy tushunchalar bilan uzviy bog'lanib ketadi.

Keyingi o'tiladigan mavzuga bog'liqlik jihatlari o'quvchilar bilan tahlil qilib boriladi. Bunda rassom asarlarining foto nusxalari katta yordam beradi. Xalqimizning axloqiylikka bo'lgan qadimdan shakllanib kelayotgan tushunchalar rivojlanishiga bu omil bo'ladi.

Shu darsda o'quvchilar chizgan qoralama, yetyud, rasm nusxalari, yig'ilgan materiallar ko'rgazma qilinib, munosiblari rag'batlantirildi. Uyga vazifa qilib sayohat vaqtida ko'zatilgan tabiat ko'rinishini nakshlarda chizib kelish, rasmlardan yanada ko'proq yig'ish topshirildi.

Bu asarlar yuzasidan bo'lgan savol–javob va suhbatda bolalarga Kamoliddin Behzod hayoti haqida quyidagi mazmunda ma'lumot berildi.

Kamoliddin Behzod taxminan 1455 – yilda Hirotida kambag'al hunarmand oilasida tavallud topgan. Behzod uning ismi yoki taxallusi yekanligi noma'lum. Behzod ota–onasidan juda yerta ajraladi. Uni Mirak Naqqosh o'z tarbiyasiga olib, voyaga yetkazadi va o'zining Hirotidagi «Nigoriston»da (San'at akademiyasida) unga naqqoshlik hunarini o'rgatadi. Bunday mashhur rassomning qaramog'ida o'sib ulg'oyishning o'zi Behzodning kelajakda buyuk san'atkor bo'lib yetishishida katta ahamiyatga yega bo'lgan deb aytish mumkin. Shuningdek, Behzodning mohir san'atkor bo'lib yetishuvida yana o'sha davrda Hirot muhitidagi birtalay yetuk rassomlar, xattotlar, musiqashunoslarni birlashtirib turgan san'at akademiyasi ham katta rol o'ynagan.

Behzodning dastlabki ijodi Sulton Husayn Boyqaro saroyida va u yerdagi juda ko'p shoir, olim, san'atkorlarning homiysi amir Alisher Navoiy rahnomaligida boshlanadi. U Alisher Navoiyning ustози Abdurahmon Jomiy, Hirotidagi xattotlar ustози Sulton Ali Mashhadiy bilan yaqin aloqada bo'lib, ijod qildi. San'at va nafosatga ishtiyoqi kuchli bo'lgan Behzod mehnasevarligi, zaxmatkashligi tufayli Hirotida mashhur mo'jaz san'at ustasi bo'lib yetishdi. Shundan so'ng podsho Sulton Husayn Boyqaro Behzodni o'z huzuriga chaqirib, unga maxsus joy ajratib, ijodiy ishlariga hamma sharoitlarni yaratib berdi.

So'ngra Kamoliddin Behzod podshoning shaxsiy farmoni bilan Hirotdagi saltanat kutubxonasining boshlig'i yetib tayinlanadi. Shoh farmonida shunday deyilgan yedi: "Ijod va yaratish korxonasi musavvirning irodasi, yeru osmon nigorxonasi muharririning qudrati bilan ... hukum qilurmizki asr nodiri, musavvirlar peshvosi ... ustod Kamoliddin Behzod Humoyun kutubxonasi ahliga: kitob, naqqosh, muzahhib, jadvalkash, halkor va zarko'blarga, shuningdek, mazkur ishlarga mansub bo'lgan Olloh panohidagi barcha mamlakat jamoasiga boshchilik mansabi topshirilsin. Tahrir yetildi 884 hijriy yil 27-jumadul – avval (1487 yil 22 iyul).

1506 yilda Husayn Boyqaro vafotidan so'ng taxt kuchmanchi o'zbek qabilalarining xoni Shayboniyxon qo'lga o'tdi. Shayboniyxon ham Behzod ijodiga hurmat bilan qarab, unga tegishli sharoitlar yaratib berdi. 1510 yilda Yeronning Safaviylar saltanati Shayboniyxonga qarshi urush ochib uni yengadi. Shayboniyxon jangda holok bo'ladi. Shoh Ismoil Safaviy 1512 yilda Hirotdagi bir necha iste'dodli san'atkorlarni o'zi bilan Yeronga olib ketadi. Ular orasida Kamoliddin Behzod va uning bir qator shogirdlari ham bor yedi.

Bu yerda Behzod o'zining shogirdlari bilan mu'jaz san'atning yirik maktabini yaratdi. 1514 yilda turk podshosi Yeronga hujum qiladi. Ularning qo'li baland kelishini bilgan Yeron shohi Ismoil, Kamoliddin Behzod va mashhur hattot Shoh Mahmud Nishopuriyni turklar olib ketib qolishlaridan xavfsirab, ularni bir g'orga yashirib qo'yishga farmon beradi. 1522 yilda Shoh Ismoil Safaviy maxsus farmon bilan Behzodni Tabrizdagi saltanat kutubxonasining boshlig'i yetib tayinlaydi. Behzod o'z asarlarining ko'p qismini o'z ona yurti Hirotdan o'zoqda, Tabrizda yaratadi. Yerondagi jangu jadallar, alg'ov–dolg'ov va ur–yiqitlar Behzodning o'z ustozlari va yaqin do'stlaridan uzoqda yashashi, uning hayoti va ijodiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham musavvir "Tuyalar jangi" nomli asarini yaratganda uning chekkasiga "Qalami shikasta, nomurod, faqir Behzod umri 70 dan oshganda ushbu ishga qo'l urdi". Deb g'am–anduh bilan imzo chekkan yedi. [32, 24]. Shunga qaramasdan, Behzod Yeronda kechirgan g'am–anduh g'urbat–azoblari oldida

chekinmadi, nafasat va go'zallik olamiga, tabiat, jamiyat va insonga bo'lgan kuchli muhabbat, ijodga bo'lgan jo'shqin ishlari uni doimo ilgari yetakladi.

Darsda uning hayoti va ijodi bilan bir qatorda yuqorida qayd qilingan asarlari ham tahlil qilindi. Darsning oxirida o'qituvchi Kamoliddin Behzodning jahon madaniyati va san'atiga qo'shgan hissasi haqida to'xtaldi.

U quyidagicha mazmunda bo'ldi: Kamoliddin Behzod o'z ijodi davomida Sulton Muhammad, Qosim Ali, Darvish Ustod Muhammadiy, Muzaffar Ali, Yusuf Mulla, Rustam Ali, Shayxzoda Xurosoniy, Shoh Muzaffar, Mirsaid Ali, Mahmud Muzahhib, Abdulla kabi ko'plab shogirdlar tayyorladi. Kamoliddin Behzod ijodi Hirot, Tabriz, Buxoro, Samarqand, Sheroz, Isfaxon, Istambul, Hindiston mo'jaz san'at maktablari rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Kamoliddin Behzodning ijodini Sharq va G'arbdagi ko'pgina buyuk kishilar yuksak baholaganlar. Uni "Sharq Rafayeli" deb atashgani bejiz yemas.

Buyuk tarixchi Xondamir «Habib-us-siyar» nomli asarida Kamoliddin Behzod haqida shunday yozgan yedi: «Kamoliddin Behzod ajoyib va g'aroyib suratlarni zohir qiluvchi, hunar nodirliklarini bunyod yetuvchi, Moniy kabi surat chizuvchi mo'yqalamli, olam musavvirlari asarlarini chiqaruvchi va misli yo'q barmoqlari bilan bani odam hunarmandlari tasvirlarini mahv qiluvchidir.....» Shayboniyxon, Vosifiy va boshqalar Behzodni «jonsiz narsa tasviriga jon bag'ishlovchi mo'yqalam sohibi», deb ta'riflaganlar [9, 26].

Behzod ijodi faqatgina XV–XVI asrlar Movorounnahr madaniy hayotida ahamiyatli bo'libgina qolmay, balki butun Sharq, hattoki Yevropa kitob grafikasining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb yetdi. XVII asrda Yevropada bosmaxonaning kashf yetilishi kitob grafikasining rivoj topishiga imkon berdi.

Behzodning asarlari O'zbekistondan tashqari, Buyuk Britaniya, Turkiya, Rossiya, Yeron, Fransiya, Germaniya, Misr kabi bir qator mamlakatlarning kutubxonalarida saqlanmoqda.

Ma'ruzadan keyin boshqa savollar, testlar, suratlar ustida ishlandi. Darsda keyingi vazifalarni bajarish uchun ham ma'lum topshiriqlar berildi.

Har qanday davrda nazariy qoidalar jamiyatning rivojlanishi, ta'lim–

tarbiyaviy ishlarni olib borish yo'llarining to'g'riligi bilan belgilanadi. Axloqiy normalar bolalarning amaliy san'atga bo'lgan munosabatlarida ham yaqqol ko'rindi.

Tajriba–sinov ishlari natijasida chiqarilgan xulosalardan shuni anglash mumkinki, amaliy san'at asarlaridan g'oyaviy pishiq, yuksak badiiy saviyadagi va mazmun jihatidan bolalarning milliy va umumiy bilim darajalariga moslari tanlab olinadi.

Ko'tarilgan muammoni ijobiy hal yetish uchun o'quvchilarning mustaqil ishlari jarayonini nazorat qilib borish zarur. Tasviriy va amaliy san'at asarlarining g'oyaviy ma'nosini anglab ulardagi turli ramziylikka doir ishlariga, hayotiy yutuqlariga havas bilan qarashga, o'zida axloqiylikni tarbiyalash, yaxshi va yomon ishlardan o'zini saqlay olishga o'rgatish ijobiy natijalar beradi.

Tajriba–sinov va nazorat sinfi o'quvchilarining bilishi, taqqoslashimiz tadqiqot ishimizning ilmiy farazi to'g'riligini ko'rsatdi.

Kasb - hunar kollejo'quvchilarining amaliy san'at vositasida axloqiy tarbiyaga doir bilish darajalari ko'rsatkichi

1–jadval

Ko'rsatgichlar darajasi	Rivojlantiruvchi tajriba–sinov ishlarining oxirgi bosqichida olingan natijalar			
Yuqori	7 (22,3)	2 (25)	1 (8)	4 (10,9)
O'rta	6 (29,8)	12 (34,8)	9 (25,2)	7 (27,2)
Past	8 (47,9)	10 (40,2)	5 (66,8)	7 (61,9)
Jami:	21 (100 %)	24 (100 %)	15 (100 %)	18 (100%)

Izoh: Olingan qiymatlar St'yudent – Fisher kriteriyasini qo'llab matematik–statistik tahlil metodi yordamida aniqlandi.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, nazorat guruhida yuqori ko'rsatkich bergan o'quvchilar 7 foizni tashkil yetgan bo'lsa, tajriba–sinov guruhida bu ko'rsatkich

22,3 foiz bo'lgan. O'rtacha ko'rsatkichlar yesa nisbatan 6 va 29,8, past ko'rsatkichlar 8 dan 47,9 foizdan iborat bo'lgan. Tajriba–sinov va nazorat guruhlaridagi tahlildan ma'lum bo'ldiki, tajriba–sinov guruhlaridan olingan natija nazorat guruhlariga qaraganda 14,1 foizga ortiq. O'rta ko'rsatkichlar bu borada 7,6 foizni tashkil yetgan. Past ko'rsatkichlar tajriba–sinov guruhlarida nazorat guruhlaridagiga qaraganda 21,7 foizga kam bo'lgan. Bu ko'rsatkichlarni nazorat sinflari o'quvchilariniki bilan solishtirib ko'rilganda tajriba–sinov guruhleri o'quvchilari ancha yaxshi natijalarga yerishgani ma'lum bo'ladi.

Olib borilgan tajriba–sinov ishlari amaliy san'at o'quvchilarda hissiy kayfiyat tug'dirish va asarlardagi obrazlar bilan ta'sirlanish uchun muhim omil hisoblanishi mumkinligini ko'rsatdi.

Tajriba–sinov ishlari nafaqat amaliy san'at vositasida amalga oshirilgan ayrim jihatlariga ta'sir ko'rsatibgina qolmay, bilimlarning chuqurroq bo'lishini ham ta'minladi. O'quvchilarning amaliy san'at darslarida olgan bilim va malakalari nafaqat dars jarayonida amalga oshiriladigan tarbiyaga, shuningdek, darsdan tashqari mashg'ulotlar, ayniqsa, to'garak mashg'ulotlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Umumiy xulosa

Respublikamiz kollejlari va maktablarida olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohatlar, demokratik, iqtisodiy o'zgarishlar borayotgan davrda yoshlarni komil inson qilib tarbiyalash nihoyatda muhim ahamiyat kasb yetadi. Kasb - hunar Kollejlarda kasb-hunar ta'limiga, shaxsni shakllantirishga yordam beradigan ishlar yanada oydinlashmoqda. Bu borada kollej ta'limi amaliy san'at mashg'ulotlarining o'rni nihoyatda kattadir.

Shaxsning yuksak odamiylik sifatlaridan hisoblangan kasbiy tayyorgarligi, uni kasb-hunar ta'lim kollejarining barcha guruhlarida amalga oshirish imkoniyatlari mavjud. Ayniqsa, tasviriy va amaliy san'atning «Xalq amaliy san'at» bo'limlari bolalarda nafaqat tasviriy ijodiy qobiliyatlarni o'stirishga, uni kengaytirishga, tasviriy malakalarini rivojlantirishga balki, axloqiy, g'oyaviy tarbiyasini shakllantirishga o'z xalqining ananalari haqidagi bilimlarining kengayishga ham yordam beradi.

O'quvchilar amaliy san'at darslarida milliy qadriyatlar bilan bog'liq imkoniyatlarini qisman bo'lsa-da anglab yesalar-da, biroq uni amalga oshirish yo'llari haqida aniq tasavvurga yega bo'lmaydi. Buni quyidagilar bilan izohlash mumkin. 1. «Amaliy san'at» dasturi asosida san'at asarlarining reproduksiyalari, slayd va diopozitivlari yetarli darajada mavjud yemas. 2. Kasb-hunar va oliy o'quv yurtlarining «Amaliy san'atni o'qitish metodikasi» kursida o'qituvchilar tomonidan mazkur masalaga ye'tibor yetarli berilmayotganligi. 3. Amaliy san'at darslarida axloqiy tarbiya ishlarining amaliy jihatlariga doir ilmiy, ilmiy – metodik adabiyotlar, shu jumladan, kasb-hunar ta'limi uchun alohida darsliklar hali yetarli darajada yaratilmaganligi.

Ta'lim tizimida uning tarkibiy qismi hisoblangan tasviriy va amaliy san'atning o'rni katta. Amaliy san'at darslarida axloqiy tarbiya masalalari mavzudagi amaliy san'at asarlarini o'rganish yoshlarning uni sevish kabi xislatlarini takomillashtirishga yordam beradi. Amaliy san'atga doir tasvirlangan san'at asarlari haqida suhbatlar o'tkazish, ustalar bilan uchrashuvlar tashkil yetish bu borada ahamiyatlidir.

Amaliy san'at darslarida axloq tarbiyasining ahvoli, mavzuga doir muammolar o'rganilib, tahlil yetildi.

Bu yesa o'quvchilarni kasb o'rganishlarida ular bilan individual ishlash, zamonaviy va ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati katta yekanligini ko'rsatdi.

Amaliy san'at darslarida kollej o'quvchilarning kasbiy malakalarini oshirish samaradorligi quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ldi:

O'zbekistonning turli amaliy san'at turlari ishi axloqiy tarbiya vositasi yekanligi unning go'zal tabiatidan zavqlanish. (Bog'lar, tog'lar, mevalar, hayvonot olami, binolari); o'z milliy va xalqi yaratgan amaliy san'at namunalaridan zavqlanish; Fidokor mehnatkashlarning yaratgan amaliy san'at asarlarini tushunib yetish; o'zbek millatiga mansub bo'lgan amaliy san'atidan faxrlanish; milliy manfaatdorlik; san'at asarlarida aks yettirilgan milliy naqshlar, mustaqillik davrida qilingan ajoyib turli grih, islimi va boshqa bezaklarni bilish hamda ularga o'xshash ishlarni bajara olishga harakat qilish; mashhur o'zbek usta va amaliy san'at rassomlari, xalq amaliy san'ati ustalari ijodiga qiziqish; Axloqiy tarbiyaning nafosat, vatanparvarlik, yekologik va boshqalarni tarbiyalashdagi jihatlariga bo'lgan ye'tibor ham oshdi. Ular bilan bog'liq mavzularda badiiy–ijodiy ishlarni bajarishga bo'lgan qiziqishlar o'zgardi.

Bu kabi mezonlar o'quvchilarning kasbiy va amaliy jihatdan g'oyaviy, axloqiy shakllanishiga ham samarali ta'sir ko'rsatadi.

Bu jihatdan shu yo'nalishdagi amaliy san'at asarlarini tanlashda, ularning yuksak badiiyligi, o'quvchilar idrokiga mosligi, yoshiga mos kelishi, qiziqish uyg'otishi hisobga olinishi lozim.

O'quvchilarda amaliy san'at vositasida amalga oshirilgan ijodiy ishlar orqali shakllanganlik darajasini baholash mezonlari tayyorlandi va u ishlarimizning natijalari samaradorligini aniqlashda qo'llanildi. Mazkur mezonlar ishimizdan olingan natijalarning obektivligini ta'minladi.

Axloq tarbiyasi amaliy san'atining turli darslarda olib borilishi komil va usta insoniylik tarbiyasining samaradorligi o'qituvchilarning tarbiya va fan asoslarini

chuqur bilishlariga bog'liq. Amaliy san'atning nazariy asoslari hisoblangan naqqoshlik va kompozitsiyasi, rangshunoslik, yorug'lik masalalari kollej amaliyoti bilan bog'langandagina axloqiy tarbiya jarayoni samaraliroq bo'ladi.

Bofta — o'simliksimon naqsh yelementi. Tanob aylanib o'tib, hosil qilgan jozibali shakl. Bofta xalq amaliy san'atining barcha turlarida ishlatiladi. Uning to'g'ri yegri va aralash chiziqli turlari bo'ladi.

Ganchxok — soz tuproq, qum va ganchni suv bilan aralashtirib hosil bulgan qorishma. Ganchxok tayyorlashda bir qism ganch, bir qism qum. bir qism soz tuproq yelanmasidan aralashtiriladi. Suv qo'shib yaxshilab xolvaytar holatiga kelguncha aralashtirib keyin devorga suvaladi.

Namoyon — forscha ko'rinish, manzara demakdir. Ruscha panno. Namoyon yeng mukammallashgan yetuk naqsh kompozitsiyasi. Namoyon voqyelikning umumlashgan tasviriy obrazini o'zida aks yetadi. Masalan, chamanzor, bogu-bustonlar, daryolar, gullar, barglar va boshqalarni aks yettiradi. Namoyonning chetlariga ko'pincha hoshiya namoyonning badiiy qilib ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi. Namoyon hyech yoqqa ulanmaydigan mustaqil kompozitsiyadir.

Targ'il — naqqoshlikda naqshning gul va barglarini o'zidagi hosil bo'lgan soyalarni har xil rangli chiziqlar yordamida pardozlash. Naqqoshlikda targ'il pardoz berishning bir turi bo'lib, naqqoshlar tabiatdagi gul va barglarni o'zidagi soyalarni rangli chiziqlar yordamida tasvirlaydi. Tabiatdagi gullarning urug' va changlarini ham naqshni pardozlashda chizib bo'yab tasvirlaydi.

Usta — biror hunarni yegallab, shu sohada malaka orttirgan shaxs. O'z hunarini yaxshi biladigan kishi.

Xalq amaliy san'ati to'garagi oldiga quyilgan tarbiya masalalarini hal qilishda mashg'ulotdan tashqari qilinadigan ishlar muhim rol o'ynaydi, chunki qatnashuvchilarning mashg'ulotlarda o'rgangan bilim va tajribalarini mustahkamlashda, dunyoqarashini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Mashg'ulotdan tashqari quyidagi ishlarni uyushtirish maqsadga muvofiqdir:

Tasviriy va xalq amaliy san'ati, tarix muzeylariga, ganch, yog'och, tosh o'ymakor ustalarning ishlayotgan joylariga, arxitektura yodgorliklariga hamda qo'shni to'garakka yekskursiya qilish;

O'zbekistondagi xalq amaliy san'ati ustalari, san'ashunos olimlar va boshqalar bilan uchrashuvlar o'tkazish;

Qatnashuvchilarning ishlaridan ko'rgazmalar tashkil yetish.

«YOSH ustalar» nomli devoriy gazetalarni muntazam chiqarib turish.

–«Mohir qo'llar», «Bizning ustalar», «Go'zallik sohibkorlari», «Mashhur o'ymakor ustalar» temalarida stendlar tashkil yetish;

–mashhur ustalarning ishlaridan va qatnashuvchilarning ishlaridan fotoal'bomlar tayyorlash;

–yosh o'ymakor ustalarning hayoti va ijodiga bagishlab ijodiy jurnallar tayyorlash;

–qatnashuvchilar o'rtasida konkurslar o'tkazish;

–viktorinalar tashkil yetish;

–mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda xalq amaliy san'ati, arxitektura yodgorliklari va boshqalarga oid diafil'mlar va kinofil'mlar ko'rsatish.

Arxitektura, muzey yoki ganchkorlar, yog'och o'ymakorlar, misgarlar ish obektiga borish, ustalarning ishlaridan naqsh namunalaridan nusxalar olish.

Xalq amaliy san'ati ustalarining naqsh kompozitsiyalari va o'yma ishlaridan fotonamunalar va ko'rgazmalar tashkil yetish; olimpiadalar o'tkazish;

–ustalarning ishlaridan fotonamunalar saqlash uchun alohida papkachalar tashkil yetish;

–bu ishlar to'garakning maxhalliy sharoitiga moslab, to'garak dasturiga asoslanib, tuziladi, rahbarning ish rejasi asosida olib boriladi.

Xalq amaliy san'ati to'garagi belgilagan dastur asosida to'garak qatnashuvchilari quyidagi talablarni hayotda tatbiq yetishi lozim:

1. o'zbek xalq amaliy san'atining hayotdagi roli va uning ahamiyati;
2. xalq amaliy san'atida ishlatiladigan materiallarning hammasida ishlay olish;

3. xar xil asboblarda yerkin ishlay olish;
4. naqsh turlari va ularning yelementlarini chiza bilishi;
5. o'simliksimon, geometrik, ramziy va boshqa naqsh turlarini tuza bilish;
6. bu naqshlarni xalq amaliy san'ati turlarida qullay bilish;
7. xalq amaliy bezak san'ati buyumlarini yasay olish;
8. ish o'rnini toza tutish, texnika xavfsizligi, yong'in xavfsizligi va gigiyena qoidalarini bilish;
9. ish vaqtidan unumli foydalanish;
10. ish o'rnini va ishning yeng ilg'or metodlarini tashkil yetishni bila olishi;
11. murakkab bo'lmagan xalq amaliy bezak san'ati asarlarini o'qiy olish va ularni tahlil qila olishlari kerakligi va boshqalar.

Bu to'garak mashgulot dasturini to'liq o'zlashtirgan har bir qatnashuvchi turli joylarda klub, madaniyat uyi qoshlarida xalq amaliy san'ati bo'yicha o'qituvchilar, to'garak rahbari sifatida ishlashlari mumkin.

O'zbek xalqi o'zining qadimiy va boy madaniyati bilan butun dunyoga mashhurdir. O'zbekistonning qadimiy yodgorliklari va tuproq osti qismi ulkan tarixiy muzeydir. Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Termiz va boshqa shaharlardagi har bir arxitektura yodgorligi bir buyuk asar, nodir qulyozmalar, xalq amaliy san'ati namunalari bir vaqtlar o'zbek xalqining madaniyati naqadar yuksak bo'lganligidan dalolat beradi, chunonchi ota-bobolarimiz qurgan binolar, me'morchilik bezaklari, ularning rang-barangligi, geometrik va o'simliksimon naqshlar ularning kompozision tasviri zavq olishga, tarbiyalanishga, ular orqali o'z orzu umidlarini, muhabbatlarini xalqqa izhhor yetishga chorlaydi. Asrlar davomida orttirgan madaniy boyligimiz, xalq amaliy san'atining ayrim turlari, ularning o'ziga xos tomonlari, haqiqiy o'zbekcha nomlari ishlash texnologiyasi va ularni yaratgan ustalarimizning nomlari asta-sekin unutilib ketish arafasida. Shuning uchun xalqimizning asrlar bo'yi qilgan ijodiy mehnati natijasida yaratilgan tarixiy yodgorliklar va boshqa amaliy

san'atini ko'z qorachigidek saqlash, qadrlash va ulardan foydalanish hozirgi davrimizning yeng muhim vazifalaridan biridir.

Madaniy meros va yuksak badiiylilik milliy an'anani rivojlantirishga undan foydalanish, undagi ijodiy amaliyot uslublarini joriy yetish, tabiiy material bilan ishlash, kishilarda ayniqsa, yoshlarda qunt chidam, qat'iyat, xalq amaliy san'atining qiziqarli o'ziga xos turlariga daxldor yetish maqsadga muvofiqdir.

O'zbek xalq amaliy san'ati to'garaklari mashg'ulotlarining samaradorligini oshirish uchun texnika vositalaridan foydalanib kinofil'mlar, diafil'mlar slaydalar, namoyish qilish, ilmiy asoslarga! dasturlar tuzish, o'quv metodik ko'rgazmalar tayyorlash, yekskursiya, tanlovlar, viktorinalar o'tkazish, hozirgi zamon pedagogik-psixologiyasining ilgor yutuklariga suyangan holda mashg'ulotlar o'tkazish, o'quv moddiy bazasini mustahkamlash, mahalliy materiallardan foydalanish, ko'rgazmalar tashkil yetish, kabinetlarni zamonaviy jihozlash, ta'lim-tarbiya masalalarini muvaffaqiyatli hal yetish uchun didaktik prinsiplar, ya'ni ta'limning tarbiyalovchi prinsipi, ilmiylik prinsipi, muntazamlilik prinsipi va ketma-ketlik, onglilik-aktivlik, ko'rgazmalilik, o'qitishning qatnashuvchilar kuchiga yoshiga mosligi va boshqa prinsiplarga rioya qilish alohida ahamiyat kasb yetadi.

O'zbek xalq amaliy bezak san'ati ham san'at, ham hunar. U asrlar mobaynida ota bobolarimiz tomonidan ko'z qorachigidek asrab avaylab kelingan xalq amaliy san'at durdonasidir. Tarixda va ayni kunlarda bizda saqlab kelinayotgan bu amaliy san'at turlari kelgusida yanada qadrlanadi, ardoqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Normativ – huquqiy hujjatlar

1. “O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi”. –T.: O‘zbekiston, 2007. 34–bet.
2. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni “Ta’lim to’g’risida” Toshkent Sharq 1998 yil 20-29 bet
3. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to’g’risida Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori ”Toshkent” Sharq 1997 yil 32- 63 bet
4. 2004-2009 yillarda maktab ta’limining rivojlantirish davlat umummilliy dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida
5. O‘zbekiston Respublikasi VM ning 2004 yil 2 iyuldagi 321 sonli qarori
6. O‘zbekiston Respublikasida o’rta mahsus kasb-hunar ta’limini tashkil etish chora – tadbirlari to’g’risida O‘zbekiston Respublikasi VM ning 1998-yil 13-maydagi 204-sonli qarori
7. O‘zbekiston Respublikasi VM ning O’rta mahsus kasb-hunar talimining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to’g’risida 2000-yil 6-oktyabr qarori
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 maydagi «O‘zbekiston Respublikasida umumiy o’rta ta’limni tashkil yetish to’g’risida»gi 203– sonli qarori. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limiga oid normativ–huquqiy xujjatlar to’plami.1–jild.T.: «Polipaper» O‘zbekiston–Rossiya qo’shma korxonasi va O‘zbekiston matbuat va axborot agentligi G’afur G’ulom nashriyoti hamkorligida, 2008.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2004 – 2009 yillarda maktab ta’limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturini amalga oshirish chora–tadbirlari to’g’risida»gi 2001 yil 16 avgustdagi 343 sonli qarori. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limiga oid normativ – huquqiy hujjatlar to’plami. 2–jild. T.: «Polipaper» O‘zbekiston – Rossiya qo’shma korxonasi va O‘zbekiston matbuat va axborot agentligi G’afur G’ulom nashriyoti hamkorligida, 2008.

10. Karimov I.A. "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori". – T.: Sharq, 1997. 78– bet.

11. Karimov I.A. "Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir". – T.: O'zbekiston, 1996. 234 –bet.

12. Karimov I. A. "Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch". –T.: Ma'naviyat, 2008. 179–bet.

13. Ta'lim taraqqiyoti O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining axborotnomasi: 4 – maxsus son. "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari": Tasviriy san'at. (Mualliflar: R .Hasanov., A. Sulaymonov., N. Abdullayev). – T.: Sharq, 1999, 4 – maxsus son.

14. Qurbonov Sh. v.b. "Barkamol avlod orzusi". – T.: Sharq, 1998.

Darslik va o'quv qo'llanmalar:

1. Hasanov R. "Tasviriy san'at asoslari". – T.: G'ofur G'ulom nomidagi matbaa – ijodiy uyi, 2008.

2. Hasanov R. "Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi". –T.: Fan, 2004.

2. "O'zbekiston san'ati". (1991–2001 yillar) Tahrir hay'ati: H. Karamatov, N. Jo'rayev, v.b. /. – T.: Sharq, 2001.

4. Hasanov R. "Metodicheskiye osnovy xudojestvennogo obrazovaniya i vospitaniya v uzbekskoy shkole (Na materiale urokov izobrazitel'nogo iskustva)". – T.: Fan, 1990.

5. Munavvarov A.K. "Pedagogika". – T.: O'qituvchi, 1996.

6. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. –T.: O'qituvchi, 1996. – 192 b.

7. Oydinov N. "O'zbekiston tasviriy san'at tarixidan lavhalar". T.: O'qituvchi, 1997.

8. Oripov B. "4 – 6 sinflarda tasviriy san'at haqida suhbat o'tkazish jarayonida vatanparvarlik tarbiyasi". Sb. stat. T.G.P.I.–T.: 1977

8. "Umumta'lim maktablarida tasviriy san'at ta'limi konsepsiyasi va

standarti”. Hasanov R. – T.: O’z PFITI, 1997. 17–bet.

9. Abu Nasr Forobiy. “Fozil odamlar shahri”. – T.: Xalq merosi, 1993.–224 b.

10. Bulatov S.S. “O’zbek xalq amaliy bezak san’ati”. – T.: Mehnat, 1991.

11. Yo’ldoshev J.G’. Usmonov S.A. “Pedagogik texnologiya asoslari”. – T.: O’qituvchi. 2004. – 104 b.

12. Ibn Arabshoh. “Amir Temur tarixi. (Temur tarixida taqdir ajoyibotlari)”. – T.: Mehnat, –1992.

13. Imom Ismoil al – “Buxoriy. Al – Adab al – Mufrid. (Adab durdonalari)”. – T.: O’zbekiston, 1990.

14. Karimova V. “Psixologiya”. O’vuv qo’llanma. – T.: Xalq merosi, O’AJBIT markazi, 2002.

15. Pulatov X. “Mustaqilligimiz qadriyatlari. O’zbekistonning milliy istiqlol mafkurasi”. – T.: O’zbekiston, 1993. – 76 b.

Ilmiy jurnallar maqolalar

1. “Kamoliddin Behzod hayoti va ijodini o’rganishning pedagogik ahamiyati”. Respublika ilmiy–amaliy konferensiyasi materiallari. –T: O’zPFITI, 1995.

2. “Kamoliddin Behzodning jahon tasviriy san’ati va ta’lim tizimiga ta’siri” Respublika ilmiy – amaliy konferensiyasi materiallari. – T: O’zPFITI, 2000.

Internet saytlari.

Www.ART.ru

Www.Yandex.ru

Www.yahoo.com

Www.Google.ru


www.n.b.g.t.intal.uz.

Www.Ziyonet.ru



Www.referat.uz



«Namoyon». Davlat mukofotining laureati Quli Dalilov
(1892 - 1961). Samarqand. 1940 y. Ganchkorlik, naqqoshlik.
O'zbekiston Davlat san'at muzeyi, Toshkent.



So'zana. Jizzax, XIX asr oxiri. Potli materialga ipakdan kashta tikilgan, bosma chokli, yo'rmado'zi. O'zbekiston Davlat san'at muzeyi, Toshkent.




Kulolchilik buyumlari
Lagan va guldonlar Toshkent
kulolchilik maktabining yirik
namoyandasi M.K.Rahimovning
asarlari.



Juzdonlar. Qo'qon, Buxoro, XIX asr.

Perosi g'ilof ichida yashiringan aftoruchka ixtro yetilgunga qadar qalam, dovot, mo'yqalam, naqqoshlik pichoqchalari singari kasb-hunar qurollarini saqlash uchun juzdondan foydalanilgan. Tashqi ko'rinishi, tuzilishi, xomashyosi katta-kichikligi, bezagi jihatidan juzdonlar xilma-xil bo'lgan. Qog'oz qorishmasidan qilingan juzdonlar sirtiga lak surilib, tempera bo'yog'ida naqsh chekilgan.



Knyaz N.K. Romanov saroyi. Toshkent, XIX asr oxiri.


Knyazning yevropacha usulda qurilgan saroyi ichkarisini bezashda Toshkentlik naqqoshlar katta mahorat ko'rsatganlar. Yorqin, nafis ishlangan islamiy naqshlar va girihlar zalga o'zgacha oro bag'ishlab turadi.



O'simliksimon naqsh. Naqqosh Anvar Ilhomov




Gulli girih naqqosh Anvar Ilhomov



To'g'ri to'rburchak shaklidagi o'simliksimon naqsh kompozitsiyasi.



Farg'ona naqqoshlik maktabi naqsh loyihasidan namuna “Namoyon”




Qo'qon naqqoshlik maktabi naqsh loyihasidan namuna



Aylana ichida naqsh kompozitsiyalari



XALQ AMALIY SAN'ATI NA'MUNASI



XALQ AMALIY SAN'ATI NA'MUNALARI